

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**MAHSULOTLARNI DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZISH VA MUVOFIQLIKNI BAHOLASH TARTIBLARIGA OID
NIZOMLARNI TASDIQLASH TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi **Qonuni**, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 27-fevraldagi PF-41-son **Farmoni** ijrosini ta'minlash, shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ushbu sohani shaffof tizimga aylantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilarni nazarda tutuvchi:

Oldingi tahrirga qarang.

(1-bandning "a" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 2-sentabrdagi 554-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.09.2025-y., 09/25/554/0797-son)

b) Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizom **2-ilovaga** muvofiq:

mahsulotlarning intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarini o'rganish va tekshirish;

sertifikatlashtirish ishlarini amalga oshirish;

mahsulotlarni sertifikatlashtirish sxemalarini qo'llash;

sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash;

muvofiqlik sertifikatiga o'zgartirish kiritish tartibi;

Oldingi tahrirga qarang.

(1-bandning "v" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 26-dekabrdagi 831-son qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2025-y., 09/25/831/1227-son)

g) Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizom **4-ilovaga** muvofiq:

sertifikatlashtirish ishlarini amalga oshirish;

sertifikatlashtirishga arizani qabul qilishni rad etish uchun asoslar;

muvofiqlik sertifikatini tasdiqlash, uning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish va uni bekor qilish;

sertifikatlashtirish sohasini kengaytirish yoki qisqartirish;

menejment tizimlarini joriy etish hamda o'qitish bo'yicha ishlar va xizmatlar to'lovi, uni hisoblash tartibi;

d) Mahsulotlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar ro'yxatini yuritish, ularni erkin muomaladan chiqarish va utilizatsiya qilish tartibi to'g'risidagi nizom **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin:

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga mahsulotlarni nomuvofiqligini aniqlash;

nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni savdodan chaqirib olish, utilizatsiya qilish hamda ularning ro'yxatini yuritish;

mahsulotlarni olib kirishni qayta tiklash tartibi.

2. Muvofiqlikni tasdiqlovchi hujjatlarni rasmiylashtirishda quyidagi tartib o'rnatilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin:

O'zbekiston Respublikasining rezidenti hisoblangan akkreditatsiyadan o'tgan muvofiqlikni baholash organlari tomonidan xavf darajasi yuqori bo'lmagan mahsulotga muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya ro'yxatga olinganda (amal qilish muddatidan qat'i nazar), ushbu muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya asosida mahsulot yigirma to'rt oy davomida import qilinishi mumkin. Mazkur tartib muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyada keltirilgan aynan bir ishlab chiqaruvchining bir turdagi mahsulotiga nisbatan amal qiladi;

muvofiqligi deklaratsiyalash yo'li bilan tasdiqlanishi lozim bo'lgan mahsulotlar O'zbekiston Respublikasiga import qilinganda, ularning muvofiqligini uchinchi tomon tasdiqlaydi.

3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi bir oy muddatda:

mazkur qaror bilan belgilangan soddalashtirilgan tartib asosida olib kiritilgan tovarlar importi to'g'risida idoralararo nazoratni amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi va O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga tegishli ma'lumotlarni doimiy taqdim etib borish tizimini yo'lga qo'ysin;

ushbu qaror bilan tasdiqlangan tartiblardan kelib chiqib, "Yagona darcha" bojxona axborot tizimiga tegishli o'zgartirishlar kiritilsin.

4. Xavf darajasi yuqori bo'lgan mahsulotlarni majburiy tartibda davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan, majburiy tartibda sertifikatlanadigan, xavf darajasi yuqori bo'lmagan mahsulotlarning muvofiqligini deklaratsiyalash tartibining amaliyotga tatbiq etilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining [6-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

5. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

6. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda texnik reglament loyihalarini ishlab chiqishda mazkur reglamentlarning obykti hisoblangan mahsulotlarning muvofiqligini baholash qismi mazkur qarorning [1 — 3-ilovalari](#) bilan tasdiqlangan nizomlarga muvofiqlashtirilishini ta'minlasinlar.

(6-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-noyabrdagi 727-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.11.2024-y., 09/24/727/0905-son)

7. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori A.R. Jumanazarov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2024-yil 14-avgust,
502-son

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 2-sentabrdagi 554-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.09.2025-y., 09/25/554/0797-son)

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-
avgustdagi 502-son qaroriga
2-ILOVA

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarida (keyingi o'rinlarda — texnik reglamentlar) belgilangan mahsulotlarning muvofiqligini sertifikatlashtirish yo'li bilan tasdiqlash tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom mahsulotlar yoki mahsulot talablariga bog'liq loyihalashtirish jarayonlari (shu jumladan, tadqiqotlar), ishlab chiqarish, qurilish, montaj, sozlash, foydalanish, saqlash, tashish, sotish va utilizatsiya qilish (keyingi o'rinlarda — mahsulot) uchun texnik reglamentlarda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlashning sertifikatlashtirish sxemalarini o'z ichiga oladi.

Mazkur Nizom talablari majburiy sertifikatlashtirishga tatbiq etiladi.

2. Majburiy tartibda sertifikatlashtiriladigan mahsulotlar turlari ro'yxati Hukumat qarorlari hamda texnik reglamentlarda belgilanadi.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirishning sxema, usul va tartiblari texnik reglamentlar hamda ushbu Nizom talablariga muvofiq belgilanadi.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlari (keyingi o'rinlardan — MSO) tomonidan ularning akkreditatsiya sohasi doirasida amalga oshiriladi.

Hukumat qarorlari hamda texnik reglamentlarda belgilangan mahsulotlar turlariga muvofiq sertifikat rasmilashtirilgandan so'ng O'zbekiston Respublikasi hududiga erkin muomalaga chiqariladi. Bunda:

respublika hududida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sertifikatlashtirish ushbu mahsulotlarni realizatsiya qilishdan avval amalga oshiriladi;

respublika hududiga olib kirilayotgan mahsulot, ariza beruvchi tanloviga asosan bojxona hududiga kelgunga qadar yoki kelgandan so'ng sertifikatlashtiriladi. Bunda respublika hududiga yetib kelgunga qadar rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikati "Yagona darcha" bojxona axborot tizimiga va Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimiga import qiluvchi tomonidan joylashtirilishi lozim.

3. Mahsulotga xos xavfli omillar va xatarlarni umumlashtirish va tahlil qilish, shuningdek, texnik reglamentda va ushbu Nizomda belgilangan sertifikatlashtirish sxemalarini hisobga olgan holda sertifikatlashtiriladi.

Texnik reglamentlarda mahsulotning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, muvofiqlikni tasdiqlashning ushbu hujjatda ko'zda tutilmagan boshqa sxema, usul va tartiblari belgilangan bo'lishi mumkin.

Agar mahsulotga nisbatan ilgari qabul qilingan texnik reglamentda sertifikatlashtirishning sxema, usul va tartiblari belgilangan bo'lsa yangi ishlab chiqilayotgan texnik reglamentlarda ham ushbu mahsulotga nisbatan sertifikatlashtirishning xuddi shunday sxema, usul va tartiblari belgilanadi.

4. Ariza beruvchiga ma'lum bir mahsulot turiga sertifikatlashtirishning maqbul sxemasini tanlash huquqini berish maqsadida texnik reglamentda sertifikatlashtirishning bir nechta sxemalari belgilanishi mumkin.

5. Mahsulotlarni sertifikatlashtirishda bir nechta akkreditatsiyadan o'tgan MSO mavjud bo'lsa, ariza beruvchi o'z tanloviga binoan ulardan biriga murojaat qilish huquqiga ega.

2-bob. Asosiy tushunchalar

6. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyasi — akkreditatsiya organi tomonidan rasman tan olingan va muvofiqlikni baholash organlari yagona davlat reyestriga kiritilgan, sinov va o'lchashlarni amalga oshiradigan O'zbekiston Respublika qonunchiligiga muvofiq ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxs yoki uning nomidan harakat qiluvchi ushbu yuridik shaxsning tarkibiy bo'linmasi;

ishlab chiqarishni baholash — MSO tomonidan turkum ishlab chiqarilgan mahsulotlar muvofiqligini tasdiqlashda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning texnik reglament talablariga doimiy (barqaror) muvofiqligini ta'minlash uchun zaruriy sharoitlar mavjud ekanligini aniqlash

maqsadida o'tkaziladigan amallar to'plamini o'zida ifodalovchi mahsulotni sertifikatlashtirishning bir bosqichi;

yagona buyum — donabay mahsulotning alohida yakka nusxasi;

import qiluvchi — mahsulot yetkazib beruvchi xorijiy ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) bilan tashqi savdo bitimini tuzib, ushbu mahsulotni respublika hududida muomalaga chiqaradigan va uning texnik reglament talablariga muvofiqligi uchun javobgar bo'lgan, qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi — qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan va belgilangan tartibda menejment tizimlarini sertifikatlashtirish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi organ sifatida akkreditatsiyadan o'tgan yuridik shaxs;

mahsulot to'pi — muvofiqlikni tasdiqlash uchun ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan yuk hujjatiga muvofiq bir turdagi, bir nomli va belgili mahsulot birligi;

sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash — sertifikatlangan mahsulotning sertifikatlashtirilayotganda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan davriy, takroriy baholash tartib-taomili;

sotuvchi — ishlab chiqaruvchi bo'lmagan holda mahsulotlarni shartnoma bo'yicha muomalaga chiqaruvchi, respublika qonunchiligida belgilangan tartibda tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

seriyali ishlab chiqariladigan mahsulot — yagona texnik hujjatlarga muvofiq yagona texnologik jarayon bo'yicha ishlab chiqariladigan va respublika hududida davriy yoki paydar-pay muomalaga chiqariladigan mahsulot to'pi;

ishlab chiqaruvchining o'z sinov laboratoriyasi — ishlab chiqaruvchining sinov va o'lchashlarni qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linmasi;

sertifikatlashtirish sxemasi — mahsulotning texnik reglament talablariga muvofiqligi dalili sifatida ko'rib chiqiladigan harakatlar majmui;

yukka ilova qilinadigan hujjatlar — mahsulot nomenklaturasi va miqdorini belgilovchi hujjatlar;

ishlab chiqaruvchining filiali — ishlab chiqaruvchining yuridik shaxs bo'lmagan, hududidan tashqarida joylashgan va uning barcha funksiyalari yoki ularning bir qismini bajaradigan alohida bo'linmasi;

ariza beruvchi — ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi yoki import qiluvchi;

MXIK — Mahsulotlar (tovar va xizmatlarning) Yagona elektron milliy katalogidagi identifikatsiya kodi.

3-bob. Sertifikatlashtirish tartibi

7. Mahsulotlar ushbu Nizomga [1-ilovada](#) keltirilgan sxemaga muvofiq sertifikatlashtiriladi. Bunda ushbu Nizomning [19-bobida](#) keltirilgan sertifikatlashtirish sxemalarining qo'llanilishi hisobga olinadi.

Sertifikatlashtirish sxemalari ketma-ket bajariladigan quyidagi tartiblarni o'z ichiga oladi:

a) ariza beruvchi yoki uning rasmiy vakili MSOga mahsulotlarni sertifikatlashtirish uchun ushbu Nizomning **9-bandida** nazarda tutilgan ma'lumotlar kiritilgan arizani Nizomning **10-bandida** keltirilgan hujjatlarni ilova qilgan holda taqdim etish;

b) mahsulotlarga sertifikat rasmiylashtirishda, intellektual mulk obyektlariga (tovar belgilari, tovar kelib chiqqan joy nomlari va geografik ko'rsatkichlar) (keyingi o'rinlarda — IMO) huquqlariga rioya etilganligini o'rganish va tekshirish;

v) MSO tomonidan ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni ko'rib chiqish va tahlil qilish, sertifikatlashtirish ishlarini amalga oshirish yoki sertifikatlashtirish ishlarini amalga oshirishni rad qilish yuzasidan qaror qabul qilish va ariza beruvchiga qaror to'g'risida xabar (bevosita yoki elektron ko'rinishda) berish;

g) agar sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan bo'lsa, MSO tomonidan sinov va o'lchashlar o'tkazish uchun mahsulot namunalari (nusxalarini) identifikatsiya qilish va (yoki) tanlash;

d) agar sertifikatlashtirish sxemasida sinov va o'lchashlar o'tkazish nazarda tutilgan bo'lsa, MSO tomonidan sinov va o'lchashlarni o'tkazish uchun (zarur bo'lganda) shartnoma asosida o'zi hamkorlik qiladigan akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyasini (markazini) (keyingi o'rinlarda — SL) jalb qilish, agar ariza beruvchi biror sababga ko'ra sinov va o'lchashlarni jalb qilingan SLda o'tkazish mumkin emas deb hisoblasa, bu haqda MSOga (rad etish sabablarini ko'rsatgan holda) ma'lum qilishi shart. Bu holda, MSO sinov va o'lchashlarni o'tkazish uchun o'zi hamkorlik qiladigan boshqa SLni jalb qiladi;

e) agar sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan bo'lsa, SL tomonidan tanlangan mahsulot namunalari sinov va o'lchashlarini o'tkazish;

j) agar sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan bo'lsa, MSO tomonidan mahsulot turi tadqiqotini o'tkazish;

z) agar sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan bo'lsa, MSO tomonidan mahsulot loyihasi tadqiqotini o'tkazish;

i) agar sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan bo'lsa, MSO tomonidan ishlab chiqarishni joyning o'zida baholash;

k) MSO tomonidan mahsulotning sertifikatlashtirish ishlari natijalarini tahlil qilish va muvofiqlik sertifikatini berish yoki berishni rad etish yuzasidan qaror qabul qilish;

l) MSO tomonidan muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va taqdim qilish;

m) davlat reyestriga rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikatlari haqidagi ma'lumotlarni kiritish;

n) agar sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan bo'lsa, ariza beruvchi tomonidan mahsulot belgilangan tartibda muvofiqlik belgisi bilan tamg'alanishi (markirovkalanishi);

o) agar sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan bo'lsa, MSO tomonidan sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash.

8. Sertifikatlashtirish ishlari ariza beruvchining tashabbusi bilan MSO va ariza beruvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

4-bob. Ariza taqdim qilish

9. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish uchun ariza beruvchi, mazkur Nizomga **3-ilovada** keltirilgan shaklda arizani tegishli MSOga tegishli elektron tizim orqali yuboradi.

Arizada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

a) MSOning to'liq nomi, uning joylashgan joyi (yuridik shaxsning manzili);

b) yuridik shaxs uchun — ariza beruvchining to'liq nomi, uning joylashgan joyi (yuridik shaxsning manzili) va faoliyat joyi (joylari) (manzillari turlicha bo'lsa), yoki yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxs uchun — familiyasi, ismi va otasining ismi, yashash va faoliyat joylari (manzillar turlicha bo'lsa) hamda ariza beruvchining yuridik yoki respublika qonunchiligiga muvofiq jismoniy shaxs sifatida davlat ro'yxatiga olinayotgan paytda beriladigan shaxsiy yoki buxgalteriya (jismoniy shaxs, identifikatsiya) raqami, bank rekvizitlari, telefon raqami va elektron pochta manzili;

v) yuridik shaxs yoki respublika qonunchiligiga muvofiq MSOga ariza bilan murojaat qilishga vakolatli (vakolat beruvchi hujjatning nomi va tafsilotlari ko'rsatilgan holda) tashkilot rahbarining lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi (mavjud bo'lsa);

g) yuridik shaxs uchun ishlab chiqaruvchi va uning filiallarining to'liq nomi, uning joylashgan joyi (yuridik shaxsning manzili) va mahsulot ishlab chiqarish joyi manzili (agar manzillari turlicha bo'lsa) yoki yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatga olingan shaxs uchun familiyasi, ismi va otasining ismi, yashash va mahsulot ishlab chiqarish joyi manzili (agar manzillari turlicha bo'lsa);

d) mahsulot identifikatsiyasini ta'minlovchi ma'lumotlar, jumladan:

mahsulotga ishlab chiqaruvchi tomonidan qo'yilgan nom va boshqacha (mavjud bo'lsa) ifodalanishi (texnik reglamentlarda nazarda tutilgan hollarda);

mahsulot nomi va MXIK (qonunchilikda belgilangan mahsulot turiga) kodi (texnik reglamentlarda nazarda tutilgan hollarda) (mavjud bo'lsa);

mahsulot haqida uning identifikatsiyasini ta'minlaydigan boshqa ma'lumotlar (mavjud bo'lsa);

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasiga muvofiq mahsulot kodi (kodlari) (keyingi o'rinlarda — O'zbekiston Respublikasining TIF TN kodlari);

mahsulot ishlab chiqarilishiga asos bo'lgan hujjat(lar)ning belgilanishi va nomi (O'zbekiston Respublikasining milliy standarti, xalqaro standart, mintaqaviy yoki xorijiy mamlakatlarning standarti yoki qonunchilikda belgilangan boshqa normativ hujjatlar);

sertifikatlashtirish obyektining nomi (seriyali ishlab chiqarish, to'p yoki yagona mahsulot). Turkum ishlab chiqarish uchun "turkum ishlab chiqarish" yozuvi amalga oshiriladi. Mahsulot to'pi uchun to'p hajmi, bitta mahsulot uchun mahsulotning zavod raqami (mavjud bo'lsa) ko'rsatiladi. Zavod raqami bo'lmasa "bir nusxada" yoki "yagona mahsulot" yozuvi bilan belgilanadi;

bitta mahsulot yoki mahsulot to'pi, shu jumladan, uning hajmini (mahsulot to'pi va bitta mahsulot uchun) belgilaydigan shartnoma (yetkazib berish shartnomasi) tafsilotlari va yukka ilova qilinadigan hujjatlar;

e) ariza beruvchi tomonidan tanlangan sertifikatlashtirish sxemasi;

j) mahsulotning muvofiqligi baholanadigan texnik reglament nomi;

z) agar ishlab chiqaruvchi o'z nomidan mahsulot ishlab chiqarish (tayyorlash) uchun buyurtmani boshqa yuridik shaxslarning, shu jumladan, respublikadan tashqarida bo'lgan va respublikaning qonunchiligiga muvofiq yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslar ishlab chiqarish maydonlariga (keyingi o'rinlarda — ishlab chiqarish maydonchalari), joylashtiradigan bo'lsa buyurtma ijrochisining to'liq nomi, joylashgan joyi (yuridik shaxsning manzili) va mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha faoliyat yuritiladigan joy manzili (manzillari);

i) joriy etilgan menejment tizimini tasdiqlovchi tegishli muvofiqlik sertifikat haqidagi ma'lumotlar (sertifikatlashtirish sxemasida ko'zda tutilganda);

y) mahsulotlar to'pining xos xususiyatlari, shu jumladan, tarkibi va hajmi (to'pga kiritilgan mahsulot birliklari soni) (sertifikatlashtirish sxemasida ko'zda tutilganda);

k) yagona ekanligini belgilovchi ma'lumotlar (sertifikatlashtirish sxemasida ko'zda tutilganda).

10. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

mahsulotning texnik (loyihaviy va (yoki) konstruktorlik va (yoki) texnologik va (yoki) foydalanish) hujjatlari nusxalari;

standartlar ro'yxati (ularning belgilanishi va nomlari, agar texnik reglament talablariga rioya qilinishi xalqaro va mintaqaviy standartlar ro'yxatiga kiritilgan standartlarning to'liq qo'llanishi bilan emas, balki ularning alohida bo'limlari (bob, bandlar)ni qo'llash orqali ta'minlanadigan bo'lsa, ushbu standartlarning alohida bo'limlari (boblari, bandlari). Ular (O'zbekiston Respublikasining milliy standartlari va xalqaro standartlar) mavjud bo'lmagan hollarda mintaqaviy yoki xorijiy mamlakatlarning standarti, ularni ixtiyoriy ravishda qo'llash (ular ariza beruvchi tomonidan qo'llanilsa) natijasida texnik reglamentlar talablariga muvofiqligi ta'minlanadi;

agar texnik reglamentlar talablariga rioya qilinishini ta'minlaydigan, ixtiyoriy ravishda qo'llaniladigan standartlar qo'llanilmagan yoki mavjud bo'lmasa, texnik reglamentlar talablariga muvofiqlikni tasdiqlovchi qabul qilingan texnik yechimlar va xavfni baholash natijalari tavsifi (zarur bo'lganda);

mahsulotni tamg'alash (markirovkalash) namunasi (mahsulot to'g'risida axborot), chetdan olib kelinayotgan mahsulotni sertifikatlashtirish uchun mahsulotni tamg'alash (markirovkalash) namunasi (davlat tilida yorliqlanishi shart bo'lgan mahsulot to'g'risida axborot lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida ko'rsatiladi) (notijorat maqsadlar uchun mo'ljallangan mahsulotlar bundan mustasno);

mahsulot ishlab chiqarishga asos bo'luvchi hujjat(lar) nusxasi (O'zbekiston Respublikasining milliy standarti, xalqaro standart, mintaqaviy yoki xorijiy mamlakatlarning standarti yoki boshqa hujjat);

sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga tatbiq etiladigan, ishlab chiqaruvchi tomonidan joriy etilgan menejment tizimining tegishli menejment tizimi standarti talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi va menejment tizimini sertifikatlash organi tomonidan rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikat nusxasi (keyingi o'rinlarda — menejment tizimi muvofiqlik sertifikat) (sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan hollarda);

mahsulotning murakkab tarkibiy qismlari, materiallari, butlovchi buyumlari yoki tarkibiy qismlarining muvofiqlik sertifikatlari nusxalari (mavjud bo'lsa);

respublika hududiga yetkazib berilgan mahsulotning texnik reglament talablariga muvofiqligi ta'minlanishi va bunday mahsulotlarning belgilangan talablarga mos kelmasligi uchun javobgarlik ko'zda tutilgan (ishlab chiqaruvchi vakolat bergan shaxs uchun) ishlab chiqaruvchi (shu jumladan, xorijiy ishlab chiqaruvchi) bilan tuzilgan shartnoma nusxasi;

IMO ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi muhofaza hujjati (guvohnoma yoki patent) yoki IMOdan foydalanish to'g'risida litsenziya (mavjud bo'lsa);

mahsulot texnik reglament talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan boshqa hujjatlar (mavjud bo'lsa);

chetdan keltirilayotgan mahsulot to'pi (partiya) yoki yagona (bitta) mahsulot turi uchun uning hajmini belgilovchi shartnoma (yetkazib berish shartnomasi) va yukka ilova qilinadigan hujjatlar nusxasi;

menejment tizimi muvofiqlik sertifikatini nusxasi (sertifikatlashtirish sxemasida ko'zda tutilganda);

mahsulotda o'tkazilgan tadqiqot haqida ma'lumot (sertifikatlashtirish sxemasida ko'zda tutilganda);

ishlab chiqaruvchi yoki SL tomonidan o'tkazilgan sinov va o'lchashlar bayonnomalari (sertifikatlashtirish sxemasida ko'zda tutilganda).

11. Arizaga ilova qilingan va chet tilida yozilgan hujjatlar O'zbekiston Respublikasining davlat tilidagi tarjimasi bilan taqdim etilishi shart.

Ariza beruvchi MSOga belgilangan hujjatlarni ilova qilgan holda tegishli elektron tizim orqali ariza beradi. Bunda arizaga ilova qilinadigan hujjatlarning haqqoniyligiga ariza beruvchi javobgar hisoblanadi.

5-bob. Intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni o'rganish va tekshirish

12. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish jarayonida MSO tomonidan tegishli mahsulotda qo'llanilgan nom, qadoq va boshqa rekvizitlarda IMOga bo'lgan huquqlarga rioya etilganligini aniqlash maqsadida o'rganish va tekshirishlar amalga oshiriladi.

Ushbu o'rganish va tekshirishlar sertifikatlashtirish sinovlarini o'tkazish uchun tanlab olingan mahsulot namunalari (yorliq va qadoqlarda) qo'llanilgan belgi, nom va boshqa rekvizitlarni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining "Sanoat mulki muhofazasi portali"dagi mavjud ma'lumotlar bilan solishtirish orqali o'tkaziladi.

13. Tegishli mahsulotda qo'llanilgan IMO ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi muhofaza hujjati (guvohnoma, patent yoki ularga ilova) nusxasi yoki IMODan foydalanish to'g'risidagi shartnoma nusxasi mavjud bo'lganda, bunday o'rganish va tekshirishlar amalga oshirilmaydi.

O'rganish va tekshirish natijasida tegishli mahsulotda IMOning qonunga xilof ravishda qo'llanilganligi (kontrafaktligi) aniqlanganda, MSO sertifikatlashtirish ishlarini to'xtatadi va ariza beruvchiga asoslangan rad javobini beradi.

Bunda mahsulotda IMOning qonunga xilof ravishda qo'llanilganligini (kontrafaktligini) aniqlagan MSO tegishli ma'lumotni Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) va Adliya vazirligiga bir kun muddatda kiritishi shart.

6-bob. Sertifikatlashtirishga taqdim etilgan ariza va hujjatlar to'plamini ko'rib chiqish va tahlil qilish

14. Ariza beruvchi tomonidan sertifikatlashtirish uchun taqdim etilgan ariza va unga ilova qilingan hujjatlar to'plami, shu jumladan, texnik hujjatlarni ko'rib chiqish va tahlil qilish, mahsulot identifikatsiyasini ta'minlash va ko'rsatilgan hujjatlarning mahsulot muvofiqligini tasdiqlash uchun yaroqliligini belgilash va ular ichidan mahsulotga muvofiqlik sertifikatini berish uchun asos bo'lishi mumkin bo'lganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

MSO ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni quyidagi nuqtai nazardan ko'rib chiqadi va tahlil qiladi:

a) arizaning to'g'ri to'ldirilganligi;

b) ariza bilan birga taqdim etilgan hujjatlar to'plamida materiallar to'liq va yetarliligi.

Ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni ko'rib chiqish va tahlil qilishning ijobiy natijalari bo'yicha MSO mazkur Nizomga [4-ilovada](#) keltirilgan shaklda ariza berilgan kundan boshlab ikki ish kuni mobaynida qaror qabul qiladi, sertifikatlashtirish ishlariga haq to'lash bo'yicha shartnoma bilan (ilgari tuzilgan shartnoma bo'lmasa) ariza beruvchiga qabul qilingan qaror haqida sertifikatlashtirishni o'tkazish shartlari, shu jumladan, namuna (nusxa)lar tanlash tartiblari va sinov va o'lchashlar dasturini ko'rsatgan holda yozma ravishda ma'lum qiladi (bevosita yoki elektron pochta orqali).

Ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni ko'rib chiqish va tahlil qilishning salbiy natijalari bo'yicha MSO ariza berilgan kundan boshlab bir ish kuni mobaynida ariza beruvchiga arizaning kamchiligi ko'rsatgan holda, sertifikatlashtirish ishlarini o'tkazishni rad etish to'g'risida elektron tizim orqali xabar beradi.

MSOning sertifikatlashtirish ishlarini o'tkazishni rad etish haqidagi qarori arizani qabul qilishni rad yetish uchun asos bo'lib xizmat qilgan kamchiliklarni bartaraf etilganda, ariza beruvchi tomonidan ariza va hujjatlar to'plamini ushbu organga qayta yuborishiga to'sqinlik qilmaydi.

7-bob. Mahsulotlarni identifikatsiya qilish, namuna (nusxa) olish, sinov va o'lchashlarini o'tkazish

15. Mahsulotlarning muvofiqligini sertifikatlashtirish orqali tasdiqlashda ularning sinov va o'lchashlarini o'tkazish maqsadida muvofiqlikni baholash obyekti bo'lgan mahsulotlarning namuna (nusxa)lari olinadi.

Mahsulotning namuna (nusxa)larini tanlash, sinov va o'lchashlarini o'tkazishda qoida hamda uslublarini o'z ichiga olgan O'zbekiston Respublikasining milliy standarti yoki xalqaro standartlar ro'yxatiga kiritilgan standartlar, ular bo'lmagan holda mintaqaviy yoki xorijiy mamlakatlarning standarti qo'llaniladi (keyingi o'rinlarda — qoida va uslublar ifodalangan standartlar ro'yxati).

Mahsulot konstruksiyasi, tarkibi va ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha tanlangan namuna (nusxa)lar iste'molchiga (sotib oluvchiga) sotish uchun mo'ljallangan mahsulotlar bilan bir xil bo'lishi kerak.

Mahsulotni O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelgunga qadar sertifikatlashtirishda yetkazib berilayotgan mahsulot to'pidan tanlab olingan namunalar ularni olish jarayonlari aks etgan fotosurat va

videotasvirlar bilan birga taqdim etilishi lozim.

Mahsulotning tanlangan namuna (nusxa)lari qolgan mahsulotdan ajratib olinadi, o'rov-idishga joylanadi yoki tanlash joyida muhrlanadi.

16. Mahsulot namuna (nusxa)larini tanlash quyidagicha amalga oshiriladi:

a) turkum ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun — ishlab chiqaruvchining tayyor mahsulot omborida (ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan shaxs), vaqtincha saqlash ombori, bojxona ombori, yuk tashish vositasi sig'imida yoki tayyor mahsulot ishlab chiqarish liniyasida;

b) mahsulot to'pi uchun — ishlab chiqaruvchi tayyor mahsulot omborida (ishlab chiqaruvchi tomonidan vakolat berilgan shaxs), vaqtincha saqlash ombori, bojxona ombori yoki saqlashga olgan javobgar omborida, yuk tashish vositasi sig'imida yoki tayyor mahsulot ishlab chiqarish liniyasida);

v) yagona buyum uchun — mahsulot birligi joylashgan joyda (yoki ariza beruvchi tomonidan taqdim etiladi).

17. Mahsulot namuna (nusxa)larini olish mahsulotni identifikatsiya qilish bilan bir vaqtda o'tkaziladi. Buning yordamida mahsulot tavsiflari ushbu mahsulot (mahsulot turi yoki guruhi) uchun texnik reglamentda hamda Nizomning **10-bandida** ko'rsatilgan boshqa hujjatlarda mahsulotni so'zsiz texnik reglamentning texnik tartibga solish obyekti sifatida nisbatlashga imkon beradigan mahsulot haqidagi ma'lumotda ko'rsatilgan alomatlar bilan bir xilligi aniqlanadi.

Mahsulotni sertifikatlashtirishda, mahsulotni identifikatsiya qilish va namuna (nusxa) tanlash MSO tomonidan ariza beruvchi huzurida Nizomga **5-ilovaga** muvofiq namunalarni identifikatsiya qilish va namuna (nusxa) olish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda amalga oshiriladi. Bunda mahsulotni identifikatsiya qilish va namuna (nusxa) tanlash ariza bo'yicha qabul qilingan qaror hamda sertifikatlashtirish ishlariga haq to'langandan so'ng ikki ish kunidan kechiktirilmagan muddatda MSO tomonidan joyiga chiqqan holda amalga oshiriladi.

Ariza beruvchi bilan kelishilgan holda mahsulotdan namuna (nusxa) tanlash MSO yoki boshqa MSO (shartnomaga asosan) va (yoki) agar texnik reglamentda boshqacha belgilanmagan bo'lsa, akkreditatsiya sohasiga tegishli mahsulot kiritilgan SL tomonidan o'tkazilishi mumkin.

Mahsulotdan namuna (nusxa)lar tanlash natijalari mahsulotdan namuna (nusxa)lar olish joyi va sanasi, mahsulot namuna (nusxa)larini saqlash sharoitlari hamda tanlangan mahsulotning bir xilligi ko'rsatilgan tegishli dalolatnoma(lar) bilan rasmiylashtiriladi. Mahsulotdan namuna (nusxa)lar tanlash dalolatnomasi(lari) qo'llangan sertifikatlashtirish sxemasiga qarab, agar texnik reglamentda boshqacha belgilanmagan bo'lsa, mahsulot sinov va o'lchashlarini o'tkazadigan SLga bir kun mobaynida jo'natiladi.

18. Mahsulotning identifikatsiya belgilari uning turi (xili)ga qarab (texnik reglamentda boshqacha belgilanmagan bo'lsa), quyidagilarni ichiga oladi:

a) mahsulot ishlab chiqaruvchi yuridik shaxs va uning filiallari (ishlab chiqarish maydonchalari) uchun — ishlab chiqaruvchining to'liq nomi, uning joylashgan joyi (yuridik shaxsning manzili) va mahsulot ishlab chiqarish joyi (manzillari, agar turlicha bo'lsa), respublika qonunchiligiga muvofiq yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxs uchun — familiyasi, ismi va otasining ismi (mavjud bo'lsa), yashash joyi va manzil(lar)i, agar turlicha bo'lsa), ishlab chiqarish faoliyati amalga oshiriladigan joyning manzil(lar)i, agar turlicha bo'lsa);

b) yuridik shaxs uchun — ariza beruvchining to'liq nomi, uning joylashgan joyi (yuridik shaxsning manzili) va faoliyat joyi manzili (manzillari, agar turlicha bo'lsa); yoki yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxs uchun — familiyasi, ismi va otasining ismi (mavjud bo'lsa), yashash va faoliyat joyi manzili (manzillari, agar turlicha bo'lsa);

v) mahsulotning nomi va MXIK (qonunchilikda belgilangan mahsulot turiga) kodi (mahsulot turi yoki guruhlari) va mahsulotning belgilanishi (texnik reglamentda nazarda tutilgan hollarda) va ishlab chiqaruvchi tomonidan tayinlangan boshqa shartli belgilar (mavjud bo'lsa);

g) mahsulot nomi va MXIK (qonunchilikda belgilangan mahsulot turiga) kodi (texnik reglamentda nazarda tutilgan hollarda);

d) mahsulot ishlab chiqarilishiga asos bo'lgan hujjatlarning ifodalanishi (O'zbekiston Respublikasining milliy standarti, xalqaro standart, mintaqaviy yoki xorijiy mamlakatlarning standarti yoki boshqa hujjat) (mavjud bo'lsa);

e) mahsulotning vazifasi, mahsulotdan foydalanish bo'yicha tavsiyalar, mahsulotning texnik reglamentda texnik jihatdan tartibga solish obyekti bo'lgan mahsulotlar jumlasiga so'zsiz kiritish uchun asos bo'ladigan boshqa asosiy xususiyatlari;

j) mahsulotning texnik reglamentlarda belgilangan identifikatsiya qilinishini ta'minlovchi boshqa ma'lumotlar;

z) shtrix kod yoki QR kodi (mavjud bo'lsa);

i) ishlab chiqarilgan sana;

k) saqlash muddati (texnik reglamentda nazarda tutilgan hollarda), xizmat muddati (yaroqlilik) yoki mahsulot resursi (texnik reglamentda nazarda tutilgan hollarda);

l) to'p hajmi (to'p uchun);

m) o'rov-idish, idish, iste'mol o'rov-idish birligidagi nominal miqdori (zarur bo'lsa), sof og'irligi va hajmi (zarur bo'lsa);

n) texnik hujjatlar va (yoki) yuk tashish hujjatlarida ko'rsatilgan boshqa ma'lumotlar (mavjud bo'lsa).

19. Mahsulotni identifikat qilish natijalari, namunalarni identifikatsiya qilish va namuna (nusxa) olish dalolatnomasida aks ettiriladi.

Namunalarni identifikatsiya qilish, namuna (nusxa) olish dalolatnomasi:

ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun ikki nusxada rasmiylashtiriladi va ularning bittasi bevosita ariza beruvchiga beriladi;

bojxonada saqlanayotgan mahsulotlar uchun uch nusxada rasmiylashtiriladi va ikkinchi nusxasini bevosita bojxona idorasiga taqdim etiladi.

Mahsulotni identifikatsiya qilish va namuna olish vaqtida mahsulotning tamg'alanishi (markirovkasi), saqlash sharoitlari tekshiriladi.

Ekspluatatsiya qilish joyida o'tkazilgan sinov natijalariga asosan muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirilishi lozim bo'lgan texnologik uskunar va ularning tarkibiy qismlariga akkreditatsiya sohasida ushbu uskuna yoki uning tarkibiy qismi mavjud bo'lgan MSO tomonidan xulosa (xat) taqdim qilinadi, mazkur xulosa asosida texnologik uskunar va ularning tarkibiy qismlari muomalaga chiqariladi.

Bunda ariza beruvchi texnologik uskunar va ularning tarkibiy qismlari to'liq yig'ib sozlangandan so'ng, ularni sertifikatlashtirish maqsadida qayta ariza berish majburiyatini oladi.

Mahsulotning sinov va o'lchash ishlari agar texnik reglamentda nazarda tutilgan bo'lsa, sinov va o'lchash jarayonlari va natijalari fotosurat va/yoki videotasvir bilan amalga oshiriladi.

Mahsulotning o'tkazilgan sinov va o'lchashlari natijalari sinov va o'lchashlar bayonnomasida rasmiylashtiriladi.

Olingan sinov va o'lchash natijalari namunalarni identifikatsiya qilish va namuna (nusxa) olish dalolatnomasida keltirilgan mahsulotlarning barchasiga taalluqlidir.

SL tomonidan sinov va o'lchashlari natijalaridan qat'i nazar, mahsulotning sinov va o'lchashlar bayonnomasini ariza beruvchiga bevosita yoki elektron axborot tizimi orqali taqdim qilinadi, shuningdek, mahsulotni sertifikatlashtirishda bayonnoma qo'shimcha ravishda MSOga ham yuboriladi.

Sinov va o'lchashlar davrida butunlay yoki qisman buzilgan, shuningdek, buzilmagan mahsulot bo'yicha hisobdan chiqarilganligi (qaytarib berilganligi) to'g'risidagi dalolatnoma ariza beruvchi (yoki uning vakili) ishtirokida ushbu Nizomga [6-ilovaga](#) muvofiq MSO tomonidan tuziladi.

Sertifikatlashtirish tartibotlarining umumiy muddatlari ushbu turdagi mahsulotning texnik reglamentlari bilan belgilanadigan uslublarga muvofiq sinovlardan o'tkazishning umumiy davom etish vaqtidan kelib chiqib belgilanadi.

20. Mahsulotning sinov va o'lchashlarining salbiy natijalarida mahsulotlarning muvofiqligini tasdiqlash ishlari to'xtatiladi yoki tugatiladi.

21. Agar kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish orqali sinov va o'lchashlarning salbiy natijalariga sabab bo'lgan nomuvofiqliklarni bartaraf etish imkoni mavjud bo'lsa, mahsulot muvofiqligini tasdiqlash ishlari to'xtatiladi, agar kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish orqali sinov va o'lchashlarning salbiy natijalariga sabab bo'lgan nomuvofiqliklarni bartaraf etish imkoni mavjud bo'lmasa, mahsulot muvofiqligini tasdiqlash ishlari tugatiladi va ariza bekor qilinadi.

22. MSO mahsulotni sertifikatlashtirish ishlarini to'xtatishi yoki tugatishi to'g'risidagi asoslangan qarorni ariza beruvchiga bevosita yoki elektron axborot tizimi orqali yetkazadi.

8-bob. Mahsulot turi tadqiqoti

23. Mahsulot turini o'rganish deganda, berilgan turdagi mahsulotning parametrlari va xususiyatlarini o'xshash mahsulot ishlab chiqarishda texnik reglament va texnik hujjatlar talablariga muvofiqligini tahlil qilish tushuniladi.

24. Mahsulot turi (agar texnik reglamentda boshqa tartib belgilanmagan bo'lsa) quyidagicha o'rganiladi:

a) xavfli ishlab chiqarish obyektlarda ishlatiladigan mahsulot uchun;

b) mahsulotni foydalanish joyiga o'rnatishdan (montaj qilishdan) oldin to'liq hajmda sinov va o'lchashlarni o'tkazish mumkin bo'lmasa;

v) agar ariza beruvchi mahsulotning muvofiqligini tasdiqlashda ixtiyoriy ravishda qo'llanilishi natijasida texnik reglament talablariga rioya qilinishi ta'minlanadigan standartlarni qo'llamas (shu jumladan, innovatsion mahsulotlar uchun).

25. Mahsulot turi quyidagi usullardan birida o'rganiladi:

a) mahsulot namunasini rejalashtirilgan ishlab chiqarish uchun barcha kelajakdagi mahsulotlarning namunaviy shakli sifatida sinash;

b) texnik hujjatlarni tahlil qilish, mahsulot namunasini yoki mahsulotning muhim tarkibiy qismlarini sinash.

26. Mahsulot turi MSO tomonidan (zarur hollarda SL ishtirokida) o'rganiladi.

27. Agar texnik reglamentda boshqa tartib belgilanmagan bo'lsa mahsulot turini o'rganish natijalari MSO tomonidan xulosa tarzida rasmiylashtiriladi.

Mahsulot turini o'rganish bo'yicha xulosa ikki nusxada rasmiylashtiriladi va uning bir nusxasi ariza beruvchiga yuboriladi.

Ko'rsatilgan xulosaning shakli MSOning sifat bo'yicha qo'llanma va sifat menejmenti tizimi tartib-tamoyil hujjatlari bilan belgilanadi.

28. Mahsulot muvofiqligini muvofiqlik deklaratsiyasi shaklida tasdiqlashda, agar mahsulot turini o'rganishning ijobiy natijalari mavjud bo'lsa, MSO tomonidan mahsulot turi uchun belgilangan yagona shakldagi sertifikat beriladi.

9-bob. Mahsulot loyihasini o'rganish

29. Mahsulot loyihasi tadqiqoti deganda mahsulot ishlab chiqarilishiga asos bo'lgan texnik hujjatlar tahlili, shuningdek, o'tkazilgan hisob-kitoblar, tadqiqot va sinovlar natijalari tahlili hamda mahsulot chizmalari, modellari, tajriba nusxalari o'lchashlari tushuniladi.

30. Mahsulot loyihasi tadqiqoti MSO tomonidan ariza beruvchi taqdim etgan, mahsulotni loyihalashtirish, ishlab chiqarish foydalanish bosqichlarini o'z ichiga olgan va xavfsizlik talablarini belgilaydigan texnik hujjatlarni ko'rib chiqish orqali amalga oshiriladi.

Texnik hujjatlar ariza beruvchi tomonidan mahsulot loyihasini mahsulotga texnik reglamentda belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirishga yetarli hajmda taqdim etiladi.

31. Mahsulot loyihasini o'rganish natijalari MSO tomonidan xulosa shaklida rasmiylashtiriladi.

Ko'rsatilgan xulosaning shakli MSOning sifat bo'yicha qo'llanma va sifat menejmenti tizimi tartib-tamoyil hujjatlari bilan belgilanadi.

Mahsulot loyihasini o'rganish bo'yicha xulosa ikki nusxada rasmiylashtiriladi. Xulosaning bir nusxasi ariza beruvchiga yuboriladi.

10-bob. Ishlab chiqarish nazorati

32. Ishlab chiqaruvchi o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarning texnik reglamentda belgilangan talablarga muvofiqligini doimiy ravishda ta'minlab borishga mas'uldir hamda mazkur bobda belgilangan talablar bo'yicha ishlab chiqarish nazoratini amalga oshiradi.

33. Ishlab chiqaruvchi tomonidan ishlab chiqarayotgan mahsulotning texnik reglament va texnik hujjatlarda belgilangan talablarga barqaror muvofiqligini ta'minlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

xomashyo, material va butlovchi buyumlarning kirish nazorati;

mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi jarayonli nazorati;

tayyor mahsulotlarni qabul (qabul qilish-topshirish) nazorati;

texnik reglamentda belgilangan talablarga javob bermaydigan mahsulot nazorati;

asbob-uskunalar nazorati;

o'lchash vositalari va sinov uskunalari nazorati;

texnik hujjatlarni ishlab chiqish va yuritish nazorati;

ish o'rinlarida atrof-muhit ko'rsatkichlari nazorati;

xodimlar va ishlab chiqarish xavfsizlik nazorati (mavjud bo'lsa);

tayyor mahsulotlarning davriy nazorati.

Shuningdek, ishlab chiqaruvchida joriy etilgan va sertifikatlashtirilgan menejment tizimi faoliyati mavjud bo'lganda, uning barqarorligini ta'minlaydi.

11-bob. Ishlab chiqarishni baholash

34. Ishlab chiqarishni baholash MSO tomonidan turkum ishlab chiqarilgan mahsulotlar muvofiqligini tasdiqlashda, ishlab chiqaruvchida, chiqarilayotgan mahsulotning texnik reglament talablariga doimiy (barqaror) muvofiqligini ta'minlash uchun zarur sharoitlar mavjud ekanligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Sertifikatlashtirish sxemasiga qarab, ishlab chiqarishni baholash mahsulot muvofiqligini sertifikatlashtirish sxemasida tasdiqlashda yoki sertifikatlangan mahsulotni davriy baholashdan o'tkazishda amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarishni baholash mahsulotni identifikatsiya qilish, namuna (nusxa) tanlash hamda sinov va o'lchashlari bilan bir vaqtda o'tkazishga yo'l qo'yiladi.

35. Ishlab chiqarish MSO buyrug'i bilan tasdiqlangan komissiya tomonidan baholanadi.

Buyruqda ishlab chiqarishni baholash komissiyasi tarkibi (komissiya rahbari va mutaxassislar), ishlab chiqarishni baholashning aniq muddatlari ko'rsatiladi. Bunda ishlab chiqarishni baholash muddati o'n ish kunidan oshmasligi kerak.

36. Ishlab chiqarishni baholash komissiyasi tarkibi ishlab chiqarish hajmi, texnologik jarayonlar, mahsulotlarning murakkabligi va boshqalardan kelib chiqib besh kishidan oshmagan mutaxassislardan iborat

bo'ladi.

Ishlab chiqarish va mahsulotning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq malakali baholashni ta'minlash uchun mahsulot turi, unga texnik reglamentda belgilangan talablar va ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha asosiy bilimlarga ega mutaxassislar ishlab chiqarishni baholash komissiyasi tarkibiga kiritilishi kerak.

37. Ishlab chiqarish MSO rahbari (rahbar o'rinbosari) ishlab chiqqan va tasdiqlagan ishlab chiqarishni baholash dasturiga muvofiq mahsulot ishlab chiqarish (joyida) manzilida baholanadi.

Ishlab chiqarishni baholash quyidagilarni baholash orqali o'tkaziladi:

mahsulotning texnik (loyihaviy va (yoki) konstruktorlik va (yoki) texnologik va (yoki) foydalanish) hujjatlari;

mahsulotni ishlab chiqaruvchi va nazorat qiluvchi mutaxassislarning mavjudligi;

ishlab chiqarish infratuzilmasi (ishlab chiqaruvchi hududida joylashgan va ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan obyektlar majmui (ishlab chiqarish obyektlari, yuk tashish mashinalari va boshqalar));

uskunalar (texnologik jihozlash vositalari), shuningdek, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash;

nazorat, o'lchash va sinov uskunalarini boshqarish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash;

mahsulotning texnik reglamentda belgilangan talablarga muvofiqligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan o'lchash vositalari;

sertifikatlashtirilgan mahsulotlar (xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar)ning xavfsizlik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi, sotib olingan mahsulotlarning kirish nazorati;

texnologik jarayonlar, shu jumladan, maxsus (agar texnik reglamentda tegishli talablar mavjud bo'lsa);

tayyor mahsulotning texnik reglamentda belgilangan xususiyatlarini nazorat qilish bilan bog'liq qabul qilish nazorati va davriy sinovlar;

tayyor mahsulotlarni tamg'alash (markirovkalash), saqlash, o'rab joylash va konservatsiyalash shartlari;

iste'molchi bilan o'zaro hamkorlik (jumladan, ushbu ishlab chiqaruvchining mahsulotlari haqida shikoyat va noroziliklarini ko'rib chiqish);

texnik reglamentda belgilangan talablarga nomuvofiq mahsulot nazorati;

mahsulotni identifikatsiya qilish va kuzatiluvchanligi;

tuzatuvchi va profilaktik chora-tadbirlar.

38. Ishlab chiqarishni baholash natijalari yakuniga ko'ra komissiya tomonidan uch ish kunida MSOning sifat bo'yicha qo'llanma va sifat menejmenti tizimi tartib-tamoyil hujjatida belgilangan shaklda tahlil natijalari, tasdiqlovchi hujjat va materiallarga havolalar hamda zarurat bo'lganda aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf qilish muddatlari ko'rsatilgan dalolatnoma ikki nusxada tuziladi, uning bir nusxasi ishlab chiqaruvchiga topshiriladi, ikkinchi nusxasi MSOga taqdim qilinadi.

Bunda ishlab chiqarishni baholash natijasida aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf qilish bir oydan oshmasligi lozim.

Ishlab chiqarishni baholash natijalari to'g'risidagi dalolatnomada chiqarilayotgan mahsulotning texnik reglament talablariga doimiy (barqaror) muvofiqligini ta'minlash uchun ishlab chiqaruvchida zarur sharoitlar mavjud ekanligini haqidagi xulosalar bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarishni baholash dalolatnomasi komissiyaning barcha a'zolari va ishlab chiqaruvchi tomonidan imzolanadi. Bunda ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarishni baholash natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda, o'z fikrini dalolatnomada bayon qilishi mumkin.

MSO mahsulotni sertifikatlashtirish ishlarini ishlab chiqarishni baholash natijalari asosida to'xtatishi yoki tugatishi mumkin.

Ariza beruvchi aniqlangan nomuvofiqliklar va ularning sabablarini belgilangan muddatlarda bartaraf etishi mumkin bo'lsa, sertifikatlashtirish ishlarini to'xtatib turish to'g'risidagi qaror qabul qilinadi.

Agar aniqlangan nomuvofiqliklarni tuzatish tadbirlari bilan bartaraf etish imkoniyati mavjud bo'lmasa yoki tuzatish tadbirlarini belgilangan muddatda amalga oshirilmasa, sertifikatlashtirish ishlarini tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilinadi.

Sertifikatlashtirish ishlarini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, MSO bu haqda ariza beruvchiga ma'lum qiladi.

Sertifikatlashtirish ishlarini qayta tiklash maqsadida:

Ariza beruvchi aniqlangan nomuvofiqliklar va ularning sabablarini bartaraf etishga qaratilgan tuzatish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi, uning bajarilishini ta'minlaydi va bu haqda MSOga ma'lum qiladi;

MSO ariza beruvchi tomonidan amalga oshiriladigan tuzatish tadbirlarini tahlil qiladi va natijalari ijobiy bo'lsa, sertifikatlashtirish ishlarini qayta boshlashga qaror qabul qiladi.

Agar ariza beruvchi belgilangan kamchiliklarni va ularning sabablarini belgilangan muddatda bartaraf eta olmasa, mahsulotni sertifikatlashtirish ishlari tugatiladi.

Agar mahsulot ishlab chiqaruvchining bir necha filiallarida ishlab chiqarilsa, ishlab chiqarishni baholash eng murakkab va ko'p hajmda mahsulot chiqariladigan filialida, ishlab chiqaruvchi barcha filiallarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xavfsizligi va ishlab chiqarishning barqarorligi uchun mas'uliyati ta'minlash sharti bilan o'tkaziladi.

Ishlab chiqarishni baholashning ijobiy natijalarida MSO sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash rejasi doirasida ishlab chiqaruvchining boshqa ishlab chiqarish filiallarida ishlab chiqarishni baholashning keyingi jadvali (baholash sanalari ko'rsatilgan holda)ni tuzadi va ishlab chiqaruvchi bilan kelishadi.

39. Agar MSOga oldin sertifikatlashtirilgan mahsulotdan konstruksiyasi (tarkibi, retsepturasi) yoki ishlab chiqarish texnologiyasida biroz farq bo'lgan yangi mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha ariza tushsa, MSOning qaroriga muvofiq quyidagi barcha shartlar bajarilganda ishlab chiqarishni baholashning oldingi tahlili natijalari ushbu mahsulotlarga qisman yoki to'liq joriy etilishi mumkin:

mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar ishlab chiqarishni baholashdan o'tkazgan va ishlab chiqarishni baholash natijalari bo'yicha dalolatnoma tuzgan komissiya tarkibini tasdiqlagan MSO tomonidan amalga oshirilsa;

ishlab chiqaruvchi tomonidan mahsulot konstruksiyasi (tarkibi, retsepturasi) yoki ishlab chiqarish texnologiyasiga kiritilgan o'zgarishlar mahsulotning texnik reglament talablariga muvofiqligiga ta'sir qilmasa;

ariza beruvchi yangi mahsulotlarni sertifikatlashtirish uchun arizani ishlab chiqarishni baholashdan o'tkazgan, ishlab chiqarishni baholash natijalari haqidagi dalolatnomani yoki ilgari sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholashdan o'tkazish va ro'yxatga olish bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtirilgan sanadan boshlab bir yildan oshmagan muddatda taqdim etgan bo'lsa.

12-bob. Mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish

40. MSO ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar to'plami hamda mahsulotning texnik reglament talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat (sinov va o'lchashlar bayonnomalari (sertifikatlashtirish sxemasida ko'zda tutilgan hollarda)), ishlab chiqarishni baholash dalolatnomasi (sertifikatlashtirish sxemasida ko'zda tutilgan hollarda), mahsulot loyihasi tadqiqoti xulosasi (sertifikatlashtirish sxemasida ko'zda tutilgan hollarda), mahsulot turi tadqiqoti xulosasi (sertifikatlashtirish sxemasida ko'zda tutilgan hollarda))ni tahlildan o'tkazadi.

O'tkazilgan tahlilning ijobiy natijalari asosida MSO mahsulotga muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risida mazkur Nizomga [7-ilovaga](#) muvofiq qarorni ikki ish kuni mobaynida qabul qiladi.

41. Mahsulotni sertifikatlashtirishda baholashning salbiy natijalari mavjud bo'lsa, MSO asosli sabablarni ko'rsatgan holda mahsulotga muvofiqlik sertifikatini berishni rad etish bo'yicha qaror qiladi hamda bu haqda ariza beruvchiga, Agentlikka, Soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi hamda tegishli vazirlik va idoralarga qaror qabul qilingan kunning o'zida bevosita yoki elektron tizim orqali ma'lum qiladi.

42. Mahsulotlarning muvofiqlik sertifikati Nizomga [8-ilovaga](#) muvofiq yagona elektron shaklda rasmiylashtiriladi.

Muvofiqlik sertifikati MSO rahbari tomonidan elektron imzo bilan tasdiqlanadi.

Muvofiqlik sertifikati:

Mahsulot to'piga — mahsulotning yaroqlilik yoki kafolat muddatiga;

seriyali ishlab chiqariladigan mahsulotga — uch yil muddatga rasmiylashtiriladi.

Bunda seriyali ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikatining amal qilish davrida ishlab chiqarilgan mahsulotlar sertifikatlangan hisoblanadi va qayta sertifikatlashtirilmaydi.

Mahsulot sertifikatlashtirilganligini tasdiqlovchi asos sifatida muvofiqlik belgisi va mahsulotga qo'shib yuboriladigan hamda ekspluatatsiya hujjatlardagi ishlab chiqarish sanasi xizmat qiladi.

Muvofiqlik sertifikatini qo'llash va muvofiqlik belgisidan foydalanish huquqini ariza beruvchi (muvofiqlik sertifikatining egasi) boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga berishi man etiladi.

43. Agar menejment tizimi muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati mahsulot muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddatidan avval tugasa, sertifikatlashtirilgan mahsulot ishlab chiqaruvchisi mahsulot muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati davomida amal qiladigan menejment tizimi muvofiqlik sertifikatining mavjud bo'lishini ta'minlaydi.

44. Texnik reglamentning texnik tartibga solish obyekti bo'lgan seriyali ishlab chiqariladigan muvofiqlik sertifikati tanlab olingan hamda sinov va o'lchashlardan o'tgan namuna (nusxa)lar ishlab chiqarilgan sanasidan boshlab ushbu mahsulotga joriy qilinadi. Bu holda tanlab olingan hamda sinov va o'lchashlardan o'tgan namuna (nusxa)larning ishlab chiqarilgan sanasi haqidagi ma'lumot va axborotlar muvofiqlik sertifikatining "alohida yozuvlar" bandida ko'rsatilishi mumkin.

Muvofiqlik sertifikati uni berish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab ikki ish kuni mobaynida rasmiylashtiriladi va davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkaziladi.

Rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikati hamda MSO va ariza beruvchi o'rtasida tuzilgan kelishuv asosida muvofiqlik sertifikatining egasi mahsulotni belgilangan tartibda muvofiqlik belgisi bilan tamg'alashni (markirovkalashni) ta'minlaydi.

Mahsulotga muvofiqlik sertifikatini bir marta rasmiylashtiriladi, ushbu mahsulot uchun qayta muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirilmaydi.

13-bob. Rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yagona davlat reyestrga kiritish

45. Muvofiqlik sertifikatining amal qilish sanasi uning Muvofiqlik sertifikatlari davlat reyestrida ro'yxatga olingan kundan boshlab hisoblanadi.

46. Muvofiqlik sertifikatlari davlat reyestri belgilangan tartibda yuritiladi.

47. Sertifikatlashtirish jarayonida rasmiylashtirilgan quyidagi hujjatlar rasmiylashtirilgan kunning o'zida MSO tomonidan tegishli elektron dasturga kiritiladi:

ariza bo'yicha qaror;

IMO to'g'risidagi ma'lumotlar;

namuna tanlash va identifikatsiya qilish dalolatnomasi;

sinov bayonnomalari;

ishlab chiqarishni baholash dalolatnomasi;

muvofiq sertifikatini berish yoki uni berishni rad etish qarori;

namunaning hisobdan chiqarilganligi (qaytarib berilganligi) to'g'risidagi dalolatnoma;

muvofiqlik sertifikatini.

14-bob. Muvofiqlik sertifikatiga o'zgartirish kiritish

48. Muvofiqlik sertifikatini va (yoki) uning ilovalariga (qo'llanilgan sertifikatlashtirish sxemasiga bog'liq holda) ushbu Nizomning 7-bandi "a" — "i" kichik bandlarida nazarda tutilgan tartib-taomillarni bajarmasdan, quyidagi hollarda o'zgartirish kiritishga ruxsat etiladi:

mahsulot muvofiqlik sertifikatini va uning ilovalarida xatolikka, imloviy xatolarga yo'l qo'yilganda;

ishlab chiqaruvchining tashkiliy-huquqiy shakli o'zgarganda;

TIF TN O'zbekiston Respublikasi kodi o'zgarganda (ushbu kod MSOning akkreditatsiya sohasida mavjud bo'lganda).

49. Ushbu Nizomning 48-bandida nazarda tutilgan hollarda muvofiqlik sertifikatining egasi MSOga muvofiqlik sertifikatiga o'zgartirish kiritish to'g'risida muvofiqlik sertifikatini va (yoki) uning ilovalariga o'zgartirish kiritish uchun asos bo'lgan hujjatlarni ilova qilib yozma ravishda murojaat qiladi.

Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirgan MSO murojaatni va ushbu bandning birinchi xatboshisida nazarda tutilgan hujjatlarni ko'rib chiqadi, muvofiqlik sertifikatiga o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi hamda bevosita muvofiqlik sertifikatining egasiga yuboradi.

50. Ushbu Nizomning 48-bandida nazarda tutilgan hollarda mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirgan MSO ariza olingan kundan boshlab o'n ish kuni mobaynida muvofiqlik sertifikatiga va davlat reyestriga tegishli axborotlarni kiritadi.

Elektron dasturda mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirgan MSO o'zgartirish kiritilgan muvofiqlik sertifikatiga "O'zgartirilgan" belgisini qo'yadi.

51. Ushbu Nizomning 48-bandida nazarda tutilmagan hollarda mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirgan MSO qo'llanilgan sertifikatlashtirish sxemasiga qarab, ushbu Nizomning 7-bandida nazarda tutilgan tartibotni amalga oshirish zarurligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

Agar muvofiqlik sertifikatining egasi ushbu Nizomning 7-bandida nazarda tutilgan tartibotni amalga oshirish shartlariga rozi bo'lsa, MSO qo'llanilgan sertifikatlashtirish sxemasiga qarab mazkur Nizomning 39-bandini hisobga olgan holda ushbu tartibotlarni bajaradi.

15-bob. Muvofiqlik sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish

52. Muvofiqlik sertifikatining amal qilishi quyidagi hollarda MSO tomonidan to'xtatiladi:

a) inson hayoti va (yoki) salomatligi, mol-mulki, atrof-muhit, hayvon va (yoki) o'simlik dunyosi xavfsizligiga mahsulot sabab tahdid yuzaga kelganda;

b) mahsulot texnik reglament talablariga nomuvofiq bo'lganda;

v) sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholashning salbiy natijalari mavjudligida;

g) muvofiqlik sertifikatining egasi sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholashni o'tkazishdan bosh tortganda;

d) mahsulotning sertifikatlashtirish vaqtida tasdiqlangan xavfsizlik ko'rsatkichlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan konstruksiyasi (tarkibi) yoki uni ishlab chiqarish (tayyorlash) texnologiyasiga o'zgartirishlar kiritilganda, agar muvofiqlik sertifikatining egasi bunday mahsulotlarni muomalaga chiqarishdan oldin mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirgan MSOga yozma ravishda bunday o'zgarishlarni tasdiqlovchi hujjatlar (konstruktorlik hujjatlari, chizmalar, spetsifikatsiyalar)ni ilova qilgan holda xabar bermaganda;

e) muvofiqlik sertifikatini egasining yozma arizasi mavjud bo'lganda;

j) muvofiqlik sertifikatining egasida menejment tizimining amaldagi muvofiqlik sertifikati mavjud bo'lmaganda (sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan hollarda);

z) Agentlikning Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirgan MSOga ularning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida taqdimnoma kiritilganda.

Quyidagi hollarda tugatiladi:

a) inson hayoti va (yoki) salomatligi, mol-mulki, atrof-muhit, hayvon va (yoki) o'simlik dunyosi xavfsizligiga mahsulot sabab tahdid tug'dirishi tasdiqlanganda;

b) mahsulotning texnik reglament talablariga nomuvofiqligi qayta baholashda tasdiqlanganda;

v) sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholashning salbiy natijalari qayta mavjudligi tasdiqlanganda;

g) mahsulotning sertifikatlashtirish vaqtida tasdiqlangan xavfsizlik ko'rsatkichlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan konstruksiyasi (tarkibi) yoki uni ishlab chiqarish (tayyorlash) texnologiyasiga o'zgartirishlar kiritilganda, agar muvofiqlik sertifikatining egasi bunday mahsulotlarni muomalaga chiqarishdan oldin mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirgan MSOga yozma ravishda bunday o'zgarishlarni tasdiqlovchi hujjatlar (konstruktorlik hujjatlari, chizmalar, spetsifikatsiyalar)ni ilova qilgan holda xabar bermaganda;

d) muvofiqlik sertifikati egasining yozma arizasi mavjud bo'lganda;

e) muvofiqlik sertifikatining egasida mavjud menejment tizimining amaldagi muvofiqlik sertifikati yangilanmaganda (sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan hollarda);

j) muvofiqlik sertifikatining egasi va (yoki) ishlab chiqaruvchi tashkilot tugatilishi yoki sertifikat egasining tashabbusi bilan mahsulot seriyali ishlab chiqarishdan to'xtatilganda;

z) mahsulotga taalluqli bo'lgan texnik reglament o'zgarganda, amal qilishi tugatilganda yoki bekor qilinganda;

i) Agentlikning Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirgan MSOga ularning amal qilishini tugatish to'g'risida taqdimnoma kiritilganda.

53. Agentlik qonunchilik normalari buzilganligi uchun mahsulotlarga rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilarining amal qilishini to'xtatish yoki tugatish vakolatiga ega.

54. Mahsulotga muvofiqlik sertifikati uni rasmiylashtirgan MSO bilan kelishilgan kamchilikni tuzatish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish davrida mahsulot muvofiqlik sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qaror muvofiqlik sertifikatining egasi tuzatish ishlarini o'tkazib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishi va mahsulotning texnik reglament talablariga muvofiqligini tasdiqlash mumkin bo'lsa, qabul qilinadi. Agar buning imkoni bo'lmasa muvofiqlik sertifikatining amal qilishi tugatiladi.

55. Muvofiqlik sertifikatining amal qilish to'xtatilgan taqdirda, mahsulotga muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirgan MSO:

a) muvofiqlik sertifikatini amal qilishini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qiladi va muvofiqlik belgisini qo'llashni vaqtincha taqiqlaydi;

b) muvofiqlik sertifikati amal qilishini to'xtatish to'g'risida davlat reyestriga ma'lumot kiritadi;

v) muvofiqlik sertifikatining egasiga kamchiliklarni tuzatish choralari ko'rish muddatini belgilaydi;

g) muvofiqlik sertifikatining egasi tuzatish chora-tadbirlarining bajarilishini nazorat qiladi.

56. Muvofiqlik sertifikatining amal qilishi to'xtatilganda muvofiqlik sertifikatining egasi:

a) texnik reglament talablariga javob bermaydigan mahsulot miqdorini identifikatsiya qiladi va aniqlaydi;

b) aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tuzatish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

v) respublika qonunchiligida belgilangan tartibda iste'molchilarni mahsulotlardan foydalanish (qo'llash) xavfi haqida xabardor qiladi;

g) MSOga tuzatish tadbirlari bajarilganligi to'g'risida yozma ravishda ma'lum qiladi.

57. Muvofiqlik sertifikatining egasi tuzatish tadbirlarini yakunlagandan so'ng mahsulotga muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirgan MSO:

a) muvofiqlik sertifikatining amal qilishini qayta tiklash to'g'risida qaror qabul qiladi va muvofiqlik belgisidan foydalanishga ruxsat beradi;

b) muvofiqlik sertifikatini qayta tiklash haqida davlat reyestriga ma'lumot kiritadi.

58. Agar muvofiqlik sertifikatining egasi aniqlangan kamchiliklarni va ularning sabablarini bartaraf eta olmasa hamda mahsulotdan foydalanish (qo'llash) xavfi mavjud bo'lsa, mahsulotga muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirgan MSO tomonidan muvofiqlik sertifikatini tugatish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

59. Agar ishlab chiqarilgan mahsulot muvofiqlik sertifikatining egasi uning amal qilishini to'xtatib turish (qayta tiklash) yoki tugatish tashabbusini bildirsa, sertifikatni rasmiylashtirgan MSOga sabablarini ko'rsatgan holda ariza beradi.

Bunda ariza bilan birgalikda muvofiqlik sertifikatini to'xtatib turish (qayta tiklash) yoki tugatish uchun asos bo'lgan hujjatlar taqdim etiladi.

60. MSO rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikatini to'xtatib turish (qayta tiklash) yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi.

61. Agar mahsulot muvofiqlik sertifikatining egasi amal qilishi to'xtatilgan muvofiqlik sertifikatini qayta tiklashni talab qilsa, MSO sertifikatlashtirilgan mahsulotni davriy baholashdan o'tkazgandan so'ng muvofiqlik sertifikatini qayta tiklash to'g'risida qaror qabul qiladi.

62. MSO muvofiqlik sertifikatini to'xtatib turish (qayta tiklash) yoki tugatish to'g'risida davlat reyestriga tegishli yozuv kirish uchun Agentlikka ma'lumot kiritadi.

63. Muvofiqlik sertifikatining amal qilishi davlat reyestriga tegishli axborot kiritilgan kundan e'tiboran to'xtatiladi (qayta tiklanadi) yoki tugatiladi.

16-bob. Mahsulotlar konstruksiyasi (tarkibi)ga o'zgartirishlar kiritish

64. Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirilgan mahsulotning konstruksiyasi (tarkibi)ga yoki uni ishlab chiqarish texnologiyasiga texnik reglament talablariga muvofiqligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan o'zgartirishlar kiritilganda, muvofiqlik sertifikatining egasi ushbu mahsulot muomalaga chiqarilishidan o'ttiz kun oldin muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirgan MSOga kiritilgan o'zgartirishlarni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda yozma ravishda ma'lum qiladi.

MSO muvofiqlik sertifikatining egasi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni tahlil qilish asosida xabarnoma olingan kundan boshlab o'n ish kuni mobaynida mahsulot namuna (nusxa)lari sinov va o'lchashlarini o'tkazish va (yoki) ishlab chiqarishni baholash zarurligi to'g'risida (bunday mahsulotlar uchun ishlab chiqarishni baholash sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan bo'lsa) yoki bunday ehtiyoj yo'qligi to'g'risida qaror qabul qiladi. MSOning qarori muvofiqlik sertifikatining egasiga bevosita yoki elektron pochta orqali yuboriladi.

65. Agar MSO mahsulot namuna (nusxa)lari va (yoki) ishlab chiqarishni baholash uchun sinov va o'lchashlarni o'tkazishga hojat yo'qligi yuzasidan qaror qabul qilsa, muvofiqlik sertifikatining egasiga bunday qarorni olgandan keyingina konstruksiyasi (tarkibi) yoki ishlab chiqarish texnologiyasiga o'zgartirishlar kiritilgan mahsulotlarni muomalaga chiqarilishiga ruxsat etiladi.

66. Agar MSO mahsulot namuna (nusxa)larini sinov va o'lchashlari va (yoki) ishlab chiqarishni baholash (ishlab chiqarishni baholash bunday mahsulotlar uchun sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan bo'lsa) zarurligi to'g'risida qaror qabul qilinsa, bu ishlarni amalga oshirish uchun muvofiqlik sertifikatining egasi va MSO o'rtasida shartnoma tuziladi (ilgari shartnoma tuzilmagan bo'lsa).

Amalga oshirilgan ishlar natijalari bo'yicha MSO mahsulot texnik reglament talablariga muvofiqligi (nomuvofiqligi) to'g'risida qaror qabul qiladi. Bu qaror muvofiqlik sertifikatining egasiga bevosita yoki elektron pochta orqali yuboriladi.

Mahsulotning texnik reglamentda belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risidagi qarorda MSO ushbu mahsulotni amaldagi muvofiqlik sertifikatini asosida muomalaga chiqarish mumkinligi haqida xabardor qiladi.

Mahsulotning texnik reglament talablariga nomuvofiqligi to'g'risidagi qarorda MSO mahsulotni amaldagi muvofiqlik sertifikatini asosida muomalaga chiqarish mumkin emasligi to'g'risida xabardor qiladi va muvofiqlik sertifikatining egasi MSO bilan kelishilgan muddatlarda tuzatish choralarini ko'rgunga qadar ushbu sertifikatning amal qilishini to'xtatib turadi.

67. Agar muvofiqlik sertifikatining egasi tuzatish choralarini belgilangan muddatlarda amalga oshirmasa, MSO muvofiqlik sertifikatini tugatishga qaror qiladi. Qaror muvofiqlik sertifikatining egasiga bevosita yoki elektron pochta orqali yuboriladi.

68. MSO tomonidan ushbu Nizomning [65 — 67-bandlarida](#) nazarda tutilgan faoliyat natijalari asosida berilgan hujjatlar daliliy ashyolar to'plamiga kiritiladi va muvofiqlik sertifikatining egasi tomonidan davlat nazorat organlariga (talabiga binoan) hamda qonunchilikka muvofiq boshqa manfaatdor shaxslarga taqdim etiladi.

17-bob. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash

69. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash — uning muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati davomida texnik reglamentda belgilangan va sertifikatlashtirishda tasdiqlangan talablarga muvofiq bo'lib qolishini belgilash maqsadida o'tkaziladigan tizimli baholashdan iborat.

70. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar, agar bu sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan bo'lsa, muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirgan MSO tomonidan sertifikatning to'liq amal qilish muddatida quyidagi usullarning bir yoki bir nechtasida davriy baholanadi:

a) sertifikatlashtirilgan mahsulot namuna (nusxa)larini identifikatsiya qilish, sinov va o'lchashlarini o'tkazish;

b) ishlab chiqarishni baholash.

Birinchi davriy baholash mahsulotlar sertifikatlashtirilgan sanadan boshlab o'n ikki oydan kechikmay o'tkaziladi. Keyingi davriy baholash har yili MSO rahbari tomonidan tasdiqlanadigan davriy baholash reja-jadvaliga muvofiq davriy, biroq avvalgi davriy baholash o'tkazilgan vaqtdan boshlab o'n ikki oydan kechikmay o'tkaziladi.

71. Menejment tizimi mavjud bo'lishi nazarda tutilgan sertifikatlashtirish sxemalari uchun sertifikatlashtirilgan mahsulot MSO tomonidan mahsulot namuna (nusxa)larini sinov va o'lchashlardan o'tkazish orqali davriy baholanadi.

72. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar MSO tomonidan SLni jalb qilgan holda (zarur hollarda) davriy baholanadi.

73. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar MSO tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash dasturiga muvofiq davriy baholanadi.

74. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash, agar texnik reglamentda boshqacha belgilangan bo'lmasa, quyidagi barcha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

a) sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash bo'yicha ishlarni bajarish uchun shartnoma tuzish;

b) sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash uchun ekspertlar guruhi (komissiya)ni shakllantirish;

v) sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash;

g) sertifikatlashtirilgan mahsulotlar haqidagi ma'lumotlarni doimiy tahlil qilish;

d) sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni texnik reglamentda belgilangan talablar bo'yicha sinov dasturini ishlab chiqish;

e) mahsulotni identifikatsiya qilish;

j) mahsulot namuna (nusxa)larini olish va ularda sinov o'tkazish;

z) ishlab chiqarishni baholash (sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan hollarda);

i) sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash natijalari asosida dalolatnomani rasmiylashtirish;

k) sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash natijalari asosida qaror qabul qilish.

75. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash rejali yoki rejadan tashqari bo'lishi mumkin.

76. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar sertifikatlashtirish shakllariga muvofiq mahsulot namuna (nusxa)larini identifikatsiya qilish, ularni sinov va o'lchashlardan o'tkazish, ishlab chiqarishni baholash yo'li bilan rejali davriy baholanadi.

77. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash davomida mahsulotlar ushbu Nizomning [4-bobiga](#) muvofiq identifikatsiya qilinadi va undan namuna (nusxa) olinadi.

78. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash davrida ushbu Nizomning [9-bobiga](#) muvofiq ishlab chiqarish baholanadi.

79. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish to'xtatilganda va (yoki) sinov va o'lchashlarni o'tkazish uchun mahsulot namuna(nusxa)lari yetarli bo'lmaganda, muvofiqlik sertifikatining egasi bu haqda MSOni yozma ravishda xabardor qiladi.

MSO olingan xabarnoma asosida sertifikatlashtirilgan mahsulotni belgilangan tartibda davriy baholashdan o'tkazish uchun shart-sharoit yaratilgunga qadar muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddatini to'xtatish yuzasidan uch ish kunida qaror qabul qiladi, bu haqda muvofiqlik sertifikatining egasi, Agentlik va tegishli idoralarni xabardor qiladi.

80. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash natijalari tegishli dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi va bir nusxasi muvofiqlik sertifikatining egasiga beriladi.

81. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash natijalari asosida MSO quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

a) muvofiqlik sertifikatining amal qilishi tasdiqlash;

b) muvofiqlik sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish;

v) muvofiqlik sertifikatining amal qilishini tugatish.

82. Muvofiqlik sertifikatining amal qilishini tasdiqlash to'g'risidagi qaror, sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash natijalari ijobiy bo'lganda qabul qilinadi va muvofiqlik sertifikatining egasi ushbu qaror bilan tanishtiriladi.

83. Quyidagilar mahsulot muvofiqlik sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qaror qabul qilishga asos hisoblanadi:

ishlab chiqaruvchining yozma murojaati;

ishlab chiqaruvchining rejali davriy baholash o'tkazish bo'yicha ishlarga haq to'lashdan bosh tortishi;

muvofiqlik sertifikati egasi tomonidan belgilangan tartibda davriy baholash o'tkazish uchun shart-sharoit yaratilmasligi;

davriy baholashdan o'tkazish jarayonida aniqlangan nomuvofiqliklar.

MSO muvofiqlik sertifikatining amal qilishini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilganda muvofiqlik sertifikati egasi MSO bilan kelishgan holda, mahsulot texnik reglament talablariga nomuvofiqligi sabablarini bartaraf etish bo'yicha tuzatish tadbirlari rejasini ishlab chiqadi va uni amalga oshirish muddatlarini belgilaydi.

84. Muvofiqlik sertifikatini egasi tomonidan tuzatish tadbirlarini amalga oshirishi va ushbu nomuvofiqliklar amalda bartaraf etilganligi MSO tomonidan tasdiqlanganda, muvofiqlik sertifikatining amal qilishi belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

85. Quyidagilar MSO tomonidan muvofiqlik sertifikatining amal qilishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilishga asosan bo'ladi:

muvofiqlik sertifikatini egasi tomonidan tuzatish tadbirlarida keltirilgan nomuvofiqliklar belgilangan muddatlarda bartaraf etilmaganligi;

ishlab chiqaruvchining yozma murojaati;

sinov natijasiga ko'ra sertifikatlangan mahsulot texnik reglamentlarda belgilangan talablarga nomuvofiqligi;

mahsulot ishlab chiqarish joyi o'zgarishi;

muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirilgan mahsulotning (tovarning), texnik reglamenti o'zgarishi;

davriy baholash jarayonida to'g'rilab bo'lmas kamchiliklar aniqlanishi.

Muvofiqlik sertifikatining amal qilishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilinganda, MSO muvofiqlik sertifikatining egasini, Agentlikni va tegishli idoralarni ushbu qaror bilan tanishtiradi.

86. MSO tomonidan muvofiqlik sertifikatini to'xtatib turish, qayta tiklash yoki tugatish to'g'risidagi ma'lumotlar 2 ish kunida muvofiqlik sertifikatining egasiga yetkaziladi va davlat reyestriga ma'lumot kiritish uchun Agentlikka hamda ma'lumot tariqasida soliq va bojxona organlariga, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va tegishli vazirlik, idoralarga bevosita yoki elektron pochta orqali yoki tegishli elektron tizim orqali yuboradi.

87. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar iste'molchilar va (yoki) davlat nazorati organlaridan mahsulot xavfsizligiga e'tiroz mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar olinganda MSO tomonidan rejadan tashqari davriy baholanadi.

Amal qilish muddati yakuniga yetayotgan muvofiqlik sertifikatini qayta rasmiylashtirish yuzasidan ushbu sertifikatni rasmiylashtirgan MSOga ariza yo'llanganda, MSO ushbu mahsulotni muvofiqligini baholashda so'nggi davriy baholashning ijobiy natijalarini, agar uning amalga oshirilganiga bir yildan oshmagan bo'lsa, hisobga olishi mumkin.

18-bob. Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish uchun asos bo'lgan hujjatlarni shakllantirish va saqlash

88. MSOlar rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikatini haqidagi ma'lumotlarni davlat reyestriga kiritgandan so'ng MSO va muvofiqlik sertifikatining egasi mahsulotning texnik reglament talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi (texnik reglamentda boshqa tartib belgilangan bo'lmasa), qo'llanilgan sertifikatlashtirish sxemasiga qarab, quyidagilarni o'z ichiga oladigan hujjatlar to'plamini elektron dasturda shakllantiradi;

a) mahsulotlarga texnik hujjatlar (loyihaviy va (yoki) konstruktorlik va (yoki) texnologik va (yoki) foydalanish hujjatlari va (yoki) texnik tavsiflar nusxalari);

b) standartlar to'plamiga kiritilgan standartlar ro'yxati (ularning nomi va belgilanishi, agar texnik reglament talablariga rioya qilish standartni to'liq emas balki alohida bo'lim, bob va bandlarini qo'llash orqali ta'minlanadigan bo'lsa, ushbu bo'lim, bob va bandlar) (ariza beruvchi tomonidan qo'llanilsa);

v) agar texnik reglamentlar talablariga rioya qilinishini ta'minlaydigan, ixtiyoriy ravishda qo'llaniladigan standartlar qo'llanmagan yoki ular mavjud bo'lmasa, texnik reglamentlar talablariga muvofiqlikni tasdiqlovchi qabul qilingan texnik yechimlar va xavfni baholash natijalari tavsifi;

g) mahsulot namuna(nusxa)larini identifikatsiya qilish va (yoki) tanlash to'g'risidagi dalolatnoma(lar);

d) mahsulotning texnik reglament talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi sinov va o'lchashlarning bayonnomalari (sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan hollarda) hamda agar texnik reglamentda nazarda tutilgan bo'lsa tegishli fotosurat va (yoki) videotasvirlar;

e) menejment tizimining muvofiqlik sertifikatini nusxasi (sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan hollarda);

j) mahsulot ishlab chiqarishda qo'llaniladigan muhim komponentlar, xomashyo, materiallar yoki butlovchi buyumlarning muvofiqlik sertifikatlari yoki sinov va o'lchashlarining bayonnomalari (mavjud bo'lsa);

z) shartnoma (kelishuv) va yukka ilova qilinadigan hujjatlarning nusxalari (sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan hollarda);

i) respublika hududiga yetkazib berilgan mahsulotning texnik reglament talablariga muvofiqligining ta'minlanishi va bunday mahsulotlarning belgilangan talablarga mos kelmasligi uchun javobgarlik ko'zda tutilgan (ishlab chiqaruvchi vakolatlagan shaxs uchun) ishlab chiqaruvchi (shu jumladan, xorijiy ishlab chiqaruvchi) bilan kelishuv nusxasi;

k) ishlab chiqarishni baholash natijalari to'g'risida dalolatnoma (sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan hollarda);

l) ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan mahsulotning texnik reglament talablariga muvofiqligining tasdiqlovchi boshqa hujjatlar;

m) muvofiqlik sertifikatini;

n) ariza beruvchining qonunchilikka muvofiq davlat ro'yxatidan o'tish paytida yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxsga tayinlangan ro'yxatga olish yoki hisobga olish (jismoniy shaxs, identifikatsiya) raqami to'g'risidagi ma'lumotlar.

89. Elektron dasturga kiritilmagan hujjatlar to'plami chop etilgan shaklda mazkur Nizomning [91-bandida](#) belgilangan muddatlarda MSOda saqlanishi ta'minlanadi.

90. Mahsulotning muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlar to'plami bilan birgalikda saqlash muddatlari texnik reglamentlarda belgilanadi.

91. Agar muvofiqlik sertifikatini uni rasmiylashtirish asos bo'lgan hujjatlar to'plamlari bilan birgalikda saqlash muddatlari texnik reglamentlarda belgilanmagan bo'lsa, muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati tugagan kundan boshlab kamida bir yil davomida MSO saqlanadi.

92. Muvofiqlik sertifikatini hujjatlar to'plami ariza beruvchi va (yoki) MSO tomonidan respublikada davlat nazoratini o'tkazish, shuningdek, texnik reglament talablariga rioya qilinishi ustidan nazorat uchun mas'ul bo'lgan davlat nazorati organlariga hamda boshqa manfaatdor shaxslarga ularning asosli talabiga binoan taqdim etiladi.

19-bob. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish sxemalari qo'llanishi

93. Mahsulotlar quyidagi keltirilgan sertifikatlashtirish sxemalariga asosan, mazkur Nizomga [2-ildavda](#) keltirilgan amallarni bajarish asosida sertifikatlashtiriladi:

1S sxema — seriyali ishlab chiqariladigan mahsulotlarni sertifikatlashtirishda qo'llaniladi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi vakolatlagan shaxs) hisoblanadi va sertifikatlangan mahsulotlarni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alanishini ta'minlaydi;

2S sxema — ishlab chiqaruvchida menejment tizimlarining sertifikatini mavjud bo'lgan turkum ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun qo'llaniladi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi vakolatlagan shaxs) hisoblanadi va sertifikatlangan mahsulotlarni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alanishini ta'minlaydi;

3S sxema — mahsulotlar to'pi uchun qo'llaniladi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi vakolatlagan shaxs) yoki sotuvchi (import qiluvchi) hisoblanadi va sertifikatlangan mahsulotlarni muvofiqlik belgisi bilan (import qilingan mahsulotlar ariza beruvchiga qulay shaklda) tamg'alanishini ta'minlaydi. Mahsulotlar O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelgunga qadar mazkur sxema orqali sertifikatlashtirilishi mumkin. Bunda sertifikatlashtirilayotgan mahsulotning tanlab olingan namunalariga va ularni sertifikatlashtirish organiga yetkazib berishga ariza beruvchi mas'ul hisoblanadi.

4S sxema — yagona (bitta) buyum uchun, texnik reglamentda belgilangan sinov va o'lchashlarni o'tkazish jarayonida ushbu buyumga putur yetkazilmasa qo'llaniladi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi vakolatlagan shaxs) yoki sotuvchi (import qiluvchi) hisoblanadi;

5S sxema — tayyor mahsulotning sinov va o'lchashlarda texnik reglament talablariga muvofiqligini to'liq tasdiqlash imkoni mavjud bo'lmagan turkum ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun qo'llaniladi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi vakolatlagan shaxs) hisoblanadi va sertifikatlangan mahsulotlarni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alanishini ta'minlaydi;

6S sxema — tayyor mahsulotning sinov va o'lchashlarida texnik reglament talablariga muvofiqligini to'liq tasdiqlash imkoni mavjud bo'lmaganda hamda ishlab chiqaruvchida menejment tizimlarining sertifikatini mavjud bo'lgan turkum ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun qo'llaniladi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi vakolatlagan shaxs) hisoblanadi va sertifikatlangan mahsulotlarni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alanishini ta'minlaydi;

7S sxema-seriyali ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar uchun mahsulot modifikatsiyalarini chiqarish rejalashtirilgan hollarda qo'llaniladi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi vakolatlagan shaxs) hisoblanadi va sertifikatlangan mahsulotlarni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alanishini ta'minlaydi;

8S sxema — seriyali ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan mahsulot modifikatsiyalarini chiqarish rejalashtirilgan va ishlab chiqaruvchida menejment tizimlarining sertifikatini mavjud bo'lgan turkum ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun qo'llaniladi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi vakolatlagan shaxs) hisoblanadi va sertifikatlangan mahsulotlarni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alanishini ta'minlaydi;

9S sxema — respublika hududidagi korxonalarini jihozlash uchun mo'ljallangan yagona (bitta) buyumlarga qo'llaniladi. Mazkur sxema bo'yicha sertifikatlashtirish texnik hujjatlarni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bunda ariza beruvchi ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchi vakolatlagan shaxs) yoki sotuvchi (import qiluvchi) hisoblanadi.

20-bob. Axborot ta'minoti

94. MSO rasmiylashtirilgan, tasdiqlangan, amal qilishi to'xtatilgan va tugatilgan sertifikatlarni, shuningdek, sertifikat berishni rad etilgan holatlarni hisobini olib boradi hamda ular to'g'risidagi axborotni har oyda Agentlikka taqdim etadi. MSO manfaatdor tashkilotlarni o'z faoliyati hamda rasmiylashtirilgan sertifikatlar to'g'risida xabardor qiladi.

95. Agentlik quyidagi ma'lumotlarni o'z veb-saytida joylashtiradi:
muvofiqlik sertifikatini berilgan mahsulotlar Davlat reyestri;
amal qilishi to'xtatilgan va tugatilgan muvofiqlik sertifikatlari.

21-bob. Appelyatsiyalarni ko'rib chiqish

96. Manfaaddor tomonlar sertifikatlashtirish natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda, Agentlikning Appelyatsiya kengashiga yoki bevosita sudga murojaat qilishga haqli.

97. Agentlikning Appelyatsiya kengashi MSO va SL qarorlariga nisbatan noroziliklarni ko'rib chiqadi. Appelyatsiya komissiyasi tarkibi va tartibi Agentlik rahbarining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Appelyatsiya komissiyasi berilgan appelyatsiyani ko'rib chiqadi va qabul qilingan qaror to'g'risida ariza beruvchiga yozma ravishda ma'lum qiladi.

98. Manfaaddor tomonlar Agentlikning Appelyatsiya kengashi qarori bo'yicha qonunda belgilangan tartibda sudga shikoyat etishlari mumkin.

22-bob. Yakunlovchi qoidalar

99. Agentlik yoki Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi MSOlardan muvofiqlik sertifikatini va uni rasmiylashtirish uchun asos bo'lgan hujjatlar to'plamlarini so'rab olishi mumkin.

Agentlik elektron tizim orqali MSO tomonidan rasmiylashtirilgan va (yoki) rasmiylashtirilayotgan muvofiqlik sertifikatlari monitoringini doimiy amalga oshirib boradi, nomuvofiqliklar aniqlanganda ular bartaraf qilingunga qadar tegishli MSO'larni elektron tizimdan uzib qo'yish vakolatiga ega.

100. Muvofiqlik sertifikatida ko'rsatilgan ma'lumotlarning haqqoniyligiga va mazkur Nizom talablarining buzilishiga javobgarlik MSOga yuklanadi.

101. Ushbu Nizomning buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi
to'g'risida nizamga
1-ILOVA

Mahsulotlarni sertifikatlashtirishdan o'tkazish

SHAKLI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Ariza beruvchi	Mahsulotni sertifikatlashtirishdan o'tkazish uchun hujjatlar to'plamini shakllantiradi. Sertifikatlashtirish organiga mahsulotni sertifikatlashtirishdan o'tkazish uchun ariza beradi.	Ariza beruvchining xohishiga ko'ra

2-bosqich	Sertifikatlashtirish organi	<p>1. Taqdim etilgan hujjatlar hamda ma'lumotlarning to'liqligi yuzasidan arizani quyidagicha o'rganadi:</p> <p>a) ijobiy natija bo'lganda mahsulotni sertifikatlashtirish yuzasidan qaror qabul qiladi va shartnoma tuzadi;</p> <p>b) hujjatlar to'liq bo'lmaganda hujjatlarni qaytaradi.</p> <p>2. Mahsulotni sertifikatlashtirish uchun shartnomaga asosan haq to'langandan keyin mahsulotlarni identifikatsiya qiladi, namuna oladi hamda IMOga bo'lgan huquqlarni o'rganadi, tekshiradi (sertifikatlashtirish chizmasida belgilanganda).</p> <p>3. Mahsulot loyihasi tadqiqotini o'tkazadi (sertifikatlashtirish chizmasida belgilanganda).</p> <p>4. Mahsulot turini o'rganish bo'yicha tadqiqot o'tkazadi (sertifikatlashtirish chizmasida belgilanganda).</p> <p>5. Identifikatsiya qilish va namuna olish, IMO yoki mahsulot loyihasi tadqiqotini o'tkazish yoki mahsulot turini o'rganish jarayonlarida, nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda, bu haqda ariza beruvchini ularni bartaraf etish uchun xabardor qiladi.</p> <p>6. Identifikatsiya qilish va namuna olish, IMO yoki mahsulot loyihasi tadqiqotini o'tkazish yoki mahsulot turini o'rganish jarayonlari bo'yicha aniqlangan nomuvofiqliklar bartaraf etilmagan taqdirda, ro'yxatga olish ishini to'xtatib turadi.</p> <p>7. Belgilangan muddatlarda nomuvofiqliklar bartaraf etilganligi haqida ma'lumot va tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmaganda sertifikatlashtirish organi ariza beruvchiga sertifikatlashtirish ishlarini tugatish to'g'risida xabarnoma yuboradi.</p>	<p>1 ish kuni mobaynida</p> <p>1 ish kuni mobaynida</p> <p>1 ish kuni mobaynida</p> <p>3 ish kuni mobaynida</p> <p>10 ish kuni mobaynida</p> <p>10 ish kuni mobaynida</p> <p>1 oygacha (ariza beruvchi tayyorligi natijalari bo'yicha)</p> <p>3 ish kuni mobaynida</p>
3-bosqich	Sertifikatlashtirish organi	Identifikatsiya qilish va namuna olish jarayonida kamchiliklar aniqlanmaganda, shuningdek, belgilangan muddatlarda kamchiliklar bartaraf etilganligi haqida ma'lumot va tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilganda tanlab olingan namunalarni, dalolatnoma bilan akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyasiga yuboradi.	1 ish kuni mobaynida
	Sinov laboratoriyasi	<p>Tanlab olingan namunalarni texnik reglamentlarda belgilangan tartibda, sinovdan o'tkazadi.</p> <p>Olingan sinov natijalarini bayonnoma ko'rinishida rasmiylashtirib, sertifikatlashtirish organiga taqdim qiladi.</p>	<p>Sinovlar davomiyligidan kelib chiqib</p> <p>1 ish kuni mobaynida</p>
	Sertifikatlashtirish organi	<p>Ishlab chiqarish baholashdan o'tkazadi va natijalar bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtiradi (sertifikatlashtirish chizmasida belgilanganda).</p> <p>Ishlab chiqarishni baholash jarayonida nomuvofiqlik aniqlansa, aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish to'g'risida ariza beruvchiga xabarnoma yuboradi.</p> <p>Ishlab chiqarishni baholash jarayonida aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilmagan taqdirda, sertifikatlashtirishni to'xtatib turadi.</p> <p>Belgilangan muddatlarda kamchiliklar bartaraf etilganligi haqida ma'lumot va tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilganda, sertifikatlashtirish organi uni ko'rib chiqadi hamda ariza bo'yicha ishlarni, to'xtatish yoki davom ettirish yuzasidan qaror qabul qiladi.</p> <p>Belgilangan muddatlarda kamchiliklar bartaraf etilmaganda sertifikatlashtirish organi ariza beruvchiga sertifikatlashtirish ishlari tugatilganligi to'g'risida xabarnoma yuboradi.</p>	<p>10 ish kuni mobaynida</p> <p>2 ish kuni mobaynida</p> <p>1 oy mobaynida (ariza beruvchi xohishiga ko'ra)</p> <p>2 ish kuni mobaynida</p> <p>2 ish kuni mobaynida</p>
	Ariza beruvchi	Ishlab chiqarishni baholash jarayonida nomuvofiqliklar aniqlanganda, nomuvofiqlikni bartaraf etadi va tasdiqlovchi hujjatlar bilan sertifikatlashtirish organiga ma'lumotlarni taqdim etadi.	<p>1 oy mobaynida (ariza beruvchi xohishiga ko'ra)</p>

4-bosqich	Sertifikatlashtirish organi	<p>Sertifikatlashtirish organi, identifikatsiya qilish va namuna olish dalolatnomasi, mahsulot loyihasi tadqiqotini o'tkazish bo'yicha xulosa, mahsulot turini o'rganish bo'yicha xulosa, sinov bayonnomalari, ishlab chiqarishni baholash dalolatnomasi hamda taqdim qilingan hujjatlar majmui asosida muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risida qaror qiladi.</p> <p>Mahsulotning sinov va o'lchashlar davrida butunlay yoki qisman buzilgan, shuningdek, sinash davrida buzilmagan mahsulot bo'yicha hisobdan chiqarilganligi (qaytarib berilganligi) to'g'risidagi dalolatnomani rasmiylashtiriladi.</p> <p>Ijobiy qaror qabul qilinsa mahsulotlarga muvofiqlik sertifikati rasmiylashtiriladi va reyestrda ma'lumotlar kiritadi.</p>	<p>2 ish kuni mobaynida</p> <p>2 ish kuni mobaynida</p> <p>3 ish kuni mobaynida</p>
-----------	-----------------------------	---	---

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi
to'g'risida nizomga
2-ILOVA

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish SXEMALARI

Sxema raqami	Mahsulotni identifikatsiya qilish	Mahsulotdan namuna (nusxa) tanlab olish	Mahsulotning IMOga bo'lgan huquqlarni o'rganish va tekshirish	Mahsulotning sinov va o'lchashlarini o'tkazish	Mahsulot loyihasini o'rganish bo'yicha tadqiqot	Mahsulot turini o'rganish bo'yicha tadqiqot	Ishlab chiqarish nazorati (ariza beruvchi tomonidan)	Ishlab chiqarishni baholash (sertifikatlashtirish organi tomonidan)	Sertifikatlashtirilg mahsulotni davri baholash
1S	+	+	+	+			+	+	+
2S	+	+	+	+			+	+	+
3S	+	+	+	+					
4S	+		+						
5S	+		+		+		+	+	+
6S	+		+			+	+	+	+
7S	+		+			+	+		+
8S	+		+			+	+		+
9S	+		+						

Izoh:

* Texnik reglamentda mahsulot namunalarini (nuxalari)ning sinov va o'lchash natijalaridan shu kabi mahsulotlarning keyingi to'plari uchun foydalanish imkoniyati belgilangan bo'lsa, mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi mahsulot to'pi ilgari muvofiqlik sertifikati berilgan mahsulot bilan bir xilligini belgilash uchun identifikatsiyadan o'tkazadi. Agar mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi mahsulot to'pi ilgari muvofiqlik sertifikati berilgan mahsulot bilan bir xilligini aniqlagan bo'lsa, ushbu to'pdan namuna olish, shuningdek, sinov va o'lchashlar amalga oshirilmaydi. Bu holda, sinov va o'lchashlarning ishlatilayotgan bayonnomasi amal qilish muddati texnik reglamentga asosan belgilanadi;

** Texnik reglamentda yagona buyum namunalarini (nuxalari)ning sinov va o'lchash natijalaridan shu kabi mahsulotlarning keyingi yagona buyumlari uchun foydalanish imkoniyati belgilangan bo'lsa, mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi yagona buyum ilgari muvofiqlik sertifikati berilgan mahsulot bilan bir xilligini belgilash uchun identifikatsiyadan o'tkazadi. Agar mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi yagona buyum ilgari muvofiqlik sertifikati berilgan mahsulot bilan bir xilligini aniqlagan bo'lsa, sinov va o'lchashlar amalga oshirilmaydi. Bu holda sinov va o'lchashlarning ishlatilayotgan bayonnomasi amal qilish muddati texnik reglamentga asosan belgilanadi.

Yagona buyumning sinov va o'lchashlari akkreditlangan sinov laboratoriyasi (markaz)da amalga oshiriladi (texnik reglamentda yagona buyumning sinov va o'lchashlari natijalaridan xuddi shunday mahsulot yagona buyumlari uchun foydalanish imkoniyati o'rnatilmagan hollarda).

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi
to'g'risida nizomga
3-ILOVA

(sertifikatlashtirish organi nomi)

(sertifikatlashtirish organi manzili)

Mahsulotni sertifikatlashtirish uchun

ARIZA

(ariza beruvchining nomi (ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi yoki yakka tartibdagi tadbirkorning F.I.O.))

(ariza beruvchining manzili)

nomidan _____ shuni ma'lum qiladiki,

(rahbarning F.I.O.)

(mahsulotning nomi, turi, TIF TN kodi, seriyali yoki turkum ishlab chiqarilgan, har bir mahsulot (bitta ishlab chiqarish uchun))

_____ ga asosan ishlab chiqariladi,

(ishlab chiqaruvchi hujjatlarining nomi)

_____ talablariga javob beradi

(normativ hujjatning nomi va raqami)

va ushbu mahsulotlarni ko'rsatilgan hujjatlar talablariga muvofiqligini qo'yidagi sxemaga asosan sertifikatlashtirishni so'raydi:

(sertifikatlashtirish sxemasi raqami)

Qo'shimcha _____ ma'lumotlar

(xulosalar va boshqa hujjatlarning mavjudligi ko'rsatiladi)

Ariza beruvchi

(imzo)

(F.I.O.)

Sana

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi
to'g'risida **nizomga**
4-ILOVA

(sertifikatlashtirish organi nomi)

(sertifikatlashtirish organi manzili)

"TASDIQLAYMAN"

Sertifikatlashtirish organi rahbari

(imzo) _____ (F.I.O.) _____

20__ y. ____

muhr

Sertifikatlashtirish bo'yicha ariza yuzasidan

QAROR

20 __ y., __ _____dagi __-son

Arizani ko'rib chiqib _____ sertifikatlashtirish uchun

(ishlab chiqaruvchining, yetkazib beruvchining nomi)

_____ ma'lum qilamiz:

(mahsulot nomi, TIF TN kod)

1. Sertifikatlashtirish quyidagi sxemaga muvofiq amalga oshiriladi _____;

(sxemasi raqami)

2. Sertifikatlashtirish uchun _____ sinovlar

_____da o'tkazilishi kerak;

(akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyasi nomi)

(manzili)

3. Sertifikatlashtirish _____ talablariga muvofiq o'tkaziladi;

(NHning nomlanishi va belgilanishi)

4. Ishlab chiqarishni baholash _____da o'tkaziladi;

(korxonaning nomi)

(manzili)

(ishlab chiqarishni baholash turi)

5. Ish uchun to'lov shakli _____;

(tadbirkorlik shartnomasi, tariflar va boshqa to'lov turlari bo'yicha)

6. Sertifikatlashtirish maqsadida _____ni topshirish kerak.

(zarur hujjatlar ko'rsatilishi kerak)

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi
to'g'risida **nizomga**
5-ILOVA

(Old tarafi)

Namunalarni identifikatsiya qilish va tanlab olish

DALOLATNOMASI

20__ y. "___" _____

Ishlab chiqaruvchining (ariza beruvchining) nomi _____

Namunalar olingan tashkilotning nomi va manzili

Mahsulot turining nomi va MXIK kodi (qonunchilik belgilangan mahsulot turiga)

O'lchov birligi

Partiya hajmi

Partiyani tashqi tekshirish natijasi

(qadoqlash, yorliqlash holati)

Ishlab chiqarilgan sana

Olingan namunalar soni

(birlikni qadoqlash holati)

(sinov uchun)

(nazorat namunalari uchun)

Namuna olish maqsadi: normativ hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq mahsulotlarni xavfsizlik ko'rsatkichlari bo'yicha sinovdan o'tkazish.

Namuna olish joyi va sanasi

Imzolar:

Ishlab chiqaruvchidan

(ariza beruvchidan)

imzo

F.I.O.

Sertifikatlashtirish organidan

imzo

F.I.O.

Bojxona posti inspektori

imzo

F.I.O.

(Orqa tarafi)

MAHSULO G IDENTIFIKATSIYASI:

Nomi (marka, model, tur, sinf mavjud bo'lsa)

Ishlab chiqaruvchi (mamlakat va korxon)

Qadoq	va	yorliq	haqida	ma'lumot

Maqsad		/		mo'ljallangan

Asosiy				xususiyatlari

Saqlash				shartlari

Ishlab		chiqarilgan		sana

Saqlash				muddati

Qo'shimcha	ma'lumotlar	(mavjud		bo'lganda)

Imzolar:

Sertifikatlashtirish organidan	_____	_____
	imzo	F.I.O.
Bojxona posti inspektori	_____	_____
	imzo	F.I.O.
Ishlab chiqaruvchidan		
(ariza beruvchidan)	_____	_____
	imzo	F.I.O.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi
to'g'risida **nizomga**
6-ILOVA

MAHSULOTLARNI HISOBDAN CHIQARISH (QAYTARISH) TO'G'RSIDA

DALOLATNOMA

20 ___ y. "___" _____ dan

(yuridik va jismoniy shaxsning nomi)

(arizaning sanasi va raqami)

Bu dalolatnoma 20___ y., "___" _____ dagi _____-son namunalarni tanlab olish dalolatnomasiga muvofiq tanlab olingan mahsulot namunalari:

sinov davrida butunlay buzilgan;

□ sinov davrida yo'q qilinmagan yoki qisman buzilgan, ariza beruvchiga qaytarilganligi to'g'risida tuzilgan.

Ishlab chiqaruvchidan

(ariza beruvchidan)

imzo

F.I.O.

Sertifikatlashtirish organidan

imzo

F.I.O.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi
to'g'risida **nizomga**
7-ILOVA

(Sertifikatlashtirish organi nomi)

(Sertifikatlashtirish organi manzili)

“TASDIQLAYMAN”

Sertifikatlashtirish organi rahbari

_____(imzo)_____(F.I.O.)_____

20____y. ____

muhr

Sertifikatlashtirish natijasi yuzasidan

QAROR

20____y. “____” _____-sonli

1. Sertifikatlashtirilayotgan mahsulotlarning sinov bayonnomalarini tahlilli.
2. Ishlab chiqarishni baholash bo'yicha xulosalar (agar sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan bo'lsa).
3. Hujjatlarning to'liqligi asosida muvofiqlik sertifikati berish / rad etish (tegishligi tagiga chizing)

(mahsulot(lar) nomi)

(jismoniy yoki yuridik shaxs nomi)

Rad	etish	sababi
_____	_____	_____
_____	_____	_____
_____	_____	_____
_____	_____	_____
Ekspert	_____	_____
	(imzo)	(F.I.O.)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SERTIFIKATLASHTIRISH

MILLIY TIZIMI

(Sertifikatlashtirish idorasining nomi, manzili, Davlat
reyestridagi raqami)

MUVOFIQLIK SERTIFIKATI

yildan son bilan

(milliy muvofiqlik Davlat reyestrda
belgisi) ro'yxatga olingan

Amal qilish
muddati

yilgacha

TIF TN kodi

(ma'lumot
uchun)

(tashkilot nomi, ishlab chiqaruvchi mamlakat)

Ushbu sertifikat tegishli ravishda identifikatsiya
qilingan mahsulot:

(nomi, turi, xili, rusumi)

(miqdori yoki seriyali ishlab chiqarilishi)

normativ hujjat talablariga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Sertifikatlashtirish sxemasi:

Murojaatchi

(ishlab chiqaruvchi, sotuvchi):

(keraklisi tagiga chizilsin)

(amaldagi va yuridik manzili)

Sertifikat quyidagilarga asosan berildi:

a) hujjatlar

b) namunalar sinovi

v) ishlab chiqarishni tekshirish dalolatnomasi

Inspeksion nazoratni davriylik bilan amalga oshiradi.

Alohida yozuvlar:

Muvofiqlik belgisi
qo'yiladi:

Sertifikatlashtirish
organi rahbari

(elektron imzo)

(F.I.O.)

Ekspert

(elektron imzo)

(F.I.O.)

Oldingi tahrirga qarang.

(3-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 26-dekabrdagi 831-son qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2025-y., 09/25/831/1227-son)

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-
avgustdagi 502-son qaroriga
4-ILOVA

Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida" va "Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish to'g'risida" qonunlariga asosan menejment tizimlarini sertifikatlashtirish tartibini belgilaydi.

2. Menejment tizimlarini sertifikatlashtirishning sxemalari, uslublari va tartiblari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar hamda ushbu Nizom talablariga muvofiq belgilanadi.

Menejment tizimlarining muvofiqligini baholash ishlarini amalga oshirishda ushbu Nizomda belgilangan tartib bilan bir qatorda menejment tizimlarini sertifikatlashtirish faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro standartlar turkumida nazarda tutilgan talablar, muayyan menejment tizimi uchun belgilangan alohida qoidalar, menejment tizimlarini sertifikatlashtirish sohasida xalqaro tashkilotlar tomonidan umumiy etilgan tamoyillar inobatga olinadi.

3. Menejment tizimlari belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organlari (keyingi o'rinlarda — MTSO) tomonidan ularning akkreditatsiyasi doirasida sertifikatlashtiriladi.

Menejment tizimlarini sertifikatlashtirishda ariza beruvchi, bir nechta MTSO mavjud bo'lsa, o'z tanloviga binoan ulardan biriga murojaat qilish huquqiga ega.

2-bob. Asosiy tushunchalar

4. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

ariza beruvchi — menejment tizimlarini sertifikatlashtirishga talabgor bo'lgan yuridik shaxs;

axborot tizimi — mahsulot va xizmatlarga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va elektron reyestrni yuritish axborot tizimi;

menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi (MTSO) — qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan O'zbekiston Respublikasi rezidenti, menejment tizimlarini sertifikatlashtirish faoliyatini amalga oshiruvchi organ sifatida akkreditatsiyadan o'tgan yuridik shaxs;

menejment tizimlarini sertifikatlashtirish — menejment tizimlarining sertifikatlashtirish sxemasiga asosan xalqaro standartlarda belgilangan talablarga muvofiqligini baholash bo'yicha faoliyat;

muvofiqlik sertifikati — sertifikatlashtirilgan menejment tizimlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan rasmiylashtiriladigan hujjat;

nazorat auditori — belgilangan talablarning bajarilishi darajasini aniqlash maqsadida yozuvlarni olish, dalillar yoki boshqa tegishli axborotni qaydlash va ularni xolisona baholash bo'yicha muntazam, mustaqil, shuningdek, hujjatlashtirilgan tarzda olib boriladigan jarayon.

3-bob. Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish tartibi

5. Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish (keyingi o'rinlarda — sertifikatlashtirish) quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

a) muayyan menejment tizimiga belgilangan talablarga muvofiq axborot tizimi orqali sertifikatlashtirish uchun ariza berish;

b) sertifikatlashtirish uchun berilgan arizani ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

v) sertifikatlashtirish uchun shartnoma tuzish;

g) sertifikatlashtirish uchun yetarli vakolatga ega audit guruhini shakllantirish;

d) menejment tizimlari auditini belgilangan bosqichlarda o'tkazish va uning natijalari bo'yicha hisobot tuzish;

e) muvofiqlik sertifikatini berish yoki berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish;

j) muvofiqlik sertifikatini axborot tizimida ro'yxatdan o'tkazish.

6. Ariza beruvchi tomonidan mustaqil tanlangan MTSO arizaga muvofiq sertifikatlashtirish ishlarini amalga oshiradi.

4-bob. Ariza taqdim qilish

7. Ariza beruvchi xalqaro standartlarda belgilangan talablarga muvofiq sertifikatlashtirishga ushbu Nizomga 4-ilovaga muvofiq arizani Nizomning 9-bandidagi ma'lumotlarni ilova qilgan holda MTSOga yo'llaydi.

8. Ariza beruvchi sertifikatlashtirish uchun arizani unga zarur hujjatlar va ma'lumotlarni ilova qilgan holda axborot tizimi orqali yuboradi.

9. Sertifikatlashtirish uchun taqdim qilinadigan arizada quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi:

a) menejment tizim(lar)i bilan qamrab olingan sertifikatlashtirish so'ralgan soha (sertifikatlashtirish sohasi);

b) menejment tizim(lar)ining muvofiqligini baholashga oid texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjat(lar)ga havola;

v) ariza beruvchining faoliyati tavsifi;

g) sertifikatlashtirish bilan qamrab olish nazarda tutilgan ariza beruvchining doimiy va/yoki vaqtincha faoliyat ko'rsatish joy(lar)i soni hamda ushbu joy(lar)ning to'liq nomi, manzili va ularda olib boriladigan faoliyat tavsifi;

d) ariza beruvchining pudrat asosida amalga oshiradigan faoliyati (jarayonlari) tavsifi;

e) ariza beruvchining faoliyatiga oid jarayonlar hamda unga bog'liq inson va texnika resurslar tafsiloti;

j) menejment tizim(lar)ini joriy etish bilan bog'liq konsalting xizmati jalb qilinganligi to'g'risida ma'lumot (jalb etilgan bo'lsa);

z) avvalgi sertifikatlashtirish to'g'risida ma'lumot (amalga oshirilgan bo'lsa).

Ariza beruvchi o'z ixtiyoriga ko'ra qo'shimcha ma'lumot va/yoki hujjatlarni taqdim qilishi mumkin.

10. Sertifikatlashtirish uchun ariza va unga ilova qilingan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va haqqoniyliги uchun ariza beruvchi javobgar.

5-bob. Sertifikatlashtirish uchun taqdim etilgan ariza va hujjatlar to'plamini ko'rib chiqish tartibi

11. MTSO taqdim etilgan ariza va ma'lumotlarni ko'rib chiqib tahlil qiladi, tahlil natijalari bo'yicha 3 ish kuni mobaynida sertifikatlashtirish uchun arizani qabul qilish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Ariza beruvchiga 1 ish kuni mobaynida qabul qilingan qaror to'g'risida xabarnoma yoki asoslantirilgan rad javobini (bevosita yoki elektron pochta orqali yoki tegishli elektron tizim orqali) yuboradi.

12. Sertifikatlashtirish uchun arizani qabul qilishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

ushbu Nizomning 9-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'liq taqdim etilmaganligi;

sertifikatlashtirish uchun arizaga ilova qilingan hujjat va ma'lumotlarning soxtaligi yoki noto'g'riligi aniqlanganligi;

sertifikatlashtirish uchun MTSOda so'ralgan sertifikatlashtirish sohasida zarur kompetentlik tasdiqlanmaganligi;

sertifikatlashtirish uchun arizaning ushbu Nizom bilan belgilangan boshqa talablarga nomuvofiqliги.

13. Sertifikatlashtirish uchun arizani qabul qilish rad etilganda, hujjatlar ariza beruvchiga qaytariladi.

14. Ariza beruvchi qayd etilgan rad etish sabablarini bartaraf etgandan so'ng sertifikatlashtirish uchun qayta ariza berish huquqiga ega.

15. Sertifikatlashtirish uchun ariza qabul qilingan taqdirda, ariza, uni qabul qilib olingan kundan boshlab 3 ish kuni ichida MTSO va ariza beruvchi o'rtasida sertifikatlashtirish to'g'risida shartnoma tuziladi.

16. Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish, joriy etish va o'qitish ishlari uchun xarajat mazkur Nizomga 2-ilovaga muvofiq tartibda to'lanadi.

17. Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun, uning natijalaridan qat'i nazar, ariza beruvchi tomonidan sertifikatlash to'g'risidagi shartnomada ko'rsatilgan miqdorda to'lanishi shart. Bunda sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar qiymati sertifikatlashtirish bo'yicha qaror qabul qilingunga qadar to'lab berilishi kerak.

18. Menejment tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish maqsadida ariza beruvchi tomonidan konsultantni jalb etish ochiq tanlov asosida amalga oshirilganda, ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy qiymati haqiqiy sarflarni hisobga olgan holda, bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravaridan oshmasligi lozim.

6-bob. Sertifikatlashtirish uchun yetarli vakolat — malaka darajasiga ega audit guruhini shakllantirish tartibi

19. Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar qiymatining birinchi to'lovi amalga oshirilgandan so'ng MTSO 5 ish kuni ichida, biroq shartnoma tuzilgandan so'ng 10 ish kunidan kechiktirmay sertifikatlashtirish bo'yicha auditorlar guruhini shakllantiradi.

20. MTSO mazkur Nizomning 9-bandida keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, menejment tizimlarini sertifikatlashtirish bo'yicha xalqaro standartlarda belgilangan tartibda tuziladigan audit dasturi asosida sertifikatlashtiradi.

21. MTSO audit dasturida menejment tizim(lar)ini dastlabki sertifikatlashtirishdagi birinchi hamda ikkinchi bosqich auditida muvofiqlik sertifikati amal qilish davrida o'tkaziladigan nazorat va qayta sertifikatlashtirish auditida amalga oshiriladigan tadbirlarni aniq aks ettirishi shart.

22. MTSO tomonidan menejment tizimi auditini rejalashtirish va audit vaqtini hisoblash uchun quyidagilar asos bo'ladi:

MTSO audit jarayonida qamrab olinadigan menejment tizim(lar)ining murakkablik va integratsiyalashuv darajasi;

ariza beruvchining faoliyati natijalari (misol uchun, faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari (KPI), shikoyatlar va boshqalar);

sertifikatlashtirish bilan qamrab olinadigan faoliyat yuritish joy(lar) soni, jarayon(lar), inson va texnik resurslar ko'lami;

menejment tizimini baholash uchun menejment tizimlarini sertifikatlashtirish sohasida xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan va umumetirof etilgan mezonlar;

qonunchilikda nazarda tutilgan alohida talablar.

23. Sertifikatlashtirish bo'yicha audit guruhining tarkibi, sertifikatlashtirish muddatlari va joyi MTSO tomonidan ariza beruvchi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

24. MTSO ariza beruvchi bilan tuziladigan yuridik kuchga ega kelishuv asosida zarur hollarda audit guruhi tarkibida kuzatuvchilar, akkreditatsiya organi baholovchilari va boshqa ishtirokchilarning audit jarayonida qatnashishini ta'minlaydi.

7-bob, Menejment tizimlari auditini belgilangan bosqichlarda o'tkazish va uning natijalari bo'yicha hisobot

25. Menejment tizim(lar)ining normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida auditlar belgilangan bosqichlarda o'tkaziladi.

26. O'tkazilgan birinchi bosqich audit natijasida menejment tizimlari hujjatlarining tahlili, audit maqsadlariga erishilganlik va ariza beruvchining keyingi bosqich auditiga tayyorlik darajasi yuzasidan xulosa hamda menejment tizimlarini sertifikatlashtirish faoliyatini tartibga soluvchi tegishli xalqaro standartlar turkumida nazarda tutilgan ma'lumotlarni o'zida jamlagan hisobot 15 ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda tuziladi va ariza beruvchiga taqdim qilinadi.

Hisobotda qo'shimcha ravishda sertifikatlashtirish uchun ahamiyatga ega boshqa ma'lumotlar aks ettirilishi mumkin.

27. Menejment tizimlarining ikkinchi bosqich audit sertifikatlashtirish bilan qamrab olinishi nazarda tutilgan joy(lar)da o'tkaziladi. Bunday joylar sirasiga ariza beruvchining doimiy va/yoki vaqtinchalik faoliyat ko'rsatish joylari, filiallari, virtual maqsaddagi joylari kiritilishi mumkin.

28. Menejment tizimlarining ikkinchi bosqich audit natijalari bo'yicha hisobot menejment tizim(lar)ini sertifikatlashtirish faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro standartlar turkumida talab qilingan ma'lumotlarni va audit xulosalarini jamlagan holda 20 ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda tuziladi va ariza beruvchiga taqdim qilinadi.

29. Menejment tizim(lar)ini sertifikatlashtirish faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro standartlarga ko'ra talab qilingan ma'lumotlar bilan birga hisobotda quyidagilar aks ettiriladi:

muayyan menejment tizim(lar)i doirasida qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan talablarning bajarilganlik holati (tegishli hollarda);

joriy qilingan menejment tizimining natijadorligi va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablariga muvofiqligi yuzasidan xulosa;

nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun 25 ish kunidan oshmaydigan muddat (nomuvofiqliklar bayonnomasi rasmiylashtirilganda).

Hisobotda qo'shimcha ravishda sertifikatlashtirish uchun ahamiyatga ega boshqa ma'lumotlar aks ettirilishi mumkin.

30. Menejment tizimlarining normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablariga nomuvofiqligi aniqlangan hollarda, ariza beruvchiga 1 ish kuni mobaynida menejment tizimlari audit natijalari bo'yicha hisobot bilan birgalikda taqdim etiladigan nomuvofiqliklar bayonnomasi rasmiylashtiriladi.

8-bob. Sertifikatlashtirish bo'yicha qaror qabul qilish va muvofiqlik sertifikatini axborot tizimi orqali ro'yxatdan o'tkazish

31. O'tkazilgan sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha MTSO tomonidan muvofiqlik sertifikatini berish yoki berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

32. Muvofiqlik sertifikatini tasdiqlash haqidagi qaror nazorat audit natijalari ijobiy bo'lganda qabul qilinadi.

33. Muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risida qaror qabul qilinganda, ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 3 ish kuni ichida axborot tizimi orqali muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirilib, davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkaziladi va ariza beruvchiga taqdim qilinadi.

34. MTSO tomonidan bir vaqtning o'zida bir nechta menejment tizimini sertifikatlashtirish ishlari amalga oshirilganda, har bir sertifikatlashtirilgan menejment tizimi uchun alohida muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtiriladi.

35. MTSO o'zi tomonidan sertifikatlangan menejment tizim(lar)ining sertifikatlashtirish maqomi (sertifikatlashtirish sohasini kengaytirish, qisqartirish, tasdiqlash, amal qilishini to'xtatib turish, tugatish va uni bekor qilish) qayd etib boriladigan ochiq ma'lumotlar resursini yuritadi va unda keltirilgan ma'lumotlarning dolzarbligini ta'minlaydi.

36. Muvofiqlik sertifikatini Davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab 3 yil muddatga amalga qiladi.

37. Menejment tizimining muvofiqlik sertifikatini ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq shaklda rasmiylashtiriladi.

38. MTSO o'z faoliyati doirasida rasmiylashtirilgan har qanday shakldagi muvofiqlik sertifikatini, sertifikatlashtirish belgisi va sertifikatlashtirilgan menejment tizimiga ishora qiluvchi axborotdan xalqaro standartlarda ruxsat berilgan holatlarga zid va noo'rin qo'llanishdan himoyalash choralarini ko'rish shart.

39. Muvofiqlik sertifikatida aks ettirilgan har qanday ma'lumotning haqqoniyligi uchun uni rasmiylashtirgan MTSO javobgar hisoblanadi.

40. Avval berilgan muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati tugagunga qadar 30 kun avval sertifikatlashtirish uchun ariza berilganda, menejment tizimi hujjatlarining tahlili va uning natijalari bo'yicha hisobot tuzishdan tashqari ushbu Nizomda belgilangan tartibda qayta sertifikatlashtirish o'tkaziladi.

9-bob. Muvofiqlik sertifikatini berishni rad etish

41. Muvofiqlik sertifikatini berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

menejment tizimlari hujjatlarining tahlili yoki menejment tizimlari auditi doirasida aniqlangan nomuvofiqliklarning tegishli hisobotlarda belgilangan muddatlarda bartaraf etilmaganligi;

sertifikatlashtirish bo'yicha bajarilgan ishlar uchun belgilangan qiymatda to'lanmaganligi;

menejment tizimlarining ushbu Nizom bilan belgilangan boshqa talablarga nomuvofiqligi.

42. MTSO tomonidan 1 ish kunida muvofiqlik sertifikatini berishni rad etish to'g'risida qarorini qabul qilinadi hamda axborot tizimi orqali foydalanuvchining shaxsiy kabinetiga xabar yuboriladi.

10-bob. Sertifikatlashtirish sohasini kengaytirish yoki qisqartirish

43. Sertifikatlashtirish sohasini kengaytirishga talabgor tashkilot muvofiqlik sertifikatini bergan MTSOga axborot tizimi orqali ariza beradi.

44. Sertifikatlashtirish sohasi ushbu Nizomda belgilangan tartibda kengaytiriladi.

45. Sertifikatlashtirish sohasi muvofiqlik sertifikatini bergan MTSO tomonidan tashkilotning sertifikatlashtirish sohasi nazorat auditi natijalariga asosan qisqartiriladi.

46. Sertifikatlashtirish sohasini qisqartirish uchun to'lov undirilmaydi.

47. Sertifikatlashtirish sohasini kengaytirish yoki qisqartirishda avval berilgan muvofiqlik sertifikatining qolgan muddatiga yangi muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtiriladi. Yangi muvofiqlik sertifikatini avval berilgan muvofiqlik sertifikatini uni bergan MTSOga qaytarilgandan so'ng beriladi.

48. MTSOning sertifikatlashtirish sohasini kengaytirish yoki qisqartirish haqidagi qarori tashkilotga qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 3 ish kundan kechiktirmasdan axborot tizimi orqali yetkaziladi.

49. Tashkilot MTSOning sertifikatlashtirish sohasini kengaytirish yoki qisqartirish haqidagi qarorini olgan kundan e'tiboran 3 ish kuni ichida avvalgi muvofiqlik sertifikatini uni bergan MTSOga keyinchalik O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligida Davlat reyestrda chiqarish va yo'q qilib yuborish uchun qaytarilishini ta'minlaydi.

11-bob. Muvofiqlik sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish, tugatish va bekor qilish

50. Muvofiqlik sertifikatining amal qilishi muvofiqlik sertifikatini bergan MTSO, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi yoki sud tomonidan quyidagi hollarda olti oydan ko'p bo'lmagan muddatga to'xtatib turiladi:

menejment tizimi sertifikatlashtirilgan tashkilot (keyingi o'rinlarda — tashkilot) tomonidan nazorat auditi davomida aniqlangan nomuvofiqliklar bartaraf etilmaganda;

tashkilot tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan talablar buzilganda;

tashkilot nazorat auditini o'tkazish uchun zarur shart-sharoit ta'minlanmaganda;

tashkilot tomonidan ixtiyoriy ravishda sertifikatning amal qilishini to'xtatib turish haqida ariza bilan murojaat qilganda.

51. Muvofiqlik sertifikatining amal qilishi muvofiqlik sertifikatini bergan MTSO, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi yoki sud tomonidan quyidagi hollarda tugatiladi:

nazorat auditori natijalariga ko'ra;

tashkilot tomonidan muvofiqlik sertifikatining amal qilishini tugatish haqida ariza bilan murojaat qilganda; tashkilot tugatilganda;

tugatilgan yoki faoliyati to'xtatilgan vaqtdan boshlab, qayta tashkil etilishi natijasida;

muvofiqlik sertifikatini amal qilishi to'xtatib turilishiga sabab bo'lgan holatlar MTSO, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi yoki sud tomonidan belgilangan muddatda tashkilot tomonidan bartaraf etilmaganda;

normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan talablar tashkilot tomonidan muntazam tarzda buzilganda yoki bir marta qo'pol tarzda buzilganda;

MTSONing muvofiqlik sertifikatini berish haqidagi qarori noqonuniy ekanligi aniqlanganda;

muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati tugaganda.

52. Muvofiqlik sertifikatining amal qilishi uni tugatish haqida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran tugatiladi.

53. Muvofiqlik sertifikati muvofiqlik sertifikatini bergan MTSO, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va sud tomonidan quyidagi holatlarda bekor qilinadi:

audit nazorati natijalariga ko'ra;

muvofiqlik sertifikati qalbakilashtirilgan hujjatlardan foydalangan holda olinganligi aniqlanganda.

54. MTSO, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va sud tomonidan muvofiqlik sertifikatini bekor qilish haqida qaror qabul qilingan hollarda muvofiqlik sertifikati mazkur qaror tashkilotga berilgan sanadan e'tiboran bekor qilingan hisoblanadi.

55. MTSONing muvofiqlik sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish, tugatish yoki uni bekor qilish haqidagi qarori tashkilotga mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 3 ish kunidan kechiktirmasdan yetkaziladi.

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining muvofiqlik sertifikati amal qilishini to'xtatib turish, tugatish yoki uni bekor qilish haqidagi qarori tashkilotga va muvofiqlik sertifikatini bergan MTSOga qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 3 ish kunidan kechiktirmasdan yetkaziladi.

Sudning muvofiqlik sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish, tugatish yoki uni bekor qilish haqidagi qarori tashkilotga va muvofiqlik sertifikatini bergan MTSOga qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

Tashkilot MTSO, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi yoki sudning muvofiqlik sertifikatining amal qilishini tugatish yoki uni bekor qilish haqidagi qarorini olgan kundan e'tiboran 3 ish kuni ichida muvofiqlik sertifikati uni bergan MTSO keyinchalik O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga Davlat reyestridan chiqarish va yo'q qilib yuborish uchun qaytarilishi shart.

56. Tashkilot MTSO yoki O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining muvofiqlik sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish, tugatish yoki uni bekor qilish haqidagi qarorlari ustidan sudga shikoyat qilishi mumkin.

57. Tashkilot muvofiqlik sertifikatining amal qilishi to'xtatib turilganda, tugatilganda yoki u bekor qilinganda sertifikatlashtirilgan menejment tizimi mavjudligiga ishora qiluvchi belgi, matnli havola va har qanday shakldagi axborotdan foydalanish va tarqatish huquqiga ega emas.

12-bob. Sertifikatlashtirilgan menejment tizimlarini davriy baholash

58. Sertifikatlashtirilgan menejment tizimlari ustidan nazorat auditori muvofiqlik sertifikatining amal qilish davrida, sertifikatlashtirishda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida muvofiqlik sertifikatini bergan MTSO tomonidan o'tkaziladi.

59. Sertifikatlashtirilgan menejment tizimlari quyidagi davriylikda nazorat auditoridan o'tkaziladi:

birinchi nazorat auditori — muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirilgan kundan boshlab 12 oydan kechikmagan muddatda;

ikkinchi nazorat auditori — birinchi nazorat auditori o'tkazilgan sanadan 12 oydan kechikmagan muddatda.

60. MTSO sertifikatlashtirilgan menejment tizim(lar)i maxsus auditorlardan o'tkazilishi uchun quyidagi keltirilgan holatlar asos bo'lishi mumkin:

menejment tizimiga nisbatan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan talablarning o'zgarishi;

sertifikatlashtirish shartlarining o'zgarishi;

shikoyat;

menejment tizimining natijadorligiga ta'sir qiluvchi boshqa holatlar.

61. O'tkazilgan audit natijalari bo'yicha muvofiqlik sertifikatini tasdiqlash, uning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish yoki uni bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin.

13-bob. Appelyatsiyalarni ko'rib chiqish

62. Manfaaddor tomonlar muvofiqlikni baholash natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Appelyatsiya kengashiga yoki bevosita sudga murojaat qilishlari mumkin.

63. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Appelyatsiya kengashi sertifikatlashtirish organining qarorlariga nisbatan noroziliklarni ko'rib chiqadi. Appelyatsiya komissiyasining tarkibi va faoliyat olib borish tartibi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining rahbari buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Appelyatsiya komissiyasi berilgan appelyatsiyani ko'rib chiqadi va qabul qilingan qaror to'g'risida ariza beruvchini yozma ravishda xabardor qiladi.

64. Manfaaddor tomonlar O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Appelyatsiya kengashi qarori bo'yicha qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat etishlari mumkin.

14-bob. Yakunlovchi qoidalar

65. MTSO berilgan va bekor qilingan muvofiqlik sertifikatlari, amal qilishi to'xtatib turilgan va tugatilgan muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik sertifikatlarini berishni rad etish holatlari hisobini yuritadi, shuningdek, har oyda O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga mazkur ma'lumotlarni taqdim qilib boradi.

66. Ariza beruvchining menejment tizimini sertifikatlashtirish bilan bog'liq hujjatlar, ma'lumotlar va yozuvlar, shu jumladan, berilgan muvofiqlik sertifikatlari, sertifikatlashtirish sohasining kengaytirish (qisqartirish), amal qilishini to'xtatib turish, tugatish va bekor qilish bo'yicha qarorlar va boshqa sertifikatlashtirish faoliyatiga tegishli ma'lumotlar berilgan muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati va yana to'liq 3 yil davomida saqlanadi.

67. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi zarurat bo'lganda, MTSOdan sertifikatlashtirish bo'yicha hujjatlar nusxalarini so'rab olishi mumkin. Bunda MTSO tashkilotni yozma ravishda xabardor qilgan holda so'ralgan sertifikatlashtirishga doir hujjatlar va ma'lumotlarning nusxalarini taqdim etadi.

68. MTSO o'z faoliyatini amalga oshirish natijasida ariza beruvchi yoki tashkilot to'g'risida olingan ma'lumotlarning sir saqlanishini ta'minlashi kerak.

69. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish
tartibi to'g'risidagi nizomga
1-ILOVA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SERTIFIKATLASHTIRISH

MILLIY TIZIMI

(menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organining
nomi va manzili,

muvofiqlikni baholash organlarining davlat
reystridagi raqami)

MUVOFIQLIK SERTIFIKATI

Sertifikatlashtirish milliy tizimi
davlat reyestrda quyidagi raqam
bilan ro'yxatdan o'tkazildi:

(milliy muvofiqlik
belgisi)

berilgan sana:

amal qilish muddati:

Muvofiqlik sertifikati menejment tizimining muvofiqligini tasdiqlaydi

(tashkilot nomi)

manzili:

qo'shimcha ma'lumot:

Menejment tizimiga qo'yilgan talab

(normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda)

belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlaydi.

va quyidagi sohalarda tatbiq etiladi:

**Menejment
tizimlarini
sertifikatlashtirish
organining
rahbari**

(imzo)

(F.I.O.)

M.O'.

Maxsus

belgilar uchun

Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish
tartibi to'g'risidagi **nizomga**
2-ILOVA

2a-jadval

Xodimlar soni	Menejment tizimlarini ishlab chiqish, joriy etish va o'qitish vaqti (kun)	Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish xarajatlari
----------------------	---	---

1 — 5	1.5	Jalb qilingan xodimlar sonidan qat'i nazar 1 ish kuni uchun bazaviy hisoblash miqdorining 2,5 baravari
6 — 10	2	
11 — 15	2.5	
16 — 25	3	
26 — 45	4	
46 — 65	5	
66 — 85	6	
86 — 125	7	
126 — 175	8	
176 — 275	9	
276 — 425	10	
426 — 625	11	
626 — 875	12	
876 — 1175	13	
1176 — 1550	14	
1551 — 2025	15	
2026 — 2675	16	
2676 — 3450	17	
3451 — 4350	18	
4351 — 5450	19	
5451 — 6800	20	
6801 — 8500	21	
8501 — 10700	22	
> 10700	Kuzatish yuqoridagi progres	

Izoh. Jadvaldagi menejment tizimlaridagi xodimlar soni doimiy sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Agar grafik chizilgan bo'lsa, chiziq pastki bandning qiymatlaridan boshlanib, har bir bandning oxirgi nuqtalarida tugashi kerak. Jadvalning boshlang'ich nuqtasi 1,5 kunga jalb qilinadigan bitta xodim bo'lishi kerak.

2b-jadval

Menejment tizimlarini joriy etish va o'qitish vaqti (kun)	Menejment tizimlarini joriy etish va o'qitish xarajatlari
10	Jalb qilingan xodimlar sonidan qat'i nazar, 1 ish kuni uchun bazaviy hisoblash miqdorining 2,5 baravari

Izoh. Menejment tizimlarini joriy etish va xodimlarni o'qitish vaqti standartlar sonidan qati nazar o'zgarishsiz qoladi.

Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomga 3-ILOVA

Menejment tizimlarini sertifikatlashtirishdan o'tkazish

SHAKLI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Ariza beruvchi	Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish uchun hujjatlar to'plamini shakllantiradi. Sertifikatlashtirish organiga menejment tizimlarini sertifikatlashtirish uchun ariza beradi.	Ariza beruvchining xohishiga ko'ra

2-bosqich	Sertifikatlashtirish organi	<p>1. Taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarning to'liqligi yuzasidan arizani quyidagicha o'rganadi:</p> <p>a) arizani ko'rib chiqadi va taqdim etilgan ma'lumotlarni tahlil qiladi;</p> <p>b) sertifikatlashtirish uchun arizani qabul qilish to'g'risida qaror qabul qiladi;</p> <p>b) hujjatlar to'liq bo'lmagan taqdirda ularni qaytaradi.</p> <p>2. Sertifikatlashtirish uchun ariza qabul qilingan holatda uni qabul qilgan kundan boshlab MTSO va ariza beruvchi o'rtasida sertifikatlashtirish to'g'risida shartnoma tuzadi.</p> <p>3. Auditorlar guruhini shakllantiradi.</p> <p>4. Birinchi bosqich auditi natijalari bo'yicha hisobot tuzadi.</p> <p>5. Ikkinchi bosqich auditi natijalari bo'yicha hisobot tuzadi.</p> <p>6. Menejment tizimlarining normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablariga nomuvofiqligi aniqlanganda, ariza beruvchiga menejment tizimlari auditi natijalari bo'yicha hisobot bilan birgalikda taqdim etiladigan nomuvofiqliklar bayonnomasini rasmiylashtiradi.</p> <p>7. Belgilangan muddatlarda nomuvofiqliklar bartaraf etilganligi haqida ma'lumot va tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmaganda sertifikatlashtirish organi ariza beruvchiga sertifikatlashtirish ishlarini tugatish to'g'risida xabarnoma yuboradi.</p> <p>8. Nazorat auditi natijalari ijobiy bo'lganda muvofiqlik sertifikatini tasdiqlash haqidagi qarorni qabul qiladi, muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtiradi.</p>	<p>3 ish kuni mobaynida</p> <p>3 ish kuni mobaynida</p> <p>1 ish kuni mobaynida</p> <p>3 ish kuni mobaynida</p> <p>10 ish kuni mobaynida</p> <p>15 ish kundan ortiq bo'lmagan muddatda</p> <p>20 ish kundan ortiq bo'lmagan muddatda</p> <p>1 ish kuni mobaynida</p> <p>3 ish kuni mobaynida</p> <p>3 ish kuni mobaynida</p>
3-bosqich	Ariza beruvchi	Ishlab chiqarishni baholash jarayonida nomuvofiqliklar aniqlanganda, nomuvofiqlikni bartaraf etadi, tasdiqlovchi hujjatlar bilan sertifikatlashtirish organiga ma'lumotlarni taqdim etadi.	25 ish kunidan oshmaydigan muddat
4-bosqich	Sertifikatlashtirish organi	Menejment tizimlari hujjatlarining tahlili yoki menejment tizimlari auditida aniqlangan nomuvofiqliklarning tegishli hisobotlarda belgilangan muddatlarda bartaraf etilmagan hollarda MTSO tomonidan muvofiqlik sertifikatini berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.	1 ish kuni mobaynida

Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi [nizomga](#)
4-ILOVA

**Menejment tizimlarini
sertifikatlashtirish organi
rahbariga**

**Menejment tizimlarini sertifikatlashtirishga (Menejment tizimlarini
sertifikatlashtirish sohasini kengaytirishga)**

ARIZA

da

(normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar)

o'rnatilgan talablarga muvofiqligi yuzasidan

(tashkiliy tuzilmaning joylashishi ko'rsatilgan holda menejment tizimining so'ralgan sohasi nomi)

menejment tizimini sertifikatlashtirishingizni so'rayman.

Menejment tizimlarini sertifikatlashtirishga talabgor bo'lgan yuridik shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar

to'liq nomi:	
qisqartirilgan nomi:	
yuqori turuvchi tashkilotning nomi, shu jumladan mazkur yuridik shaxs uning tarkibiga kirsas:	
pochta manzili:	
telefon:	
elektron pochta manzili:	
STIR:	
IFUT:	
bank rekvizitlari	bank nomi:
	bank hisobraqami:
	xizmat ko'rsatuvchi bankning MFO:
shtat birliklarining umumiy soni:	
shu jumladan	boshqaruv xodimlari:
	xizmat ko'rsatuvchi xodimlar:
	texnik xodimlar:
menejment tizimiga mas'ul bo'lgan shaxsning F.I.O., lavozimi, bog'lanish ma'lumotlari:	
Menejment tizimi haqidagi umumiy ma'lumotlar	
menejment tizimini ishlab chiqish va joriy etish sanasi:	
menejment tizimi tatbiq etiladigan mahsulot yoki xizmatlar:	
ishlab chiqarilayotgan mahsulot yoki ko'rsatilayotgan xizmatlar yuzasidan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar nomi:	
avval o'tkazilgan menejment tizimini sertifikatlashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar	menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organining nomi:
	menejment tizimlarini sertifikatlashtirishda asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning nomi:
	muvofiqlik sertifikatining blank raqami va ro'yxatga olish raqami:
	muvofiqlik sertifikati berilgan sana:
	muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati:

Ariza beruvchi

Mahsulotlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar ro'yxatini yuritish, ularni erkin muomaladan chiqarish va utilizatsiya qilish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom mahsulotlarni texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan majburiy talablarga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni aniqlash va ular to'g'risidagi ma'lumotlarning ro'yxatini yuritish, bunday mahsulotlarni erkin muomaladan chiqarish hamda utilizatsiya qilish tartibini belgilaydi.

Nizom talablari O'zbekiston Respublikasi hududida erkin muomalada bo'lgan (realizatsiya qilinadigan) mahsulotlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Mazkur Nizom sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalari, shaharsozlik normalari hamda qoidalari, ekologik normalar va qoidalarga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni aniqlash, erkin muomaladan chiqarish va utilizatsiya qilish talablariga tatbiq etilmaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

vakolatli organ — Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi yoki uning tuzilmasidagi vakolatli tashkilot;

nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar — vakolatli organlar tomonidan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar;

nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar ro'yxati — texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan majburiy talablarga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlarning elektron shaklda yuritiladigan ro'yxati (keyingi o'rinlarda — elektron ro'yxat);

mahsulot egasi (ishlab chiqaruvchi, sotuvchi va import qiluvchi) — egalik huquqi yoki boshqa huquqiy asoslarda mahsulotlarga egalik qiluvchi yuridik va jismoniy shaxs;

mahsulotlarni savdodan chaqirish — egasi tomonidan mustaqil ravishda yoki nazorat qiluvchi idoralarning talabiga binoan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni muomaladan chaqirib olish;

mahsulotlarni utilizatsiya qilish — iste'molchilar salomatligi va osoyishtaligi, hayvonlar, o'simliklar va atrof-muhitga xavf tug'diradigan hamda barcha iste'mol xususiyatlarining yo'qolishi va to'liq yaroqsizligi sababli keyinchalik boshqa maqsadlarda ishlatish yoki qayta ishlash imkoni bo'lmagan, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni utilizatsiya qilish, shuningdek, mahsulotning inson hayoti va sog'lig'iga, atrof-muhitga, hayvonot va o'simlik dunyosiga salbiy ta'sirini istisno qilishga qaratilgan harakatlar.

3. Mahsulotlar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar bilan belgilangan majburiy talablarga nomuvofiqligi tasdiqlanganda, vakolatli organ tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda ma'muriy va moliyaviy jarimalarni qo'llashdan ozod etilmaydi.

2-bob. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga mahsulotlarni nomuvofiq deb topish tartibi

4. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga mahsulotlarni nomuvofiq deb topish vakolatli organ tomonidan aniqlanadi.

5. Quyidagilar mahsulotlar tasdiqlangan talablarga nomuvofiq deb topilishi uchun asosli holatlar hisoblanadi:

muvofiqlikni baholash hujjatlari (muvofiqlik sertifikatleri, sanitariya xulosasi, sinov bayonnomalari) mavjud bo'lmaganida;

tanlab olingan namunalarning akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyalarida o'tkazilgan tekshiruv natijalari salbiy bo'lganda;

mahsulot qalbakilashtirilganda;

iste'mol qadog'i shikastlanganda;

davlat ro'yxatidan o'tkazish, sertifikatlash, muvofiqlik deklaratsiyasi va boshqalar tahlilining natijalari salbiy bo'lganda;

saqlash, tashish va sotish talablari buzilganda;

yaroqlilik muddati tugaganda;

tashqi ko'inishi va yorliqlashda ishlab chiqaruvchi korxonalar (sotuvchi) va mahsulot nomi hamda mahsulotlar (tovarlar va xizmatlarning) identifikatsiya kodi (qonunchilik belgilangan mahsulot turiga), me'yoriy hujjatlarga havolasi, ishlab chiqarilgan sanasi, tarkibi, saqlash muddatini aniqlash va (yoki) belgilashga imkonini bermaydigan tamg'lash belgilari mavjud yoki yetarli bo'lmaganda.

6. Quyidagi holatlar mahsulotlar vakolatli organ tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibga normativ-huquqiy hujjatlar talablariga nomuvofiq deb topilishi va elektron kiritilishi uchun asos bo'ladi:

akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyalarida amalga oshirilgan sinov (tadqiqot) natijalarining salbiy bo'lishi;

tashqi ko'rik natijalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlariga nomuvofiq to'g'risida rasmiylashtirilgan hujjatlarning mavjudligi;

3-bob Mahsulotlarni savdodan chaqirib olish

7. Vakolatli organ tomonidan nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni savdodan chaqirib olish choralarini ko'rish doirasida mahsulot egasiga taqdimnoma kiritiladi.

8. Tadbirkorlik subyekti taqdimnomani olganidan so'ng ko'pi bilan o'n ish kuni mobaynida nomuvofiq deb topilgan mahsulotni texnik reglamentlar talablariga muvofiqlashtirish imkoniyatini aniqlaydi va qabul qilingan qaror to'g'risida vakolatli organga yozma (elektron) shaklda xabar beradi.

9. Mahsulot nomuvofiq deb topilgan va u mazkur Nizomning 8-bandida belgilangan muddat ichida texnik reglamentlarning talablari bilan uyg'unlashtirilishi imkonini bo'lmagan holatlarda mahsulot yo'q qilinadi yoki chaqirib olinadi.

10. Tadbirkorlik subyekti nomuvofiq deb topilgan mahsulotni O'zbekiston Respublikasi sinov markazlari (laboratoriyalari) va akkreditatsiyadan o'tgan idoralarida muvofiqligini baholashni amalga oshirish yordamida texnik reglamentlarning talablari bilan uyg'unlashtirish natijasini tasdiqlashi hamda bu haqida vakolatli organni kechi bilan 3 ish kuni muddatda xabardor qiladi.

11. O'zbekiston Respublikasida tegishli akkreditatsiya sohasi bo'lgan sinov markazlari (laboratoriyalar) va (yoki) akkreditatsiyadan o'tgan idoralar mavjud bo'lmaganda, tadbirkorlik subyekti xorijiy sinov markazlari (laboratoriyalar) va (yoki) akkreditatsiyadan o'tgan idoralarga murojaat qilish huquqiga ega.

12. Tadbirkorlik subyekti taqdimnoma olganidan so'ng quyidagilarni ta'minlashi shart:

nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarning olib kirilishini va (yoki) muomalasini zudlik bilan to'xtatish;

nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni taqdimnoma olingan kundan boshlab 7 ish kundan kechiktirmasdan muomaladan chaqirib olishi;

taqdimnoma olganidan so'ng 7 ish kundan kechiktirmasdan, xaridorlarni (iste'molchilarni) nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar to'g'risida, shu jumladan, buyurtma olingan kundan boshlab 7 ish kundan kechiktirmasdan ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilish choralarini ko'rish;

nomuvofiq deb topilgan mahsulotga nisbatan ko'rilgan choralar to'g'risida vakolatli organni yozma (elektron) ravishda xabardor qilishi, shu jumladan:

taqdimnoma olingan kundan boshlab 7 ish kundan kechiktirmasdan, nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar tadbirkorlik subyektlaridan mahsulot realizatsiyadan chaqirib olinganligi to'g'risida xabardor qilish;

taqdimnoma olingan kundan boshlab 10 ish kundan kechiktirmasdan nomuvofiq deb topilgan mahsulotni, u ortib jo'natilgan barcha tadbirkorlik subyektlaridan muomaladan chaqirib (qaytarib) olish.

13. Nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish holatlari vakolatli organ tomonidan aniqlanganda, mahsulotni qaytarib olish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

texnik reglamentlar va standartlarda belgilangan xavfsizlik talablariga nomuvofiq bo'lgan va salomatlik uchun jiddiy xavf tug'diradigan;

salomatlik uchun jiddiy xavf tug'diradigan mahsulotning kelib chiqishini kuzatish imkoniyati (mahsulotning kuzatiluvchanligini ta'minlovchi hujjatlar) mavjud bo'lmaganda.

14. Texnik reglamentlarning talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotni qaytarib olish ikki nusxada ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq, texnik reglamentlarning talablariga nomuvofiq bo'lgan mahsulotni chaqirib olish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Dalolatnomaning bir nusxasi savdo obyektining egasi yoki sotuvchiga taqdim etiladi, ikkinchi nusxasi ishlab chiqaruvchida yoki ishlab chiqaruvchining vakolatli vakilida saqlanadi.

15. Chaqirib olingan mahsulot uni qayta ishlash yoxud utilizatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilingunga qadar ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili), yetkazib beruvchi, import qiluvchi yoki sotuvchining hududida (alohida tartibda), unga tegish mumkin bo'lmaydigan sharoit ta'minlanib aniq ko'rsatilgan joyda, "Chaqirib olingan, realizatsiya qilinmaydi" ogohlantirish yozuvi ko'rsatilgan holda saqlanadi.

16. Agarda texnik reglamentlarning talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulot realizatsiya qilingan taqdirda, ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili), yetkazib beruvchi, import qiluvchi 3 ish kuni mobaynida mahsulotni qaytarish usullari, qabul qilish punktlarining joylashgan joyi hamda mahsulotning chaqirib olinishi natijasida yuzaga kelgan zararlarni qoplash bo'yicha batafsil axborot olish uchun ularning mas'ul shaxslar to'g'risida aloqa ma'lumotlari ko'rsatilgan holda respublika davriy bosma nashriyotlari va (yoki) tele-, radiokanallar orqali mahsulotning iste'molchilardan chaqirib olinishi to'g'risida xabardor qiladi.

17. Ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili), yetkazib beruvchi (import qiluvchi) va sotuvchi chaqirib olingan mahsulotni samarali qabul qilib olishning ta'minlanishi uchun o'zaro ish olib boradi.

18. Ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili), yetkazib beruvchi (import qiluvchi) va sotuvchi texnik reglamentlarning talablariga nomuvofiq bo'lgan mahsulotni iste'molchidan qabul qilib oladi hamda ikki nusxada ushbu Nizomga [2-ilovaga](#) muvofiq shakl bo'yicha dalolatnoma tuziladi, texnik reglamentlarning talablariga nomuvofiq deb topilib, chaqirib olingan mahsulotni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiradi. Dalolatnomaning bir nusxasi iste'molchiga taqdim etiladi, ikkinchi nusxasi ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili) va/yoki sotuvchida saqlanadi.

19. Ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, yetkazib beruvchi (import qiluvchi) texnik reglamentlarning talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulot chaqirib va (yoki) qaytarib olingandan keyin 1 ish kuni mobaynida mahsulotni chaqirib va (yoki) qaytarib olish bo'yicha ko'rilgan choralar, ularning natijalari to'g'risida vakolatli organi xabardor qiladi.

20. Texnik reglamentlarning talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotni chaqirib va (yoki) qaytarib olish holatlari to'g'risidagi axborot vakolatli organning rasmiy saytida joylashtiriladi.

4-bob. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni utilizatsiya qilish tartibi

21. Nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni utilizatsiya qilish choralarini ko'rish bo'yicha vakolatli organ tomonidan mahsulot egasiga taqdimnoma kiritiladi.

22. Tadbirkorlik subyekti tomonidan taqdimnoma olinganidan so'ng quyidagilar ta'minlanishi shart:

nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar olib kirilishini va (yoki) muomalasini zudlik bilan to'xtatish;

nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni taqdimnoma olingan kundan boshlab 7 ish kunidan kechiktirmasdan muomaladan chaqirib olish;

xaridorlarni (iste'molchilarni) taqdimnoma olganidan so'ng 7 ish kunidan kechiktirmasdan nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar to'g'risida, jumladan, buyurtma olingan kundan boshlab 7 ish kunidan kechiktirmasdan ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilish bo'yicha choralar ko'rish;

yo'q qilingan kundan boshlab 3 ish kunidan kechiktirmasdan utilizatsiya qilishning usuli, joyi, vaqti va shartlarini ko'rsatgan holda nomuvofiq deb topilgan mahsulotni utilizatsiya qilish bo'yicha qaror qabul qilish;

tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish bilan 5 ish kunidan kechiktirmasdan utilizatsiya qilishning tanlangan usuli, joyi, vaqti va shartlarini ko'rsatgan holda nomuvofiq deb topilgan mahsulotni utilizatsiya qilish;

olib chiqilgan va (yoki) qaytarilgan kundan boshlab 5 ish kunidan kechiktirmasdan tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgan holda nomuvofiq deb topilgan mahsulotni O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish yoki qaytarish.

23. Nomuvofiq deb topilgan mahsulotning egasi mustaqil ravishda yoki davlat nazorati idoralarining taqdimnomasi asosida mahsulotni muomaladan chaqirib olishi hamda ularning vaqtincha saqlanishini ta'minlashi shart.

24. Agar nomuvofiq deb topilgan mahsulot egasi uni muomaladan chaqirib olish bo'yicha choralar ko'rmagan taqdirda, davlat nazorati idoralari bunday mahsulotni muomaladan qaytarib olish to'g'risida va uni keyinchalik utilizatsiya qilish to'g'risida ariza bilan sudga murojaat qiladi.

25. Nomuvofiq deb topilgan mahsulotni vaqtinchalik saqlash shartlari, uni utilizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan muddat mobaynida bunday mahsulotga ijozatsiz tegilishi imkoniyati istisno qilinishi kerak.

26. Vaqtincha saqlashda bo'lgan nomuvofiq deb topilgan mahsulotning hisobga olinishi sifatli va xavfsiz mahsulotni hisobga olishdan alohida, qog'oz va elektron shaklda olib boriladi.

27. Muomaladan chaqirib olingan nomuvofiq deb topilgan mahsulot utilizatsiya qilinishi mumkinligini aniqlash maqsadida barcha holatlarda ushbu mahsulotning ekspertizasi o'tkaziladi.

28. Ekspertiza o'tkazmasdan faqat quyidagi nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar yo'q qilinishi mumkin:

organoleptik ko'rsatkichlari bo'yicha nomuvofiq deb topilgan;

taqdim etilgan axborotlarga nomuvofiq bo'lgan;

belgilangan yaroqlilik muddatlari mavjud bo'lmagan yoki yaroqlilik muddati o'tgan;

ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilangan talablarga, texnik reglamentlarga, standartlashtirish hujjatlariga, texnik hujjatlarga nomuvofiq bo'lgan.

29. Ekspertiza davlat nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar tomonidan o'tkaziladi.

30. Ekspertiza bunday mahsulotning tovarga ilova qilinadigan hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligi, ularda ko'rsatilgan ma'lumot ko'rsatkichlarning qo'yilgan talablariga muvofiqligi, qadoqlanish, tamg'alanish holatini baholash, tashqi ko'zdan kechirish va laboratoriya tekshiruvlarini (sinovlar) o'z ichiga oladi.

31. Ekspertiza tayinlangan nomuvofiq deb topilgan mahsulotning namunalari (proba) bunday mahsulot bo'yicha laboratoriya tekshiruvlari (sinovlari) o'tkazishning egasini ishtirokida quyidagilar tomonidan tanlanishi mumkin:

davlat nazorati idorasining vakolatli vakili;

belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tkazilgan muvofiqlikni baholash idoralari vakillari (ekspertizani o'tkazish uchun mahsulot egasining mustaqil ravishda murojaat qilingan).

32. O'tkazilgan ekspertizaning natijalari bo'yicha nomuvofiq deb topilgan mahsulotning belgilangan tartibda keyingi yo'q qilinishi mumkinligi to'g'risida xulosa rasmiylashtiriladi.

33. Nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar uning egasi tomonidan yoki mahsulot egasi utilizatsiya ishlarini bajarishni shartnoma asosida topshiradigan tashkilotlar tomonidan komissiya ishtirokida utilizatsiya qilinadi. Komissiya tarkibiga mahalliy ijro etuvchi hokimiyati organlari, Inspeksiya, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati, soliq organlarining hamda jamoatchilik vakillari kiradi.

34. Nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni utilizatsiya qilish joyini belgilashda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli davlat organining utilizatsiya qilishni amalga oshirish usuli bo'yicha xulosasi inobatga olinadi.

35. Tarkibida ifloslantiruvchi moddalarni o'z ichiga olgan nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar yo'q qilinishidan oldin ularni har qanday ishlatish va qo'llash uchun yaroqsiz qiluvchi, shuningdek, ularning insonlar, hayvonlar va atrof-muhitga salbiy ta'sirini istisno qiluvchi holatga keltirilishi lozim.

36. Nomuvofiq deb topilgan mahsulot atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha normativ va texnik hujjatlarning talablariga rioya qilgan holda texnik jihatdan qulay har qanday usulda utilizatsiya qilinadi.

37. Ekspertiza natijalari bo'yicha uning insonlar va hayvonlarning kasalliklari yoki zaharlanishini yuzaga keltirish va tarqatish xavfini, shuningdek, atrof-muhitni ifloslantirish xavfini tug'dirishi aniqlanib, nomuvofiq deb topilgan mahsulot bunday mahsulotni utilizatsiya qilish to'g'risida taqdimnoma chiqargan davlat nazorati idorasining vakili ishtirokida utilizatsiya qilinadi, bunda ushbu vakilning ishtiroki videoaloqa orqali masofadan turib ham ta'minlanishi mumkin bo'ladi.

38. Nomuvofiq deb topilib utilizatsiya qilish uchun qaytarilgan mahsulotlar egasi bo'lgan tadbirkorlik subyektini vakolatli organning so'roviga binoan uni 5 ish kunidan kechiktirmasdan, majburiy tartibda tanlangan utilizatsiya usuli, joyi, vaqti va utilizatsiya qilish shartlari ko'rsatilgan tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgan holda nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar yo'q qilinganligi to'g'risida, nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqib ketilganligi yoki uni qaytarib berilganligi to'g'risida xabardor qilishi shart.

39. Muomaladan chaqirib olingan nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni utilizatsiya qilish usullari va shartlari qonunchilikka, xalqaro shartnomalarga va (yoki) qonunchilik hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik subyektini tomonidan belgilanadi.

40. Nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni muomaladan chaqirib olish (qaytarib olish), qaytarib berish, saqlash, tashish (olib chiqish), utilizatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlar taqdimnoma berilgan yoki choralar ko'rish uchun nomuvofiq deb topilgan mahsulot qaytarib berilgan tadbirkorlik subyektini mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

5-bob. Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash va metrologiya sohasidagi qonunchilik talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar ro'yxatini yuritish tartibi

41. Davlat nazorati natijalariga asosan texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash va metrologiya sohasidagi qonunchilik talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlar vakolatli organ tomonidan ro'yxatga olinadi va elektron dasturga joylashtiriladi.

42. Mahsulotlar texnik reglamentlar va standartlar talablariga nomuvofiq deb topilgan hollarda, vakolatli organ tomonidan 1 ish kuni muddatda, kamchiliklar to'g'irlangunga qadar ushbu mahsulotlar, shuningdek, ularni ishlab chiqaruvchilar sotuvi vaqtincha to'xtatib turiladigan mahsulotlar ro'yxatiga, iste'molchilarning salomatligi va osoyishtaligiga xavf tug'diradigan xavfsizlik talablari buzilgan holatlarda sotish taqiqlangan mahsulotlar ro'yxatiga kiritiladi.

43. Texnik reglamentlar va standartlar talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar ro'yxatiga quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

mahsulot (tovar) nomi;

ishlab chiqaruvchi korxonasi nomi;

ishlab chiqaruvchi STIRi;

ishlab chiqaruvchi korxonasi rasmiy vakilining STIRi;

ishlab chiqaruvchi mamlakat nomi;

mahsulot to'pi (partiyasi);

tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi kod raqami;

mahsulot summasi;

mahsulot ishlab chiqarilgan vaqt (kun, oy, yil);

mahsulotning egasi to'g'risida ma'lumotlar;

nomuvofiq bo'lgan mahsulot aniqlangan savdo obyektining nomi va manzili;

mahsulotda aniqlangan nomuvofiqliklar;

muvofiqlik sertifikatini va sinov bayonnomalari mavjudligi to'g'risidagi axborot;

mahsulot importiga taqiq qo'yilgan sana;

mahsulot importiga qo'yilgan taqiqning tugash sanasi.

44. Texnik reglamentlar ijrosini ta'minlashda mas'ul etib belgilangan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan tasdiqlangan tartibda mahsulotlarni nomuvofiqligini aniqlanganda vakolatli organga mazkur nizomning **48-bandida** nazarda tutilgan ma'lumotlar kiritadi.

45. Vakolatli organ tegishli ma'lumotlar asosida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga nomuvofiqlik aniqlangan kunning o'zida ro'yxatga oladi.

46. Mazkur ro'yxatga kiritilgan import bilan bog'liq nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlar Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasiga real vaqt rejimida elektron tarzda taqdim etiladi.

47. Texnik reglamentlar, standartlar va qonun hujjatlari bilan belgilangan majburiy talablarga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar ro'yxatiga kiritilgan mahsulotlarning ular ro'yxatga olingan kundan boshlab olti oy muddatga ro'yxatdan chiqarilishi, nomuvofiq deb topilgan tegishli mahsulotni ishlab chiqaruvchi (uning rasmiy vakili) tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi, erkin muomalaga chiqarilishi taqiqlanadi.

48. Tadbirkorlik subyektlari mazkur Nizomda ko'rsatilgan olti oylik taqiq muddatidan so'ng nomuvofiq deb topilgan mahsulotning yangi to'plarini amaldagi texnik reglament va standartlar talablari asosida sinovlardan o'tkazib, mahsulotning muvofiqligi tasdiqlangandan so'ng tegishli hujjatlar (sinov bayonnomalari, foto va video materiallar, texnologik jarayon hujjatlari) bilan vakolatli organga murojaat etadi.

49. Taqdim etilgan hujjatlarni o'rganish jarayonida zaruratga ko'ra korxonaga murojaatiga asosan vakolatli organ tomonidan joyiga chiqqan holda ishlab chiqarish sharoitlari o'rganiladi.

50. Mahsulot egasi sotishni taqiqlash to'g'risidagi qarordan norozi bo'lgan taqdirda, qonunchilikda belgilangan tartibda sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

6-bob. Mahsulotlarni olib kirishni/savdoga chiqarishni qayta tiklash tartibi

51. Nomuvofiq deb topilgan mahsulotni ishlab chiqaruvchi yoki O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqaruvchining manfaatlarini qonunchilikka muvofiq ifodalash vakolati berilgan shaxs yoki import qiluvchi (keyingi o'rinlarda — tadbirkorlik subyekti) nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni texnik reglamentlar talablariga rioya etilishi va majburiy bo'lgan standartlar talablariga muvofiqlashtirish imkoniyati aniqlanganidan so'ng texnik reglamentlar talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni muomalaga chiqarishga yo'l qo'ymaslik maqsadida tuzatish choralari ko'rganda hamda texnik reglament va amaldagi standartlar talablari asosida sinovlardan o'tkazib, mahsulotning muvofiqligi tasdiqlangandan so'ng tegishli hujjatlar (sinov bayonnomalari, foto va video materiallar, texnologik jarayon hujjatlari) bilan ushbu mahsulotlarni olib kirishni va muomalaga chiqarishni tiklash imkoniyatini ko'rib chiqish uchun vakolatli organga murojaat qilishi mumkin.

52. Vakolatli organ tomonidan taqdim etilgan hujjatlar to'plami qonunchilikda belgilangan muddatlarda tahlil qilinadi hamda mahsulotlarni olib kirishni va muomalaga chiqarishni tiklash yuzasidan qabul qilingan qaror to'g'risida ariza beruvchini xabardor qiladi.

53. Taqdim etilgan mahsulot uchun texnik reglamentlarda va talablariga rioya etilishi majburiy bo'lgan standartlarda sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik talablar mavjud bo'lgan holda, vakolatli organ tomonidan sanitariya-epidemiologiya va veterinariya ekspertizalarini, fitosanitariya nazorati yoki ekologik ekspertizadan o'tkazish zarurligini belgilaydi.

Tadbirkorlik subyekti davlat sanitariya nazorati idoralaridan, davlat veterinariya nazorati idoralaridan va o'simliklar karantini bo'yicha davlat idoralaridan, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish davlat idoralaridan barcha zarur xulosalarni olishni va vakolatli organga taqdim etishni ta'minlaydi.

Sinovlarni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar ariza beruvchi tomonidan qoplanadi.

54. Hujjatlar to'plamini o'rganishning natijalari ijobiy bo'lgan holda ariza beruvchi vakolatli organ tomonidan mahsulotlarni olib kirish va muomalaga chiqarish mumkinligi to'g'risida xabardor qilinadi.

55. Vakolatli organ tuzatish choralari samaradorligini baholash uchun ko'rsatilgan ro'yxatga kiritilmagan qo'shimcha ma'lumotlarni so'rashga haqlidir.

7-bob. Korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va muomalaga chiqarishni qayta tiklash

56. Korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va muomalaga chiqarishni qayta tiklash to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish uchun quyidagi ma'lumotlar taqdim etiladi:

texnik reglamentlar talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarning muomalaga chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ishlab chiqaruvchi tomonidan bajarilgan tuzatish choralari to'g'risidagi. Tuzatish choralari to'g'risidagi ma'lumotlar o'z ichiga tadbirkorlik subyekti tomonidan ko'rilgan cheklash choralari qo'llash uchun asos hisoblangan ko'rsatkichlar bo'yicha belgilangan talablarga muvofiq bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarilishini kafolatlaydigan aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqilgan bo'lishi kerak;

cheklash choralari ko'rilgan, shu jumladan, buzilgan ko'rsatkichlar bo'yicha mahsulotlarga nisbatan texnik reglamentlar talablari bilan belgilangan barcha xavfsizlik ko'rsatkichlari bo'yicha akkreditatsiyadan o'tgan sinov

laboratoriyalarida (markazlarida) o'tkazilgan sinov natijalari to'g'risida. Mahsulotlarning sinovlari, bajarilgan tuzatish choralarining samaradorligini tasdiqlash maqsadida tegishli tuzatish ishlari bajarilgandan so'ng yangi ishlab chiqarilgan mahsulotlar to'pida o'tkazilishi shart. Agar cheklash choralarini qo'llash uchun asos sifatida mikrobiologik xavfsizlik ko'rsatkichlari bo'yicha nomuvofiqlik xizmat qilgan hollarda, mahsulot ishlab chiqarilganidan so'ng ham uning yaroqlilik muddati tugashida o'tkazilishi kerak;

mahsulot texnik reglamentlar talablariga majburiy muvofiqligini tasdiqlash amalga oshirilishi to'g'risida. Majburiy muvofiqligini tasdiqlash to'g'risidagi axborot tegishli mahsulotning muvofiqligini baholash (tasdiqlash) hujjatlarining tasdiqlangan nusxasi taqdim etiladi;

agar cheklash choralarini kiritish uchun mikrobiologik xavfsizlik ko'rsatkichlarining nomuvofiqligi asos bo'lgan bo'lsa yoxud tuzatish chora-tadbirlarining o'tkazilishini instrumental nazorat bilan tasdiqlash imkoniyati bo'lmasa, ishlab chiqarish (tayyorlash), saqlash, tashish (transportda tashish) jarayonlarining xavfsiz mahsulotning muomalaga chiqarilishini ta'minlaydigan talablarga ishlab chiqarish (tayyorlash), saqlash, tashish (transportda tashish) jarayonlarining muvofiqligi to'g'risida. Axborot davlat nazorati (tekshiruv) idorasining hududiy bo'linmasi tomonidan o'tkazilgan nazorat (tekshiruv) tadbiri, tekshiruvi, ekspertizasi va boshqalar natijalari bo'yicha tasdiqlangan ijobiy xulosasi taqdim etiladi;

tamg'ani belgilangan talablarga muvofiqlashtirilganligi to'g'risidagi cheklash choralarini qo'llash uchun mahsulot to'g'risida ishonchli ma'lumotlarni taqdim etilishi qismida tamg'alanish bo'yicha nomuvofiqlik xizmat qilgan bo'lsa tamg'a bo'yicha ko'rilgan tuzatish choralari to'g'risidagi ma'lumot, shuningdek, ishlab chiqaruvchi tomonidan tasdiqlangan tamg'aning namunasi (maketi) bilan taqdim etiladi;

texnologik hujjatlarga o'zgartirishlar kiritilganligi to'g'risidagi, agar ishlab chiqaruvchi tomonidan mahsulot tarkibiga kiruvchi mahsulot komponentlarini, uni ishlab chiqarish texnologiyasini, nomlanishi qismida mahsulot tamg'asini, tarkibini, yaroqlilik muddatini, ozuqaviy qiymat ko'rsatkichlarini, geni modifikatsiyalangan organizmlarning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zgartirish (chiqarib tashlash) to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda. Texnologik hujjatlarga nisbatan qo'llangan tuzatish choralari to'g'risidagi axborot texnologik hujjatlarni (texnikaviy shartlar, texnologik yo'riqnoma, retseptura va boshqa) tasdiqlangan nusxalari taqdim etiladi.

8-bob. O'zbekiston Respublikasi hududiga import mahsulotlarning olib kirilishi va muomalaga chiqarilishini qayta tiklash uchun import qiluvchining harakatlar algoritmi

57. Mahsulotni import qiluvchi O'zbekiston Respublikasi hududida sinovlarni o'tkazish maqsadida mahsulotlar to'pini olib kirishga ruxsat olish uchun vakolatli organga murojaat qiladi. Murojaatga texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni muomalaga chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ishlab chiqaruvchi tomonidan amalga oshirilgan tuzatish choralari to'g'risidagi axborotlar va mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi hududidagi belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tkazilgan laboratoriya (markaz) tomonidan mahsulotlarni xavfsizlik ko'rsatkichlari bo'yicha taqdim etilgan tekshirish natijalari ilova qilinadi.

58. Vakolatli organ taqdim etilgan materiallarni ko'rib chiqadi, import qiluvchi sinovlarni O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkazish uchun mahsulotlar to'pini olib kirishi mumkinligi to'g'risida xabardor qilinadi.

59. Import qiluvchi sinovlarni O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkazish uchun mahsulotlar to'pini olib kirgan paytdan boshlab mahsulotga tegishli hujjatlarni taqdim etgan holda 2 ish kuni mobaynida olib kirilgan mahsulotlar to'g'risida vakolatli organni xabardor qiladi.

60. Sinovlar o'tkazilganidan so'ng, import qiluvchi mahsulotlarni olib kirilishini va muomalaga chiqarilishini qayta tiklash imkoniyatini ko'rib chiqilishi yuzasidan vakolatli organga murojaat qiladi.

61. Tuzatish choralarining samaradorligini tasdiqlash uchun import qiluvchi korxonalar ishlab chiqarilgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi va muomalaga chiqarilishini qayta tiklashga asos bo'luvchi hujjatlarni vakolatli organga taqdim etadi.

9-bob. Yakunlovchi qoidalar

62. Mahsulotlarni texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash, ularning ro'yxatini yuritish, erkin muomaladan chiqarish, utilizatsiya qilish ushbu Nizomga [3-ilovaga](#) muvofiq sxema bo'yicha yuritiladi.

63. Vakolatli organ nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar ro'yxatini quyidagi ma'lumotlar asosida yuritadi:

texnik reglamentlar ijrosini ta'minlashda mas'ul etib belgilangan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan aniqlangan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga, shu jumladan, texnik reglamentlar talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

Sog'liqni saqlash vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlar.

Mazkur bandeda keltirilgan idoralar tomonidan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga har oyda keyingi oyning 5 sanasiga qadar Nizomga [4-ilovaga](#) muvofiq ma'lumotlarni elektron ko'rinishda taqdim etadi.

64. Vakolatli organ uch ish kuni muddatda o'zining rasmiy veb-sayti yoki ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali mahsulotlarda aniqlangan nomuvofiqliklar to'g'risida jamoatchilikni va iste'molchilarni xabardor qiladi.

65. Vakolatli organga taqdim etilgan axborot va hujjatlarning haqqoniyligi va to'g'riligi uchun ularni taqdim etgan vakolatli davlat organlari javobgar hisoblanadi.

66. Vakolatli organ taqdim etilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi va ro'yxatga to'g'ri kiritilishi uchun javobgar hisoblanadi.

67. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Mahsulotlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar ro'yxatini yuritish, ularni erkin muomaladan chiqarish va utilizatsiya qilish tartibi to'g'risidagi
nizomga
1-ILOVA

Texnik reglamentlarning talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotni qaytarib olish

DALOLATNOMASI

Nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar qaytarib olingan joy

Ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchining vakolatli shaxsi), yetkazib beruvchi (import qiluvchi) _____

(ishlab chiqaruvchi /import qiluvchi F.I.O. lavozimi, manzili)

_____ texnik reglamentlar talablariga asosan

(Texnik reglament nomi)

nomuvofiq deb topilgan ushbu mahsulotlarni olib qo'yish _____.

(mahsulot nomi, seriya raqami)

Bunda texnik reglament talablariga nomuvofiq bo'lgan mahsulotlar soni _____.

T/r	Texnik reglamentlar talablariga nomuvofiq bo'lgan mahsulot nomi va MXIK kodi (qonunchilik belgilangan mahsulot turiga)	To'p raqami	Mahsulotni ishlab chiqargan davlat	To'p o'lchami	Qaytarib olingan mahsulot miqdori (dona/kg)
1	2	3	4	5	6

(Ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchining vakolatli shaxsi), yetkazib beruvchi (import qiluvchi))

(sana) _____ (imzo) _____

(Savdo obyekti yoki sotuvchining F.I.O.)

(sana) _____ (imzo) _____

Mahsulotlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar ro'yxatini yuritish, ularni erkin muomaladan chiqarish va utilizatsiya qilish tartibi to'g'risidagi

**Texnik reglamentlarning talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotni qabul qilish
va topshirish**

DALOLATNOMASI

Nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar qabul qilingan joy

Texnik reglament talablariga nomuvofiq bo'lgan mahsulotlarni qabul qilishning boshlanish vaqti ____

Texnik reglament talablariga nomuvofiq bo'lgan mahsulotlarni qabul qilishning tugash vaqti _____

Qabul qilish belgilangan muddatni buzgan holda amalga oshirilganda

(agar bo'lsa)

Joyi _____

(kechiktirish sabablari)

Qabul qilish

(mahsulotlarning keltirilishi va yo'q qilinishi vaqti)

Ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchining vakolatli shaxsi), yetkazib beruvchi sotuvchi (import qiluvchi) vakili

(F.I.O, lavozimi manzili)

Texnik reglament talablariga nomuvofiq bo'lgan quyidagi mahsulotlar qaytarib olindi

(mahsulot nomi, seriyasi va ishlab chiqarilgan sanasi)

Iste'molchi vakili _____

(F.I.O.)

asosida

(texnik reglamentlar nomi)

Bunda texnik reglament talablariga nomuvofiq mahsulotlar umumiy soni _____.

T/r	Texnik reglament talablariga nomuvofiq bo'lgan mahsulot nomi va MXIK kodi (qonunchilik belgilangan mahsulot turiga)	To'p raqami	Mahsulotni ishlab chiqargan davlat	To'p o'lchami	Qaytarib olingan mahsulot miqdori (dona/kg)
1	2	3	4	5	6

(Ishlab chiqaruvchi (ishlab chiqaruvchining vakolatli shaxsi),
yetkazib beruvchi (import qiluvchi))

____ (sana) _____ (imzo) _____

Mahsulotlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar ro'yxatini yuritish, ularni erkin muomaladan chiqarish va utilizatsiya qilish tartibi to'g'risidagi
nizomga
3-ILOVA

Texnik reglamentlar, standartlar va boshqa qonunchilik talablariga mahsulotlarni nomuvofiqligini aniqlash va ularni ro'yxatini yuritish, erkin muomaladan chiqarish va utilizatsiya qilish tartibi

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Vakolatli organ	Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga mahsulotni nomuvofiqligi aniqlanadi.	Doimiy
2-bosqich	Vakolatli organ	Nomuvofiq deb topilgan mahsulotni savdodan chaqirib olish choralari ko'rish yuzasidan mahsulot egasiga taqdimnoma kiritiladi.	Doimiy
3-bosqich	Tadbirkorlik subyekti	Taqdimnomani olgandan so'ng nomuvofiq deb topilgan mahsulotni texnik reglamentlar talabiga muvofiqlashtirish imkoniyatini aniqlash, qabul qilingan qaror to'g'risida vakolatli idoraga yozma (elektron) shaklda xabar beradi.	10 ish kuni muddatda
4-bosqich	Tadbirkorlik subyekti	Nomuvofiq deb topilgan mahsulotning O'zbekiston Respublikasi sinov markazlari (laboratoriyalari) va akkreditatsiyadan o'tgan idoralarda muvofiqligini baholash yordamida texnik reglamentlarning talablari bilan uyg'unlashtirish natijasini tasdiqlaydi hamda bu haqida vakolatli organi xabardor qiladi.	3 ish kuni muddatda
5-bosqich	Tadbirkorlik subyekti	Nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar olib kirilishini va (yoki) muomalasini zudlik bilan to'xtatadi hamda nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni muomaladan chaqirib oladi.	7 ish kuni muddatda
6-bosqich	Tadbirkorlik subyekti	Xaridorlarni (iste'molchilarni) nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar to'g'risida ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilish bo'yicha choralar ko'radi.	7 ish kuni muddatda
7-bosqich	Tadbirkorlik subyekti	Nomuvofiq deb topilgan mahsulotga nisbatan ko'rilgan choralar to'g'risida vakolatli idorani yozma (elektron) ravishda xabardor qiladi, shu jumladan: taqdimnoma olingan kundan boshlab nomuvofiq deb topilgan mahsulot tadbirkorlik subyektlaridan realizatsiyadan chaqirib olinishi to'g'risida xabardor qiladi; taqdimnoma olingan kundan boshlab nomuvofiq deb topilgan mahsulotni u ortib jo'natilgan barcha tadbirkorlik subyektlaridan muomaladan chaqirib (qaytarib) olishadi.	10 ish kuni muddatda
8-bosqich	Vakolatli organ	Nomuvofiq deb topilgan mahsulotni utilizatsiya qilish choralari ko'rish yuzasidan mahsulot egasiga taqdimnoma kiritadi.	Doimiy
9-bosqich	Tadbirkorlik subyekti	Nomuvofiq deb topilgan mahsulotni olib kirilishini va (yoki) muomalasini zudlik bilan to'xtatish va nomuvofiq deb topilgan mahsulotlarni taqdimnoma olingan kundan boshlab muomaladan chaqirib oladi; olib chiqilgan va (yoki) qaytarilgan kundan boshlab besh ish kundan kechiktirmasdan tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish bilan nomuvofiq deb topilgan mahsulotni O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqadi yoki uni qaytaradi.	7 ish kuni muddatda

10-bosqich	Tadbirkorlik subyeksi	Xaridorlarni (iste'molchilarni) taqdimnoma olganidan so'ng nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar to'g'risida ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilish bo'yicha choralar ko'radi.	7 ish kuni muddatda
11-bosqich	Tadbirkorlik subyeksi	Nomuvofiq deb topilgan mahsulotni utilizatsiya qilish bo'yicha qaror qabul qiladi.	3 ish kuni muddatda
12-bosqich	Tadbirkorlik subyeksi	Tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish bilan utilizatsiya qilishning tanlangan usuli, joyi, vaqti va shartlarini ko'rsatish bilan nomuvofiq deb topilgan mahsulotni yo'q qiladi.	5 ish kuni muddatda
13-bosqich	Vakolatli organ	Agar nomuvofiq deb topilgan mahsulot egasi uni muomaladan chaqirib olish bo'yicha choralar ko'rmagan taqdirda, mahsulotni muomaladan qaytarib olish to'g'risida va uni keyinchalik utilizatsiya qilish to'g'risida ariza bilan sudga murojaat qiladi.	Doimiy
14-bosqich	Vakolatli organ	Muomaladan chaqirib olingan nomuvofiq deb topilgan mahsulotni utilizatsiya qilish mumkinligini aniqlash maqsadida barcha holatlarda uni ekspertizadan o'tkazadi.	Normativ hujjatda belgilangan muddatda
15-bosqich	Vakolatli organ	O'tkazilgan ekspertiza natijalari bo'yicha bunday mahsulotning keyingi yo'q qilinishi mumkinligi to'g'risida xulosa rasmiylashtiradi.	2 ish kuni muddatda
16-bosqich	Vakolatli organlar, Tadbirkorlik subyeksi	Nomuvofiq deb topilgan mahsulotni uning egasi tomonidan yoki mahsulot egasi shu ishlarni bajarishni shartnoma bo'yicha topshiradigan tashkilotlar tomonidan komissiya ishtirokida utilizatsiya qiladi.	Doimiy
17-bosqich	Vakolatli organ	Davlat nazorati natijalariga asosan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ro'yxatga oladi va elektron dasturga joylashtiriladi.	1 ish kuni muddatda
18-bosqich	Vakolatli organ	Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar ro'yxatiga kiritilgan mahsulotlarni ro'yxatga olingan kundan boshlab olti oy muddatga ro'yxatdan chiqarish, nomuvofiq deb topilgan tegishli mahsulotni ishlab chiqaruvchi (uning rasmiy vakili) tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishi, erkin muomalaga chiqarishni taqiqlaydi.	1 ish kuni muddatda
19-bosqich	Tadbirkorlik subyeksi	Nomuvofiq deb topilgan tegishli mahsulotni yangi to'plarini amaldagi texnik reglament va standartlar talablari asosida sinovlardan o'tkazib, mahsulotning muvofiqligi tasdiqlangandan so'ng tegishli hujjatlar (sinov bayonnomasi, foto, video materiallar, texnologik jarayon hujjatlari) bilan vakolatli organga murojaat etadi.	Doimiy
20-bosqich	Tadbirkorlik subyeksi	Mahsulotni import qiluvchi O'zbekiston Respublikasi hududida sinovlarni o'tkazish uchun mahsulotlar to'pini olib kirishga ruxsat olish uchun vakolatli organga murojaat qiladi.	Doimiy
21-bosqich	Tadbirkorlik subyeksi	Vakolatli idora taqdim etilgan materiallarni ko'rib chiqadi, import qiluvchi sinovlarni O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkazishi uchun mahsulotlar to'pini olib kirishi mumkinligi to'g'risida xabardor qiladi.	Doimiy
22-bosqich	Tadbirkorlik subyeksi	Import qiluvchi sinovlarni O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkazish uchun mahsulot to'pini olib kirgan paytdan boshlab ilova hujjatlarini taqdim etib mahsulotlarni olib kirganligi to'g'risida vakolatli organni xabardor qiladi.	2 ish kuni muddatda
23-bosqich	Tadbirkorlik subyeksi	Sinovlar o'tkazilganidan so'ng, import qiluvchi mahsulotlarni olib kirilishi va muomalaga chiqarilishi, qayta tiklash imkoniyatini ko'rib chiqilishi yuzasidan vakolatli organga murojaat qiladi.	Doimiy

Mahsulotlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar ro'yxatini yuritish, ularni

Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga, shu jumladan, texnik reglamentlar talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi	mahsulot (tovar) nomi; ishlab chiqaruvchi korxonona nomi; ishlab chiqaruvchi STIR raqami; ishlab chiqaruvchi korxonaning rasmiy vakili STIR raqami; ishlab chiqaruvchi mamlakat nomi; mahsulot to'pi (partiyasi); tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi kod raqami; mahsulot summasi; mahsulot ishlab chiqarilgan vaqti (kun, oy, yil); mahsulotning egasi to'g'risida ma'lumotlar; nomuvofiq bo'lgan mahsulot aniqlangan savdo obyektining nomi va manzili; mahsulotda aniqlangan nomuvofiqliklar; muvofiqlik sertifikat va sinov bayonnomalari mavjudligi to'g'risidagi axborot; Ushbu ma'lumotlarni vakolatli organga yozma (elektron) shaklda xabar beradi.	Har oyning 5-sanasiga qadar
2-bosqich	Vakolatli organ	O'zining rasmiy veb-sayti yoki ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali mahsulotlarda aniqlangan nomuvofiqliklar to'g'risida jamoatchilikni va iste'molchilarni xabardor qiladi.	3 ish kuni muddatda

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-avgustdagi 502-son qaroriga
6-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar

1. Vazirlar Mahkamasining "Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2004-yil 6-iyuldagi 318-son qarorida:

a) 1-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"Quyidagilar:

Oldingi tahrirga qarang.

(1-band "a" kichik bandining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-noyabrdagi 720-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 14.11.2025-y., 09/25/720/1052-son)

Mahsulotni standart talablariga muvofiq sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga tasdiqlansin";

Oldingi tahrirga qarang.

(1-bandning "b" kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-noyabrdagi 720-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 14.11.2025-y., 09/25/720/1052-son)

v) quyidagi tahrirdagi 2-ilova bilan to'ldirilsin:

"Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 6-iyuldagi 318-son qaroriga
2-ILOVA

Mahsulotni standart talablariga muvofiq sertifikatlashtirish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom ishlab chiqariladigan va chetdan keltiriladigan mahsulotlarni standart talablariga sertifikatlashtirish tartibini belgilaydi.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirishni tashkil qilish va o'tkazish ishlari belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlari (keyingi o'rinlarda — MSO) tomonidan amalga oshiriladi.

Mahsulotlarning har bir turi bo'yicha sertifikatlashtirish tartibi MSO tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan sifat bo'yicha qo'llanma va sifat menejmenti tizimi hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu Nizom mahsulotlar yoki mahsulot talablariga bog'liq loyihalash jarayonlari (shu jumladan, tadqiqotlar), ishlab chiqarish, qurilish, montaj, sozlash, foydalanish, saqlash, tashish, sotish va utilizatsiya qilish (keyingi o'rinlarda — mahsulot) uchun standartlarda belgilangan talablarga muvofiqligini sertifikatlashtirish sxemalarini o'z ichiga oladi.

Sertifikatlashtirish davomida ilgari tekshirilgan xavfsizlik bo'yicha tavsifga ta'sir etmaydigan mahsulotning dizayni yoki tashqi tavsiflari o'zgarishi zamonaviylashtirilgan mahsulotni qo'shimcha baholashga sabab bo'lmaydi. Mahsulot xavfsizligi bo'yicha majburiy tavsiflar standartlarda belgilanadi.

2. Mazkur Nizom mahsulotlarni standart talablariga muvofiq sertifikatlashtirishga tatbiq etiladi.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirishda bir nechta MSO mavjud bo'lsa, ariza beruvchi o'z tanloviga binoan ulardan biriga murojaat qilish huquqiga ega.

3. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish ushbu Nizomga 1-ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda ushbu Nizomning 16-bobida keltirilgan mahsulotlarni sertifikatlashtirish chizmalari hamda 2-ilovada keltirilgan muvofiqlik sertifikati orqali mahsulotlarning muvofiqligini tasdiqlash jadvali qo'llanilishi hisobga olinadi.

Sertifikatlashning chizmalari tekshirishlar hajmiga qarab sertifikatlashtirish chizmasining murakkabligi, mahsulotning xavfsizlik darajasiga bog'liq holda aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni sertifikatlashning tavsiya etiladigan chizmalari ushbu Nizomning 16-bobida keltirilgan.

Har bir muayyan holatda MSO ariza beruvchining taklifini, yetkazib beriladigan mahsulot hajmi va muddatini, sinash usullarini, ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini va uning barqarorligining buzilish xavfi mavjudligini, shuningdek mazkur mahsulotning iste'molchilar uchun potensial xavfini hisobga olgan holda sertifikatlashtirish chizmasini tanlaydi.

Xalqaro tizimlar yoki bitimlar doirasida sertifikatlashtirish ushbu hujjatlarda nazarda tutilgan chizmalar bo'yicha bajariladi.

4. Sertifikatlashtirishda mahsulot muvofiqligini tasdiqlanishi lozim bo'lgan xususiyatlar (ko'rsatkichlar) ro'yxati, tekshirish va sinash usullari keltirilgan, sertifikatlashtiriladigan mahsulotga standartlarda belgilangan talablarga mos ekanligi tasdiqlanadi.

Standartlarda sertifikatlashtirish sinovlari to'g'risida bo'lim keltirilmagan yoki davlatlararo standartlarni qo'llanishi ko'rsatilmagan bo'lsa, u holda MSO standartlarda ko'rsatilgan tavsiflar majmuidan birinchi navbatda xavfsizlik bo'yicha talablarni belgilovchi ko'rsatkichlarni tanlaydi.

5. Sertifikatlashtirishda muayyan mahsulot uchun standartlardan tashqari mahsulotning majburiy talablarini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarga va boshqa rasmiy nashr etilgan normativ hujjatlarga ham amal qilish lozim.

6. Mahsulot sinovlarini o'tkazishda takrorlashga yo'l qo'ymaslik maqsadida milliy akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyalari (keyingi o'rinlarda — SL) milliy akkreditatsiyadan o'tgan boshqa SLda o'tkazilgan sinov natijalarini o'zaro tan olishlari lozim.

SLda muayyan ko'rsatkichlar bo'yicha o'tkazilgan sinovlarning natijalari mavjud bo'lsa, u holda MSO bu natijalardan qo'shimcha sinovlarsiz mahsulotlarni sertifikatlashtirishda foydalanishi mumkin. Bunda sinovlarning o'tkazilgan vaqti hisobga olinib, ushbu muddat mahsulot standartida belgilangan yaroqlilik muddatidan oshmasligi kerak.

7. Sertifikatlashtirish ishlariga haq to'lash, ariza beruvchi tomonidan muvofiqlikni baholash ishlari natijalaridan qat'i nazar, qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunda muvofiqlikni baholash ishlari to'lov oldindan amalga oshirilgandan so'ng bajariladi.

8. Mahsulotning muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berish muddati barcha zarur hujjatlar (sinov bayonnomalari va dalolatnomalar) berilgan vaqtdan boshlab uch ish kunidan oshmasligi lozim.

2-bob. Asosiy tushunchalar

9. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

ariza beruvchi — ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili, sotuvchi yoki import qiluvchi;

akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyasi (markazi) — akkreditatsiya organi tomonidan rasman tan olingan va muvofiqlikni baholash sohasida yagona davlat reyestriga kiritilgan, sinov va o'lchashlarni amalga oshiradigan O'zbekiston Respublika qonunchiligiga muvofiq ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxs yoki uning nomidan harakat qiluvchi ushbu yuridik shaxsning tarkibiy bo'linmasi;

ishlab chiqarishni baholash — sertifikatlashtirish organlari tomonidan ishlab chiqaruvchida respublika hududida muomalaga chiqarilayotgan mahsulotlarning standart talablariga sertifikatlashtirishda tasdiqlanadigan doimiy (barqaror) muvofiqligini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarga ega ekanligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan amallar to'plamini o'zida ifodalovchi mahsulotlarni sertifikatlashtirish sxemasining bir qismi;

importyor — mahsulot yetkazib beruvchi xorijiy ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) bilan tashqi savdo bitimini tuzib, ushbu mahsulotni respublika hududida muomalaga chiqaradigan va uning standart talablariga muvofiqligi uchun javobgar bo'lgan, qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

ishlab chiqaruvchining o'z sinov laboratoriyasi — ishlab chiqaruvchining sinov va o'lchashlarni qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linmasi;

ishlab chiqaruvchining filiali — ishlab chiqaruvchining yuridik shaxs bo'lmagan, hududidan tashqarida joylashgan va uning barcha funksiyalari yoki ularning bir qismini bajaradigan alohida bo'linmasi;

mahsulot to'pi — muvofiqlikni tasdiqlash uchun ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan yuk hujjatga muvofiq bir turdagi, bir nomli va belgisi mahsulot birligi;

sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash — sertifikatlangan mahsulotning sertifikatlashtirilayotganda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan davriy, takroriy baholash tartib-taomili;

sotuvchi — ishlab chiqaruvchi bo'lmagan holda mahsulotlarni shartnoma bo'yicha muomalaga chiqaruvchi, Respublika qonunchiligida belgilangan tartibda tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

sertifikatlashtirish sxemasi — mahsulotning standart talablariga muvofiqligi dalili sifatida ko'rib chiqiladigan harakatlar majmui;

turkum ishlab chiqariladigan mahsulot — yagona texnik hujjatlarga muvofiq yagona texnologik jarayon bo'yicha ishlab chiqariladigan va respublika hududida davriy yoki ketma-ket muomalaga chiqariladigan mahsulot to'pi;

yuk kuzatuv hujjatlari — mahsulot nomenklaturasi va miqdorini belgilovchi hujjatlar;

yagona buyum — donabay mahsulotning alohida yakka nusxasi;

ekspert — ma'lum sohada mahsulot muvofiqligini tasdiqlash uchun bilim va malakaga ega bo'lgan, sertifikatlashtirish organida mahsulot muvofiqligini tasdiqlash bo'yicha faoliyat yuritadigan jismoniy shaxs.

3-bob. Sertifikatlashtirish tartibi

10. Muvofiqlik sertifikatini MSO tomonidan rasmiylashtiriladi.

MSOlardan biri ariza beruvchi tomonidan mustaqil tanlanadi.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish uchun ariza beruvchi mazkur Nizomga 3-ildoda keltirilgan shaklda elektron tizim orqali arizani tegishli MSOga yuboradi.

11. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish chizmalari ketma-ket bajariladigan quyidagi tartiblarni o'z ichiga oladi:

- a) MSOga sertifikatlashtirish yuzasidan ariza berish va uni ko'rib chiqish;
- b) taqdim etilgan mahsulot standarti va arizaga ilova qilingan boshqa hujjatlarni tahlil qilish;
- v) ariza bo'yicha qaror qabul qilish;
- g) intellektual mulk obyektlariga, (tovar belgilari, tovar kelib chiqqan joy nomlari va geografik ko'rsatkichlar) (keyingi o'rinlarda — IMO) huquqlariga rioya etilganligini o'rganish va tekshirish;
- d) sinov dasturini tayyorlash va tasdiqlash (6-chizmadan tashqari);
- e) namunalarni identifikatsiya qilish, tanlab olish va SLga yetkazish (6-chizmadan tashqari);
- j) namunalarni SLda sinovdan o'tkazish (6-chizmadan tashqari);
- z) mahsulotni ishlab chiqarish sharoitlarini baholash (sertifikatlashtirishning 3, 4 va 5-chizmalari uchun);
- i) sifat tizimini baholash (5 va 6-chizmalari uchun);
- y) olingan natijalarni tahlil qilish, muvofiqlik sertifikatini berish yoki uni berishni rad etish;
- k) muvofiqlik sertifikatini davlat reyestrda elektron ro'yxatga olish.

12. Ariza beruvchi istalgan vaqtda, MSO esa birinchi talabga ko'ra quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

- a) akkreditatsiya qilish sohasiga taalluqli bo'lgan mahsulotni sertifikatlashtirish qoidalari;
- b) sertifikatlashtirish bo'yicha xizmatlar narxлари (tariflari) preyskuranti;
- v) akkreditatsiya guvohnomasi.

4-bob. Ariza taqdim qilish

13. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish uchun ariza beruvchi MSOga elektron tizim orqali ariza bilan murojaat qiladi. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

mahsulotning standart nusxasi;

mahsulotni markirovka qilish namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);

IMO ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi muhofaza hujjati (guvohnoma yoki patent) yoki IMODan foydalanish to'g'risida litsenziya (mavjud bo'lsa);

mahsulot standart talablariga muvofiqligiga isbot sifatida ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan boshqa hujjatlar (mavjud bo'lsa);

Arizaga ilova qilingan va chet tilida yozilgan hujjatlar O'zbekiston Respublikasining davlat tilidagi tarjimasi bilan taqdim etilishi shart.

14. Taqdim etilgan mahsulot uchun standartda veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik talablar mavjud bo'lganda, MSO veterinariya ekspertizalarini, fitosanitariya nazorati yoki ekologik ekspertizadan o'tkazish zarurligini aniqlaydi.

Mazkur amallar sertifikatlashtirish sinovlari bilan bir vaqtning o'zida o'tkazilishi mumkin va ariza beruvchiga muvofiqlik sertifikatini berishdan avval, bu amallar tegishli hujjatlarni taqdim etilishi bilan tugallanishi lozim.

15. Arizada nazarda tutilgan taqdirda, MSO ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sertifikatlashtirish ishlarini (veterinariya va fitosanitariya xulosalari) nusxalarini olish muddatini kechiktirgan holda boshlashi mumkin.

Bu holda sertifikatlashtirish organi ishlab chiqarilayotgan mahsulotga muvofiqlik sertifikatini faqat ariza beruvchi tomonidan ijobiy natijalarga ega bo'lgan hujjatlarning barcha zarur nusxalari taqdim etilgandan keyin berishga haqlidir.

5-bob. Intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni o'rganish va tekshirish

16. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish jarayonida MSO tomonidan tegishli mahsulotda qo'llanilgan nom, qadoqlar va boshqa rekvizitlarda IMOga bo'lgan huquqlarga rioya etilganligini aniqlash maqsadida o'rganish va tekshirishlar amalga oshiriladi.

Ushbu o'rganish va tekshirishlar sertifikatlashtirish sinovlarini o'tkazish uchun tanlab olingan mahsulot namunalarida (yorliq va qadoqlarda) qo'llanilgan belgi, nom va boshqa rekvizitlarni Adliya vazirligining "Sanoat mulki muhofazasi portali"da mavjud ma'lumotlar bilan solishtirish orqali o'tkaziladi.

17. Tegishli mahsulotda qo'llanilgan IMO ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi muhofaza hujjati (guvohnoma, patent yoki ularga ilova) nusxasi yoki IMODan foydalanish to'g'risidagi shartnoma nusxasi mavjud bo'lganda bunday o'rganish va tekshirishlar amalga oshirilmaydi.

O'rganish va tekshirish natijasida tegishli mahsulotda IMONing qonunga xilof ravishda qo'llanilganligi (kontrafaktligi) aniqlanganda, MSO sertifikatlashtirish ishlarini to'xtatadi va ariza beruvchiga asoslangan rad javobi beradi.

Bunda mahsulotda IMONing qonunga xilof ravishda qo'llanilganligini (kontrafaktligini) aniqlagan MSO tegishli ma'lumotlarni Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) va Adliya vazirligiga bir kun muddatda kiritishi shart.

6-bob. Sertifikatlashtirishga taqdim etilgan ariza va hujjatlar to'plamini ko'rib chiqish va tahlil qilish

18. MSO ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni quyidagi nuqtai-nazardan ko'rib chiqadi va tahlil qiladi:

a) arizaning to'g'ri to'ldirilganligi;

b) arizaga taqdim etilgan hujjatlar to'plamida materiallar to'liqligi va yetarliligi.

Ariza berilgandan so'ng MSO uni ko'rib chiqib, taqdim etilgan hujjatlarni tahlil qiladi va arizani olgandan keyin ikki ish kunidan kechiktirmay, ariza beruvchiga mahsulotlarni sertifikatlashtirishning belgilangan tartibiga asoslanadigan sertifikatlashtirishning barcha asosiy shartlari, shu jumladan, sertifikatlashtirish chizmasi va sertifikatlashtirish uchun normativ hujjat, sinovlar o'tkaziladigan SL ko'rsatilgan qarorni ma'lum qiladi. Qarorning tavsiya etilgan shakli mazkur Nizomga 4-ilovada keltirilgan.

Sertifikatlashtiriladigan mahsulotning standartlarida veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik normalar va talablar mavjud bo'lsa, qarorda veterinariya, fitosanitariya, xulosalarni yoki ekologik ekspertizani olish zarurligi ham ko'rsatiladi.

Ariza va ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan ilova hujjatlarini ko'rib chiqish va tahlil qilishning salbiy natijalari bo'yicha MSO ariza berilgan kundan boshlab bir ish kuni mobaynida ariza beruvchiga, arizaning kamchiligi yoki hujjatlar to'plamini to'ldirish sabablarini ko'rsatgan holda sertifikatlashtirish ishlarini o'tkazishni rad etish to'g'risida elektron tizim orqali xabar beradi.

MSONing sertifikatlashtirish ishlarini o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qarori arizani qabul qilishni rad yetish uchun asos bo'lib xizmat qilgan kamchilikliklar bartaraf etilganda, ariza beruvchi tomonidan ariza va hujjatlar to'plamini ushbu MSOga qayta yuborishiga to'sqinlik qilmaydi.

7-bob. Mahsulotlarni identifikatsiyalash, namuna (nusxa) olish, sinov va o'lchashlarini o'tkazish

19. MSO qaror qabul qilingan kundan boshlab va ariza beruvchi tomonidan to'lov amalga oshirilgandan so'ng ikki ish kun muddatda joyiga borib sertifikatsiya sinovlarini o'tkazish uchun mahsulot namunalarini tanlab oladi va identifikatsiya qiladi.

Namunalar soni, tanlab olish tartibi, identifikatsiya qilish va saqlash qoidalari mahsulotlarning standartlarida, shu jumladan sinov usullarida belgilanadi.

20. Sertifikatlashtirishga taqdim etilgan mahsulot namunalarini tanlab olishda identifikatsiya qilish amali standartlar hamda MSO tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan sertifikatlashtirishning tegishli qoidalariga asosan ushbu Nizomga 5-ilovaga muvofiq namunalarni identifikatsiya qilish va tanlab olish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda amalga oshiriladi. Mahsulot yorlig'i (markirovkasi) va tovar yo'l hujjatlar identifikatorlar hisoblanadi.

Agar identifikatsiya natijalariga ko'ra ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan namunalar standartlarda belgilangan talablarga nomuvofiq yoki sertifikatlashtiriladigan mahsulot turi belgilangan namunada emasligi yoki standartlar talablariga muvofiq sinovlarni o'tkazishga yetarli emasligi ma'lum bo'lsa, namunalar tanlab olinmaydi va ariza beruvchiga asoslangan rad javobi beriladi.

21. Mahsulot namunalarini tanlab olish va identifikatsiya qilish dalolatnomasi ikki nusxada rasmiylashtiriladi hamda ularning bittasi ariza beruvchiga beriladi.

22. Ariza beruvchi o'zining xohishiga ko'ra sertifikatlanadigan mahsulotning texnik tavsiflarini taqdim etishi mumkin.

Shuningdek, ariza beruvchi MSOga O'zbekiston Respublikasining Milliy akkreditatsiya tizimida akkreditlangan yoki xorijiy akkreditlangan SLlar tomonidan amalga oshirilgan sinovlar to'g'risidagi hujjatlarni (sinov bayonnomalari) taqdim etishi mumkin.

Bunda MSO sinov bayonnomalarini e'tirof etishda bayonnomada keltirilgan sinovlar talablari va natijalarining standartlarda belgilangan talablarga muvofiqligini tahlil qiladi.

Tahlil natijalari bo'yicha MSO bir ish kuni mobaynida sinov bayonnomalarini e'tirof etadi yoki ariza beruvchiga asoslangan sabablarni ko'rsatgan holda rad javobini yuboradi.

23. Ma'lum turdagi mahsulotni sertifikatlashtirish maqsadida sinov bayonnomalarini rasmiylashtirish va berish muddati ushbu turdagi mahsulotning standartlari bilan belgilanadigan uslublarga muvofiq sinovlarning davomiyligidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Namunalarning saqlanishi, sifati va sinovlarining ishonchliligi uchun SL (markaz) javob beradi. Sinovlarning bayonnomalari mas'ul mutaxassislar tomonidan imzolanadi va laboratoriya rahbari tomonidan imzo va muhr bilan tasdiqlanadi.

Sinov bayonnomalari ariza beruvchiga va MSOga taqdim etiladi. Agar mahsulotning sinovlari alohida parametrlar bo'yicha turli SLlarida o'tkazilgan bo'lsa, u holda mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligi bo'yicha sinov natijalarining ijobiyligi, barcha ijobiy sinov bayonnomalarning mavjudligi hisoblanadi.

24. Sertifikatlashtirishda standartning barcha talablarini tekshirish zarurligini MSO har bir muayyan holda, o'zidagi qo'shimcha hujjatlarni (sifat tizimiga yoki ishlab chiqarishga sertifikat, vakolatli tashkilotlarda o'tkazilgan sinov bayonnomalari, veterinariya, fitosanitariya xulosalari, ekologik ekspertiza, yetkazib beruvchining texnik hujjatlari va boshqalar)ni hisobga olib aniqlaydi.

Ariza beruvchi MSOga akkreditatsiyadan o'tgan SLlardagi mahsulot sinovlari bo'yicha qo'shimcha hujjatlarni taqdim etishi mumkin. Agar qo'shimcha hujjatlarda SLda muayyan ko'rsatkichlar bo'yicha o'tkazilgan sinovlarning natijalari mavjud bo'lsa, u holda MSO bu natijalardan qo'shimcha sinovlarsiz muvofiqlikni baholashda foydalanishi mumkin. Bunda sinovlarning o'tkazilgan vaqti hisobga olinib, ushbu muddat standartlarda belgilangan mahsulotning yaroqlilik muddatidan oshmasligi kerak.

25. Sertifikatlashtirish ishlariga to'lovni oldindan amalga oshirmaslik, laboratoriya sinovlarining salbiy natijalari, shuningdek, hujjatlarning to'liq bo'lmagan to'plamini taqdim etish muvofiqlik sertifikati berishni rad etish uchun asos hisoblanadi va bu to'g'risida MSO ariza beruvchiga aniq qonunchilik normalarini ko'rsatgan holda yozma ravishda xabar qiladi.

Bunda MSO sifat va xavfsizlik talablari tasdiqlanmagan mahsulot to'g'risida ikki kunlik muddatda rasmiy ravishda murojaatchiga, Agentlikka, Soliq qo'mitasiga, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasiga hamda ushbu tovarni nomuvofiq ekanligi to'g'risida xulosani taqdim etadi.

MSO tomonidan berilgan xulosa yuzasidan ariza beruvchi belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

26. Mahsulotning standartlarda belgilangan talablar bo'yicha muvofiqligini baholash yuzasidan o'tkazilgan sinovlar davomida butunlay yoki qisman buzilgan, shuningdek sinov davrida buzilmagan mahsulotning hisobdan chiqarilganligi (qaytarib berilganligi) to'g'risidagi dalolatnoma murojaatchi (yoki uning vakili) ishtirokida ushbu Nizomga 6-ilovaga muvofiq tuziladi.

8-bob. Ishlab chiqarishni baholash

27. Ishlab chiqarishni baholash MSO tomonidan turkum ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sertifikatlashtirishda, ishlab chiqaruvchida, chiqarilayotgan mahsulotning standartda belgilangan talablarga doimiy (barqaror) muvofiqligini ta'minlash uchun zarur sharoitlar mavjud ekanligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Sertifikatlashtirish chizmasiga qarab, ishlab chiqarishni baholash amali mahsulot muvofiqligini sertifikatlashtirishda sxemasida yoki sertifikatlangan mahsulotni davriy baholashdan o'tkazishda amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarishni mahsulotni identifikatsiyalash, namuna (nusxa) tanlash hamda sinov va o'lchashlari bilan bir vaqtda baholashga yo'l qo'yiladi.

28. Ishlab chiqarish MSO buyrug'i bilan tasdiqlangan komissiya tomonidan baholanadi.

Buyruqda ishlab chiqarishni baholash komissiya tarkibi (komissiya rahbari va mutaxassislar), ishlab chiqarishni baholashdan o'tkazishning aniq muddatlari ko'rsatiladi. Bunda ishlab chiqarishni baholash muddati o'n ish kunidan oshmasligi kerak.

29. Ishlab chiqarishni baholash komissiya tarkibi, ishlab chiqarish hajmi, texnologik jarayonlar, mahsulotlarning murakkabligi va boshqalardan kelib chiqib, bir nechta mutaxassislardan iborat bo'ladi. Bunda komissiya tarkibi besh kishidan oshmasligi lozim.

Ishlab chiqarish va mahsulotning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq malakali baholashni ta'minlash uchun mahsulot turi, unga, standartlarda belgilangan talablar va ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha asosiy bilimlarga ega mutaxassislar ishlab chiqarishni baholash komissiyasi tarkibiga kiritilishi kerak.

30. Ishlab chiqarishni baholash MSO rahbari (rahbar o'rinbosari) ishlab chiqqan va tasdiqlagan ishlab chiqarishni baholash dasturiga muvofiq mahsulot ishlab chiqarish (joyida) manzilida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarishni baholash quyidagilarni baholash orqali o'tkaziladi:

mahsulotning texnik (loyihaviy va (yoki) konstruktorlik va (yoki) texnologik va (yoki) foydalanish) hujjatlari;

ishlab chiqarilayotgan mahsulotning standart talablariga muvofiqligiga ta'sir etuvchi ishlarni bajaruvchi xodimlarning malakaliligi hamda ularning xavfsizligi;

ishlab chiqarish infratuzilmasi (ishlab chiqaruvchi hududida joylashgan va ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan obyektlar majmui (ishlab chiqarish obyektlari, yuk tashish mashinalari va boshqalar));

uskunalar (texnologik jihozlash vositalari), shuningdek, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash;

nazorat, o'lchash va sinov uskunalarini boshqarish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash;

mahsulotning standartlarda belgilangan talablarga muvofiqligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan o'lchash vositalari;

sertifikatlashtirilgan mahsulotlar (xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar)ning xavfsizlik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi, sotib olingan mahsulotlarning kirish nazorati;

texnologik jarayonlar, shu jumladan, maxsus (agar standartda tegishli talablar mavjud bo'lsa);

tayyor mahsulotning standartlarda o'rnatilgan xususiyatlarini nazorat qilish bilan bog'liq qabul qilish nazorati va davriy sinovlari;

tayyor mahsulotlarni tamg'alash (markirovkalash), saqlash, o'rab joylash va konservatsiyalash shartlari;

iste'molchi bilan o'zaro hamkorlik (jumladan, ushbu ishlab chiqaruvchining mahsulotlari haqida shikoyat va noroziliklarini ko'rib chiqish);

standartlarda belgilangan talablarga nomuvofiq mahsulotlar nazorati;

mahsulotni identifikatsiya qilish va kuzatiluvchanligi;

tuzatuvchi va profilaktika chora-tadbirlari.

31. Ishlab chiqarishni baholash natijalari yakuni bilan komissiya tomonidan MSOning menejment tizimining rahbariy hujjatlarida belgilangan shaklda uch ish kunida ikki nusxada tahlil natijalari, tasdiqlovchi hujjat va materiallarga havolalar hamda zarurat bo'lganda aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf qilish muddatlari ko'rsatilgan dalolatnoma tuziladi, uning bir nusxasi ishlab chiqaruvchiga topshiriladi, ikkinchi nusxasi mahsulotlarni MSOga taqdim qilinadi.

Bunda ishlab chiqarishni baholash natijasida aniqlangan nomuvofiqliklar va ularning sabablarini bartaraf qilish muddati bir oydan oshmasligi lozim.

Ishlab chiqarish baholash natijalari to'g'risidagi dalolatnomada ishlab chiqarishning standart talablariga javob beradigan, sertifikatlashtirishda muvofiqligi tasdiqlanadigan mahsulotni doimiy (barqaror) yo'lga qo'yish qobiliyati haqidagi xulosalar bo'lishi kerak.

Ishlab chiqarishni baholash hisoboti barcha komissiya a'zolari va ishlab chiqaruvchi tomonidan imzolanadi, ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqarishni baholash natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda o'z fikrini dalolatnomada bayon qilishi mumkin.

MSO mahsulotni sertifikatlashtirish ishlarini, ishlab chiqarishning baholash natijalari asosida to'xtatishi yoki tugatishi mumkin.

Sertifikatlashtirish ishlarini to'xtatib turish to'g'risidagi qaror, agar ariza beruvchi aniqlangan nomuvofiqliklar va ularning sabablarini belgilangan muddatlarda bartaraf etishi mumkin bo'lsa, qabul qilinadi.

Agar aniqlangan nomuvofiqliklarni tuzatish tadbirlari bilan bartaraf etish mumkin bo'lmasa yoki tuzatish tadbirlarini belgilangan muddatda amalga oshirish imkoni bo'lmasa, sertifikatlashtirish ishlarini tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilinadi.

Sertifikatlashtirish ishlarini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, MSO bu haqda ariza beruvchiga ma'lum qiladi.

Sertifikatlashtirish ishlarini qayta tiklash maqsadida:

Ariza beruvchi aniqlangan nomuvofiqliklar va ularning sabablarini bartaraf etishga qaratilgan tuzatish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi, ularning bajarilishini ta'minlaydi va bu haqda MSOga ma'lum qiladi;

MSO ariza beruvchi tomonidan amalga oshiriladigan tuzatish tadbirlarini tahlil qiladi va natijalari ijobiy bo'lsa, sertifikatlashtirish ishlarini qayta boshlashga qaror qiladi.

Agar ariza beruvchi belgilangan kamchiliklarni va ularning sabablarini belgilangan muddatda bartaraf eta olmasa, mahsulotni sertifikatlashtirish ishlarini bekor qilinadi.

Agar mahsulot ishlab chiqaruvchi filiallarida va (yoki) ishlab chiqarish maydonchalarida ishlab chiqarilgan bo'lsa, ishlab chiqarishni baholash, ishlab chiqaruvchining bir yoki bir nechta filiallarida va (yoki) eng keng assortiment (eng katta nomenklatura)da sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqaradigan va (yoki) eng katta hajmdagi sertifikatlashtirilgan mahsulotlar orasida eng murakkab mahsulotni ishlab chiqaradigan ishlab chiqarish maydonchalarida ishlab chiqaruvchi barcha filial va (yoki) ishlab chiqarish maydonchalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xavfsizligi va ishlab chiqarishning barqarorligi uchun mas'uliyati ta'minlanishi sharti bilan baholanadi.

Ishlab chiqarishni baholashning ijobiy natijalarida MSO sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash rejasi doirasida ishlab chiqaruvchining boshqa ishlab chiqarish obyektlarida ishlab chiqarishni baholashning keyingi jadvali (baholash sanalari ko'rsatilgan holda)ni tuzadi va ishlab chiqaruvchi bilan kelishadi.

32. Agar MSOga ilgari sertifikatlashtirilgan mahsulotdan konstruksiyasi (tarkibi, retsepturasi) yoki ishlab chiqarish texnologiyasida biroz farq bo'lgan yangi mahsulotni sertifikatlashtirish uchun ariza tushsa, MSOning qaroriga muvofiq quyidagi shartlar bajarilganda ishlab chiqarishni baholashning oldingi tahlili natijalari ushbu mahsulotlarga qisman yoki to'liq joriy etilishi mumkin:

a) mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar ishlab chiqarishni baholashdan o'tkazgan va ishlab chiqarishni baholash natijalari bo'yicha dalolatnoma tuzgan komissiya tarkibini tasdiqlagan MSO tomonidan amalga oshirilsa;

b) ishlab chiqaruvchi tomonidan mahsulot konstruksiyasi (tarkibi, retsepturasi) yoki ishlab chiqarish texnologiyasiga kiritilgan o'zgarishlar, mahsulotning standart talablariga muvofiqligiga ta'sir qilmasa;

v) ariza beruvchi yangi mahsulotlarni sertifikatlashtirish uchun arizani, ishlab chiqarishni baholashdan o'tkazgan va ishlab chiqarishni baholash natijalari haqidagi dalolatnomani yoki ilgari sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholashdan o'tkazish va ro'yxatga olish bo'yicha dalolatnomani rasmiylashtirilgan sanasidan boshlab bir yildan oshmagan muddatda taqdim etgan bo'lsa.

9-bob. Mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish

33. MSO ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar to'plami hamda mahsulotning standart talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat (sinov va o'lchashlar bayonnomalari (sertifikatlashtirish chizmasida ko'zda tutilgan hollarda)), ishlab chiqarishni baholash dalolatnomasini (sertifikatlashtirish sxemasida ko'zda tutilgan hollarda) tahlildan o'tkazadi.

O'tkazilgan tahlilning ijobiy natijalarida MSO mahsulotga muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risida mazkur Nizomga 7-ilovada keltirilgan qarorni ikki ish kuni mobaynida qabul qiladi.

34. Mahsulotni sertifikatlashtirishda baholashning salbiy natijalari mavjud bo'lsa, MSO asosli sabablari ko'rsatgan holda mahsulotga muvofiqlik sertifikatini berishni rad etishga qaror qiladi, bu haqda ariza beruvchiga, Agentlikka, Soliq qo'mitasiga, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasiga hamda tegishli vazirlar va idoralarga qaror qabul qilingan kunda ma'lum qiladi (bevosita yoki elektron pochta orqali yoki tegishli elektron tizim orqali).

35. Mahsulotlarning muvofiqlik sertifikati Nizomga 8-ilovada keltirilgan yagona elektron shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Muvofiqlik sertifikati MSO rahbari tomonidan elektron imzo bilan tasdiqlanadi.

Muvofiqlik sertifikati ularning yaroqlilik muddatiga (mahsulot yaroqliligining kafolatli muddatiga), yaroqlilik muddatiga (mahsulot yaroqliligining kafolatli muddatiga) ega bo'lmagan mahsulotlarga esa — ikki yil muddatga, seriyali ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun — uch yilga beriladi.

Seriyali ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikatining amal qilish davrida ishlab chiqarilgan mahsulotlar sertifikatlangan deb hisoblanadi va qayta sertifikatlashtirilmaydi.

Mahsulot sertifikatlashtirilganligini tasdiqlovchi asos sifatida muvofiqlik belgisi va mahsulotga qo'shib yuboriladigan va ekspluatatsiya hujjatlardagi ishlab chiqarish sanasi xizmat qiladi.

Bunda muvofiqlik sertifikati amalda bo'lgan davr mobaynida ariza beruvchi (muvofiqlik sertifikatining egasi) muvofiqlik sertifikatini qo'llash va muvofiqlik belgisidan foydalanish huquqini boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga berishi man etiladi.

10-bob. Rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yagona davlat reyestrda kiritish

36. Muvofiqlik sertifikatining amal qilish sanasi uning davlat reyestrda ro'yxatga olingan kundan hisoblanadi.

Muvofiqlik sertifikatlari davlat reyestrda unga ro'yxatga olish raqami rasmiylashtirilgan kundan boshlab ro'yxatga olingan hisoblanadi.

37. Muvofiqlik sertifikatlari davlat reyestri belgilangan tartibda yuritiladi.

38. Sertifikatlashtirish jarayonida rasmiylashtirilgan quyidagi hujjatlar, rasmiylashtirilgan kunning o'zida MSO tomonidan tegishli elektron dasturga kiritiladi:

ariza bo'yicha qaror;

IMO to'g'risidagi ma'lumotlar;

namuna tanlash va identifikatsiya qilish dalolatnomasi;

sinov bayonnomalari;

ishlab chiqarishni baholash dalolatnomasi;

muvofiq sertifikat berish yoki uni berishni rad etish qarori;

namunani hisobdan chiqarilganligi (qaytarib berilganligi) to'g'risidagi dalolatnoma muvofiqlik sertifikati.

11-bob. Muvofiqlik sertifikatiga o'zgartirish kiritish

39. Mahsulotning muvofiqlik sertifikati va (yoki) uning ilovalarini (qo'llanilgan sertifikatlashtirish chizmaga bog'liq holda) ushbu Nizom 11-bandining "a" — "k" kichik bandlarida nazarda tutilgan protseduralarni bajarmasdan quyidagi hollarda o'zgartirish kiritishga ruxsat etiladi:

mahsulot muvofiqlik sertifikati va uning ilovalarida xatolik va imloviy xatolarga yo'l qo'yilganda;

ishlab chiqaruvchining tashkiliy-huquqiy shakli o'zgarganda;

ishlab chiqaruvchining yuridik manzili o'zgarganda;

TIF TN O'zbekiston Respublikasi kodi o'zgarganda.

40. Ushbu Nizomning 39-bandida nazarda tutilgan hollarda ariza beruvchi MSOga mahsulotning muvofiqlik sertifikatiga o'zgartirish kiritish to'g'risida muvofiqlik sertifikati va (yoki) uning ilovalarini o'zgartirish kiritish uchun asos bo'lgan hujjatlarni ilova qilib yozma ravishda murojaat qiladi.

Mahsulotga muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirilgan MSO murojaat va ushbu bandning birinchi xatboshisida ko'rsatilgan hujjatlarni ko'rib chiqadi va mahsulot muvofiqlik sertifikatiga o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi va ariza beruvchiga (bevosita, elektron pochta orqali) yuboradi.

41. Ushbu Nizomning 39-bandida nazarda tutilgan hollarda mahsulot muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirilgan MSO ariza olingan kundan boshlab 10 ish kuni mobaynida, mahsulot muvofiqlik sertifikatiga va davlat reyestriga tegishli axborot kiritadi.

Elektron dasturda MSO o'zgartirish kiritilgan muvofiqlik sertifikatiga "O'zgartirilgan" belgisini qo'yadi.

42. Ushbu Nizomning 39-bandida nazarda tutilmagan hollarda MSO, qo'llanilgan sertifikatlashtirish chizmasiga qarab, ushbu Nizomning 7-bandida nazarda tutilgan tartibot amalga oshirish zarurligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

Agar ariza beruvchi ushbu Nizomning 11-bandida nazarda tutilgan tartibotlarni amalga oshirish shartlariga rozi bo'lsa, MSO qo'llanilgan sertifikatlashtirish sxemasiga qarab Nizomning 39-bandini hisobga olgan holda ushbu tartibotlarni bajaradi.

12-bob. Muvofiqlik sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish yoki bekor qilish

43. Mahsulot muvofiqlik sertifikatining amal qilishi quyidagi hollarda MSO tomonidan:

a) inson hayoti va/yoki salomatligi, mol-mulki, atrof-muhit, hayvon va/yoki o'simlik dunyosi xavfsizligiga mahsulot sabab tahdid tug'dirsa;

b) mahsulotning standart talablariga nomuvofiq bo'lganda;

v) sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholashning salbiy natijalari mavjud bo'lsa;

g) ariza beruvchi sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholashni o'tkazishdan bosh tortsa;

d) mahsulotning sertifikatlashtirish vaqtida tasdiqlangan xavfsizlik ko'rsatkichlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan konstruksiyasi (tarkibi) yoki uni ishlab chiqarish (tayyorlash) texnologiyasiga o'zgartirishlar kiritilganda, agar ariza beruvchi bunday mahsulotlarni muomalaga chiqarishdan oldin mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirgan MSOga yozma ravishda bunday o'zgarishlarni tasdiqlovchi hujjatlar (konstruktorlik hujjatlari, chizmalar, spetsifikatsiyalar)ni ilova qilgan holda xabar bermaganda;

e) ariza beruvchining yozma arizasi mavjud bo'lganda;

j) ariza beruvchida menejment tizimining amaldagi muvofiqlik sertifikati mavjud bo'lmaganda (sertifikatlashtirish chizmasida nazarda tutilgan hollarda);

z) Agentlikning Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirgan MSOga ularning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida taqdimnoma kiritilganda to'xtatiladi;

a) inson hayoti va/yoki salomatligi, mol-mulki, atrof-muhit, hayvon va/yoki o'simlik dunyosi xavfsizligiga mahsulot sabab tahdid tug'dirilishi tasdiqlanganda;

b) mahsulotning standart talablariga nomuvofiqligi qayta baholashda tasdiqlanganda;

v) sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholashning salbiy natijalari qayta mavjudligi tasdiqlanganda;

g) mahsulotning sertifikatlashtirish vaqtida tasdiqlangan xavfsizlik ko'rsatkichlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan konstruksiyasi (tarkibi) yoki uni ishlab chiqarish (tayyorlash) texnologiyasiga o'zgartirishlar kiritilganda, agar ariza beruvchi bunday mahsulotlarni muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirgan MSOga yozma ravishda bunday o'zgarishlarni tasdiqlovchi hujjatlar (konstruktorlik hujjatlari, chizmalar, spetsifikatsiyalar)ni ilova qilgan holda xabar bermasdan realizatsiya qilganligi ma'lum bo'lganda;

d) ariza beruvchining yozma arizasi mavjud bo'lganda;

e) ariza beruvchida mavjud menejment tizimining amaldagi muvofiqlik sertifikatini yangilanmaganda (sertifikatlashtirish chizmasida nazarda tutilgan hollarda);

yo) ariza beruvchi va/yoki ishlab chiqaruvchi tashkilot tugatilishi yoki ariza beruvchi tashabbusi bilan mahsulot turkum ishlab chiqarishdan to'xtatilganda;

j) mahsulotga taalluqli bo'lgan standart o'zgarganda amal qilishi tugatilganda yoki bekor qilinganda;

z) Agentlikning Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirgan MSOga uning amal qilishini bekor qilish to'g'risida asoslantirilgan taqdimnoma kiritilganda tugatiladi.

44. Agentlik qonunchilik normalari buzilganligi uchun mahsulotlarning muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilarining amal qilishini to'xtatish yoki bekor qilish vakolatiga ega.

45. Mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirgan MSO bilan kelishilgan kamchilikni tuzatish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish davrida mahsulot muvofiqlik sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qaror ariza beruvchi tuzatish ishlarini o'tkazib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishi va mahsulotning standart talablariga muvofiqligini tasdiqlash mumkin bo'lsa, qabul qilinadi. Agar buning imkoni bo'lmasa, mahsulotning muvofiqlik sertifikatini tugatiladi.

46. Mahsulot muvofiqlik sertifikatini to'xtatilgan taqdirda, mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirgan MSO:

a) mahsulot muvofiqlik sertifikatini amal qilishini to'xtatish to'g'risida qaror qiladi va muvofiqlik belgisini qo'llashni vaqtincha taqiqlaydi;

b) mahsulot muvofiqlik sertifikatini amalini to'xtatish to'g'risida davlat reyestriga ma'lumot kiritadi;

v) ariza beruvchiga kamchiliklarni tuzatish choralarini ko'rish muddatini belgilaydi;

g) ariza beruvchi tuzatish chora-tadbirlarining bajarilishini nazorat qiladi.

47. Mahsulot muvofiqlik sertifikatini amal qilishi to'xtatilganda, ariza beruvchi:

a) standart talablarga javob bermaydigan mahsulot miqdorini identifikatsiya qiladi va aniqlaydi;

b) aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tuzatish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

v) qonunchilikda belgilangan tartibda iste'molchilarni mahsulotlardan foydalanish (qo'llash) xavfi haqida xabardor qiladi;

g) MSOga tuzatish tadbirlari bajarilganligi to'g'risida yozma ravishda ma'lum qiladi.

48. Ariza beruvchi tuzatish tadbirlarini yakunlagandan so'ng mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirgan MSO:

a) mahsulot muvofiqlik sertifikatini qayta tiklash to'g'risida qaror qabul qiladi va muvofiq belgisidan foydalanishga ruxsat beradi;

b) mahsulot muvofiqlik sertifikatini qayta tiklash haqida davlat reyestriga ma'lumot kiritadi.

49. Agar ariza beruvchi aniqlangan kamchiliklar va ularning sabablarini bartaraf eta olmasa hamda mahsulotdan foydalanish (qo'llash) xavfi mavjud bo'lsa, mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirgan MSO tomonidan muvofiqlik sertifikatini bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

50. Agar ishlab chiqarilgan mahsulot muvofiqlik sertifikatini to'xtatib turish (qayta tiklash) yoki bekor qilish ariza beruvchining tashabbusi bilan amalga oshirilsa, ariza beruvchi ushbu sertifikatni rasmiylashtirgan MSOga bu haqda ariza (sabablarini ko'rsatgan holda) beradi.

Ariza bilan birgalikda mahsulotning muvofiqlik sertifikatini va mahsulot muvofiqlik sertifikatini to'xtatib turish (qayta tiklash) yoki bekor qilish uchun asos bo'lgan hujjatlar taqdim etiladi.

51. MSO rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikatini to'xtatib turish (qayta tiklash) yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qiladi.

52. Agar ariza beruvchi mahsulotning amal qilishi to'xtatilgan muvofiqlik sertifikatini qayta tiklashni talab qilsa, MSO sertifikatlashtirilgan mahsulotning davriy baholashdan o'tkazgandan so'ng muvofiqlik sertifikatini

qayta tiklash to'g'risida qaror qabul qiladi.

53. MSO mahsulot muvofiqlik sertifikatini to'xtatib turish (qayta tiklash) yoki bekor qilish to'g'risida davlat reyestriga tegishli yozuv kiritadi.

54. Mahsulot muvofiqlik sertifikatining amal qilishi davlat reyestriga tegishli axborot kiritilgan kundan e'tiboran to'xtatiladi (qayta tiklanadi) yoki tugatiladi.

13-bob. Mahsulotlar konstruksiyasi (tarkibi)ga o'zgartirishlar kiritish

55. Muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirilgan mahsulotning konstruksiyasi (tarkibi)ga yoki uni ishlab chiqarish texnologiyasiga mahsulot standart talablariga muvofiqligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan o'zgartirishlar kiritilganda, ariza beruvchi ushbu mahsulot muomalaga chiqarilishidan 30 kun oldin muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirgan MSOga mahsulot konstruksiyasi (tarkibi) yoki ishlab chiqarish texnologiyasiga kiritilgan o'zgartirishlarni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda yozma ravishda ma'lum qiladi.

MSO ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni tahlil qilish asosida belgilangan xabarnoma olingan kundan boshlab 10 ish kuni mobaynida mahsulot namuna (nusxa)lari sinov va o'lchashlarini o'tkazish va (yoki) ishlab chiqarishni baholash zarurligi to'g'risida (bunday mahsulotlar uchun ishlab chiqarishni baholash sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan bo'lsa) yoki bunday ehtiyoj yo'qligi bo'yicha qaror qabul qiladi.

MSOning qarori ariza beruvchiga bevosita yoki elektron pochta orqali yuboriladi.

56. Agar MSO mahsulot namuna (nusxa)lari va (yoki) ishlab chiqarishni baholash uchun sinov va o'lchashlarni o'tkazishga hojat yo'qligi to'g'risida qaror qabul qilsa, ariza beruvchi bunday qarorni olgandan keyingina konstruksiyasi (tarkibi) yoki ishlab chiqarish texnologiyasiga o'zgartirishlar kiritilgan mahsulotlarni muomalaga chiqarishga ruxsat etiladi.

57. Agar MSO mahsulot namuna (nusxa)larini sinov va o'lchashlari va (yoki) ishlab chiqarishni baholash (ishlab chiqarishni baholash bunday mahsulotlar uchun sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan bo'lsa) zarurligi to'g'risida qaror qabul qilinsa, bu ishlarni amalga oshirish uchun ariza beruvchi va MSO o'rtasida shartnoma tuziladi (ilgari tuzilgan shartnoma bo'lmaganda).

Amalga oshirilgan ishlar natijalari bo'yicha MSO mahsulot standart talablariga muvofiqligi (nomuvofiqligi) to'g'risida qaror qabul qiladi. Bu qaror ariza beruvchiga bevosita yoki elektron pochta orqali yuboriladi.

Mahsulotning standartlarda belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risidagi qarorda MSO ushbu mahsulotni amaldagi muvofiqlik sertifikati asosida muomalaga chiqarish mumkinligi haqida xabardor qiladi.

Mahsulotning standart talablariga nomuvofiqligi to'g'risidagi qarorda MSO mahsulotni amaldagi muvofiqlik sertifikati asosida muomalaga chiqarish mumkin emasligi to'g'risida xabardor qiladi va ariza beruvchi MSO bilan kelishilgan muddatlarda tuzatish choralarini ko'rgunga qadar ushbu sertifikatning amal qilishini to'xtatib turadi.

58. Agar ariza beruvchi tuzatish choralarini belgilangan muddatlarda o'tkazmasa, MSO mahsulotning muvofiqlik sertifikatini bekor qilishga qaror qiladi. Qaror ariza beruvchiga bevosita yoki elektron pochta orqali yuboriladi.

59. MSO tomonidan ushbu Nizomning 56 — 58-bandlarida nazarda tutilgan faoliyat natijalari asosida berilgan hujjatlar daliliy ashyolar to'plamiga kiritiladi va ariza beruvchi tomonidan davlat nazorati MSOga (talabiga binoan) hamda qonunchilikka muvofiq boshqa manfaatdor shaxslarga taqdim etiladi.

14-bob. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash

60. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash — uning muvofiqlik sertifikatining butun muddati davomida standartda o'rnatilgan va sertifikatlashtirishda tasdiqlangan talablarga muvofiq bo'lib qolishini belgilash maqsadida o'tkaziladigan tizimli baholashdan iboratdir.

61. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash, agar bu sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan bo'lsa, mahsulotga muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirgan MSO tomonidan sertifikatning to'liq amal qilish muddatida quyidagi usullarning bir yoki bir nechtasida amalga oshiriladi:

- a) sertifikatlashtirilgan mahsulot namuna (nusxa)larini identifikatsiyalash, sinov va o'lchashlarini o'tkazish;
- b) ishlab chiqarishni baholash.

Birinchi davriy baholash mahsulotlar sertifikatlashtirilgan sanasidan keyin o'n ikki oydan kechikmay o'tkaziladi. Keyingi davriy baholash har yili MSO rahbari tomonidan tasdiqlanadigan davriy baholash reja-jadvaliga muvofiq davriy, biroq avvalgi davriy baholash o'tkazilgan vaqtdan boshlab o'n ikki oydan kechikmay o'tkaziladi.

62. Ishlab chiqaruvchida menejment tizimi mavjud bo'lishi nazarda tutiladigan sertifikatlashtirish sxemalari uchun sertifikatlashtirilgan davriy baholash MSO tomonidan sertifikatlashtirilgan mahsulot namuna (nusxa)larida sinov va o'lchashlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

63. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash MSO tomonidan SL (markazi)ni jalb qilingan holda (zarur hollarda) amalga oshiriladi.

64. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash MSO tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash dasturiga muvofiq amalga oshiriladi.

65. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- a) sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash bo'yicha ishlarni bajarish uchun shartnoma tuzish;
- b) sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash uchun ekspertlar guruhi (komissiya)ni shakllantirish;
- v) sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash;
- g) sertifikatlashtirilgan mahsulotlar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish;
- d) sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni standartlarda belgilangan talablar bo'yicha sinovlarni amalga oshirish uchun sinov dasturini ishlab chiqish;
- e) mahsulotni identifikatsiya qilish;
- j) mahsulot namuna(nusxa)larini olish va ularda sinov o'tkazish;
- z) ishlab chiqarishni baholash;
- i) sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash natijalari asosida dalolatnomani rasmiylashtirish;
- k) sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash natijalari asosida qaror qabul qilish.

66. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash rejalashtirilgan yoki rejadan tashqari bo'lishi mumkin.

67. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni rejali davriy baholash sertifikatlashtirish shakllariga muvofiq mahsulot namuna (nusxa)larini identifikatsiyalash, ularda sinov va o'lchashlar ishlab chiqarishni baholash yo'li bilan amalga oshiriladi.

68. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash davomida mahsulotlarni identifikatsiya qilish va namuna (nusxa)larni olish ushbu Nizomning 7-bobiga muvofiq amalga oshiriladi.

69. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash davrida ishlab chiqarishni baholash ushbu Nizomning 8-bobiga muvofiq amalga oshiriladi.

70. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish to'xtatilgan va (yoki) sinov va o'lchashlarni o'tkazish uchun mahsulot namuna(nusxa)lari yo'qligi hollarida, ariza beruvchi sertifikatlashtirish MSO tomonidan belgilangan va ariza beruvchi bilan kelishilgan sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholashni o'tkazish muddatigacha MSOga yozma ravishda xabar qiladi.

MSO olingan xabarnoma asosida sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash muddatini 6 oygacha kechiktirishi mumkin.

71. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash natijalari tegishli dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi va bir nusxasi ariza beruvchiga beriladi.

72. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholash natijalari asosida MSO quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- a) mahsulot muvofiqlik sertifikatini tasdiqlangan deb tan olish;
- b) mahsulot muvofiqlik sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish;
- v) mahsulot muvofiqlik sertifikatini bekor qilish.

73. Mahsulotlar muvofiqlik sertifikatining amal qilishini tasdiqlash to'g'risidagi qaror, sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholashning ijobiy natijalarida qabul qilinadi va ariza beruvchiga yozma ravishda bevosita yoki elektron pochta orqali yuboriladi.

74. Agar ariza beruvchi tuzatish tadbirlarini o'tkazish natijasida mahsulotlarning standart talablariga mos kelmasligi sabablarini bartaraf etib, uning muvofiqligini tasdiqlashi mumkin bo'lsa, ishlab chiqaruvchining yozma murojaati, ishlab chiqaruvchining rejali davriy baholash o'tkazish bo'yicha ishlarga haq to'lashdan bosh tortishi, davriy baholash o'tkazishga ishlab chiqaruvchi tomonidan shart-sharoit yaratilmaganligi, davriy baholash o'tkazish jarayonida aniqlangan kamchiliklar mahsulot muvofiqlik sertifikatining amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qaror qabul qilishga asos hisoblanadi.

MSO mahsulot muvofiqlik sertifikatining amal qilishini to'xtatib turishga qaror qilsa, ariza beruvchi MSO bilan kelishgan holda, mahsulot standart talablariga nomuvofiqligi sabablarini bartaraf etish bo'yicha tuzatish tadbirlari rejasini ishlab chiqadi va uni amalga oshirish muddatlarini kelishadi.

75. Ariza beruvchining tuzatish tadbirlarini amalga oshirishi va ularni MSO tomonidan qoniqarli deb tan olinishi natijalari asosida mahsulotning muvofiqlik sertifikati qayta tasdiqlanadi.

76. Tuzatish tadbirlari rejasi ariza beruvchi tomonidan bajarilmagan, shu jumladan unda belgilangan muddatlarga rioya qilinmasligi va (yoki) tuzatish tadbirlari natijasi qoniqarsiz deb tan olinganda, ishlab chiqaruvchining yozma murojaati, sinov natijasiga ko'ra sertifikatlangan mahsulot standartlarda belgilangan talablarga nomuvofiq deb topilganda, ishlab chiqarish joyi o'zgarganda, muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirilgan mahsulotning (tovarning) standarti o'zgarganda, davriy baholash jarayonida to'g'irlab bo'lmas kamchiliklar aniqlangan hollarda, MSO mahsulot muvofiqlik sertifikatini bekor qilish to'g'risida qaror qabul qiladi.

77. Mahsulotlarga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirgan MSO tomonidan mahsulotlarning muvofiqlik sertifikatini to'xtatib turish, qayta tiklash yoki tugatish to'g'risidagi ma'lumotlar, ikki kun muddatda, ariza beruvchiga yetkaziladi va yagona davlat reyestriga ma'lumot kiritish uchun Agentlikka hamda ma'lumot tariqasida, soliq va bojxona organlariga, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va tegishli vazirlik va idoralarga bevosita yoki elektron pochta orqali yoki tegishli elektron tizim orqali yuboradi.

78. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni rejadan tashqari davriy baholash MSO tomonidan iste'molchilar va (yoki) davlat nazorati idoralaridan mahsulot xavfsizligiga e'tiroz mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar olinganda amalga oshiriladi.

Mahsulot muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati tugayotgan va ariza beruvchi tomonidan sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy baholashni o'tkazgan MSOga ariza berilganda, MSO ushbu mahsulotni sertifikatlashtirishda uni oxirgi davriy baholashning ijobiy natijalarini, agar uning amalga oshirilganiga 1 yildan oshmagan bo'lsa, hisobga oladi.

15-bob. Daliliy hujjatlarni shakllantirish va saqlash

79. MSO mahsulotga rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikati haqidagi ma'lumotlarni davlat reyestriga kiritgandan so'ng, MSO va ariza beruvchi mahsulotning standart talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi, qo'llanilgan sertifikatlashtirish sxemasiga qarab quyidagi hujjat va ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan daliliy hujjatlar to'plamini elektron dasturda shakllantiradi:

a) mahsulotlarga texnik hujjatlar (loyihaviy va (yoki) konstruktorlik, va (yoki) texnologik, va (yoki) foydalanish hujjatlari, va (yoki) texnik tavsiflar nusxalari;

b) standartlar to'plamiga kiritilgan standartlar ro'yxati (ularning nomi va belgilanishi, agar standartni to'liq emas balki alohida bo'lim, bob va bandlarini qo'llash orqali ta'minlanadigan bo'lsa, ushbu bo'lim, bob va bandlar), (ariza beruvchi tomonidan qo'llanilsa);

v) agar standartlar qo'llanilmagan yoki mavjud bo'lmasa, muvofiqlikni tasdiqlovchi qabul qilingan texnik yechimlar va xavf baholash natijalari tavsifi;

g) mahsulot namuna(nusxa)larini identifikatsiyalash va (yoki) tanlash to'g'risidagi dalolatnoma(lar) ;

d) mahsulotning standart talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi sinov va o'lchashlarning bayonlari (sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan hollarda);

e) menejment tizimining muvofiqlik sertifikati nusxasi (sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan hollarda);

j) mahsulotning muvofiqlik sertifikatlari, mahsulot ishlab chiqarishda qo'llaniladigan muhim komponentlar, xomashyo, materiallar yoki butlovchi buyumlar sinov va o'lchashlarining bayonlari (mavjud bo'lsa);

z) shartnoma (kelishuv) va yuk tashish hujjatlarining nusxalari (sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan hollarda);

i) respublika hududiga yetkazib berilgan mahsulotning standart talablariga muvofiqligi ta'minlanishi va bunday mahsulotlarning belgilangan talablarga mos kelmasligi uchun javobgarlik ko'zda tutilgan (ishlab chiqaruvchi vakolatlagan shaxs uchun) ishlab chiqaruvchi (shu jumladan, xorijiy ishlab chiqaruvchi) bilan kelishuv nusxasi;

k) ishlab chiqarishni baholash natijalari to'g'risida dalolatnoma (sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan hollarda);

n) ariza beruvchi tomonidan mahsulotning standart talablariga muvofiqligining isboti sifatida taqdim etilgan boshqa hujjatlar;

o) mahsulotning muvofiqlik sertifikati;

p) ariza beruvchining qonunchilikka muvofiq davlat ro'yxatidan o'tish paytida yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxsga berilgan ro'yxatga olish yoki hisobga olish (jismoniy shaxs, identifikatsiya) raqami to'g'risidagi ma'lumotlar.

80. Elektron dasturga kiritilmagan daliliy hujjatlar to'plami OSda chop etilgan shaklda 82-bandida belgilangan muddatlarda saqlanishi ta'minlanadi.

81. Mahsulotning muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlarini daliliy hujjatlar to'plami bilan birgalikda saqlash muddatlari standart bilan belgilanadi.

82. Agar mahsulotlarning muvofiqlik sertifikatlarini daliliy materiallar to'plami bilan birgalikda saqlash muddatlari standartlarda belgilanmagan bo'lsa, muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati tugagan kundan boshlab kamida 1 yil davomida;

83. Muvofiqlik sertifikati daliliy hujjatlar to'plami ariza beruvchi va (yoki) MSO tomonidan respublikada davlat nazoratini o'tkazish va standart talablariga rioya qilinishi ustidan nazorat uchun mas'ul bo'lgan davlat nazorati idoralariga (talabiga binoan) hamda boshqa manfaatdor shaxslarga taqdim etiladi.

16-bob. Sertifikatlashtirish chizmalarining qo'llanilishi

84. 1-chizma mahsulot turini sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va mahsulotni majburiy ko'rsatkichlari birinchi navbatda xavfsizlik bo'yicha SLda sinashni nazarda tutadi. Mazkur chizma mahsulotga aniq standart mavjud bo'lmagan taqdirda ham qo'llaniladi.

85. 2-chizma mahsulot turini sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va mahsulotni majburiy ko'rsatkichlari bo'yicha SLda sinashni nazarda tutadi. Mazkur chizma savdo nuqtalaridan (iste'molchidan) olingan namunalarni sinovlardan o'tkazish yo'li bilan mahsulotni inspeksiya nazoratidan o'tkazishni nazarda tutadi.

86. 3-chizma ishlab chiqariladigan mahsulotni sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va majburiy ko'rsatkichlarni tekshirish uchun mahsulotni SLda sinashni va ishlab chiqarishni baholashni nazarda tutadi. Mazkur chizmada ishlab chiqaruvchidan olingan mahsulotlarni sinovlardan o'tkazish yo'li bilan korxonada inspeksiya nazoratini o'tkazish nazarda tutilgan.

87. 4-chizma ishlab chiqariladigan mahsulotni sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va majburiy ko'rsatkichlarni tekshirish uchun mahsulotni SLda sinashni va ishlab chiqarish sharoitlarini baholashni nazarda tutadi.

Mazkur chizmada savdo nuqtasidan (iste'molchidan) va ishlab chiqarishdan olingan namunalarni sinovlardan o'tkazish yo'li bilan mahsulotni inspeksiya nazoratidan o'tkazish nazarda tutilgan.

88. 5-chizma ishlab chiqariladigan mahsulotni sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va majburiy ko'rsatkichlarni tekshirish uchun mahsulotni SLda sinashni va ishlab chiqarish sharoitlarini baholashni yoki sifat tizimini baholashni nazarda tutadi. Mazkur chizmada mahsulotni sinovlardan o'tkazish va ishlab chiqarishni tekshirish (yoki sifat tizimini baholash) yo'li bilan inspeksiya nazoratini o'tkazish nazarda tutilgan.

89. 6-chizma sifat tizimini sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va uni baholashni hamda keyinchalik inspeksiya nazoratini o'tkazishni nazarda tutadi.

90. 7-chizma mahsulot to'pining sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va mahsulotni SLda sinashni nazarda tutadi.

91. 8-chizma har bir mahsulotni (buyum) sertifikatlashtirishda qo'llaniladi.

92. 3, 4, 5, 7 va 8 chizmalar bo'yicha sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alanishi mumkin.

17-bob. Mahsulotni shtrixli kodlashtirish

93. Ariza beruvchi o'z xohishiga ko'ra tasniflash Yevropa tovar raqamlanishi uyushmasi (GSI) tomonidan kodlashtirish borasida korxonaning ro'yxatdan o'tkazish raqamini hamda ishlab chiqariladigan tovarning bir kun mobaynida beriladigan raqamli kodini olish uchun "GSI Uzbekistan"ga murojaat qiladi.

Agentlik tomonidan, belgilangan tartibga muvofiq shtrixli kodning noyob-maketi tayyorlanadi va beriladi.

94. Kod berish bo'yicha xizmatlar qiymati, shuningdek a'zolik badallari miqdori "GSI Uzbekistan" qatnashchilari tomonidan belgilanadi. Shtrixli kodning noyob maketlarini tayyorlash va berish shartnoma asosida amalga oshiriladi.

18-bob. Axborot ta'minoti

95. MSO rasmiylashtirilgan, tasdiqlangan, to'xtatilgan yoki tugatilgan sertifikatlarni, shuningdek, sertifikat berish rad etilgan holatlar hisobini yuritadi va ular to'g'risidagi axborotni har oyda Agentlikka taqdim etadi.

MSO manfaatdor tashkilotlarni o'z faoliyati va rasmiylashtirilgan sertifikatlari to'g'risida xabardor qiladi.

96. Agentlik:

muvofiqlik sertifikati berilgan mahsulotlar Davlat reyestri;

to'xtatilgan va tugatilgan muvofiqlik sertifikatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z veb-saytida joylashtiradi.

19-bob. Appelyatsiyalarni ko'rib chiqish

97. Manfaatdor tomonlar muvofiqlikni baholash natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda, Agentlikning Appelyatsiya kengashiga yoki bevosita sudga murojaat qilishga haqli.

98. Agentlikning Appelyatsiya kengashi MSO va SL (markazlar)ning qarorlariga nisbatan noroziliklarni ko'rib chiqadi. Apellyatsiya komissiyasi tarkibi va tartibi Agentlikning rahbari buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Apellyatsiya komissiyasi berilgan apellyatsiyani ko'rib chiqadi va qabul qilingan qaror to'g'risida ariza beruvchiga yozma ravishda ma'lum qiladi.

99. Manfaatdor tomonlar Agentlikning Appelyatsiya kengashi qarori bo'yicha qonunda belgilangan tartibda sudga shikoyat etishlari mumkin.

20-bob. Yakunlovchi qoidalar

100. Agentlik zarur hollarda MSOdan muvofiqlikni baholash materiallarini (hujjatlar) so'rab olishi mumkin.

101. Muvofiqlik sertifikatida ko'rsatilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi, sertifikatlashtirish muddatlari va qoidalarining buzilishi uchun javobgarlik MSOga yuklanadi.

102. Ushbu Nizomning buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javob beradi.

103. Sertifikatlashtirish tartibotlarining umumiy muddatlari ushbu turdagi mahsulotni standartlar bilan belgilanadigan uslublarga muvofiq sinovlardan o'tkazishning umumiy davom etish vaqtidan kelib chiqqan xolda belgilanadi.

Mahsulotni standart talablariga muvofiq
sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi
nizomga
1-ILOVA

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartiboti

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Ariza beruvchi	<p>Mahsulotni sertifikatlashtirishdan o'tkazish uchun hujjatlar to'plamini shakllantiradi.</p> <p>Mahsulotni sertifikatlashtirish organiga (keyingi o'rinlarda — MSO) mahsulotni sertifikatlashtirish uchun ariza beradi.</p>	Ariza beruvchining xohishiga ko'ra
2-bosqich	MSO	<p>1. Taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarning to'liqligi yuzasidan arizani quyidagicha o'rganadi:</p> <p>a) ijobiy natija bo'lganda mahsulotlarni sertifikatlashtirish yuzasidan qaror qabul qiladi va shartnoma tuzadi;</p> <p>b) hujjatlar to'liq bo'lmagan taqdirda hujjatlarni qaytaradi.</p> <p>2. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish uchun shartnomaga asosan haq to'langandan keyin mahsulotlarni identifikatsiya qiladi va namuna oladi hamda IMOga bo'lgan huquqlarni o'rganadi va tekshiradi (sertifikatlashtirish chizmasida belgilanganda).</p> <p>3. Mahsulot loyihasi tadqiqotini o'tkazadi (sertifikatlashtirish chizmasida belgilanganda).</p> <p>4. Mahsulot turini o'rganish bo'yicha tadqiqot o'tkazadi (sertifikatlashtirish chizmasida belgilanganda).</p> <p>5. Identifikatsiya qilish va namuna olish, IMO yoki mahsulot loyihasi tadqiqotini o'tkazish yoki mahsulot turini o'rganish jarayonlarida nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda, bu haqda ariza beruvchini ularni bartaraf etish uchun xabardor qiladi.</p> <p>6. Identifikatsiya qilish va namuna olish, IMO yoki mahsulot loyihasi tadqiqotini o'tkazish yoki mahsulot turini o'rganish jarayonlari bo'yicha aniqlangan nomuvofiqliklar bartaraf etilmagan taqdirda, ro'yxatga olish ishini to'xtatib turadi.</p> <p>7. Belgilangan muddatlarda nomuvofiqliklar bartaraf etilganligi haqida ma'lumot va tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmaganda MSO ariza beruvchiga sertifikatlashtirish ishlarini tugatish to'g'risida xabarnoma yuboradi.</p>	<p>2 ish kuni mobaynida</p> <p>1 ish kuni mobaynida</p> <p>1 ish kuni mobaynida</p> <p>1 ish kuni mobaynida</p> <p>3 ish kuni mobaynida</p> <p>10 ish kuni mobaynida</p> <p>10 ish kuni mobaynida</p> <p>1 oygacha (ariza beruvchi tayyorligi natijalari bo'yicha)</p> <p>3 ish kuni mobaynida</p>
3-bosqich	MSO	Identifikatsiya qilish va namuna olish jarayonida kamchiliklar aniqlanmaganda, shuningdek, belgilangan muddatlarda kamchiliklar bartaraf etilganligi haqida ma'lumot va tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilganda, tanlab olingan namunalarni dalolatnoma bilan akkreditlangan sinov laboratoriyasiga yuboradi.	1 ish kuni mobaynida
	Sinov laboratoriyasi	<p>Tanlab olingan namunalarni standartda belgilangan tartibda sinovdan o'tkazadi.</p> <p>Olingan sinov natijalarini bayonnoma ko'rinishida rasmiylashtirib MSOga taqdim qiladi.</p>	<p>Sinovlar davomiyligidan kelib chiqib</p> <p>1 ish kuni mobaynida</p>
	MSO	<p>Ishlab chiqarish baholashdan o'tkazadi va natijalar bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtiradi (sertifikatlashtirish chizmasida belgilanganda).</p> <p>Ishlab chiqarishni baholash jarayonida nomuvofiqlik aniqlansa, aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish to'g'risida ariza beruvchiga xabarnoma yuboradi.</p> <p>Ishlab chiqarishni baholash jarayonida aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilmagan taqdirda, sertifikatlashtirish ishini to'xtatib turadi.</p> <p>Belgilangan muddatlarda kamchiliklar bartaraf etilganligi haqida ma'lumot va tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilganda, MSO uni ko'rib chiqadi hamda ariza bo'yicha ishlarni, to'xtatish yoki davom ettirish yuzasidan qaror qabul qiladi.</p> <p>Belgilangan muddatlarda kamchiliklar bartaraf etilmaganda MSO ariza beruvchiga sertifikatlashtirish ishlari tugatilganligi to'g'risida xabarnoma yuboradi.</p>	<p>10 ish kuni mobaynida</p> <p>2 ish kuni mobaynida</p> <p>1 oy mobaynida (ariza beruvchi xohishiga ko'ra)</p> <p>2 ish kuni mobaynida</p> <p>2 ish kuni mobaynida</p>
	Ariza beruvchi	Ishlab chiqarishni baholash jarayonida nomuvofiqliklar aniqlanganda, nomuvofiqlikni bartaraf etadi va tasdiqlovchi hujjatlar bilan MSOga ma'lumotlarni taqdim etadi.	1 oy mobaynida (ariza beruvchi xohishiga ko'ra)

4-bosqich	MSO	<p>MSO identifikatsiya qilish va namuna olish dalolatnomasi, mahsulot loyihasi tadqiqotini o'tkazish bo'yicha xulosa, mahsulot turini o'rganish bo'yicha xulosa, sinov bayonnomalari, ishlab chiqarishni baholash dalolatnomasi hamda taqdim qilingan hujjatlar majmui asosida muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risida qaror qiladi.</p> <p>Mahsulotning sinov va o'lchashlar davrida butunlay yoki qisman buzilgan, shuningdek, sinash davrida buzilmagan mahsulot bo'yicha hisobdan chiqarilganligi (qaytarib berilganligi) to'g'risidagi dalolatnomani rasmiylashtiradi.</p> <p>Ijobiy qaror qabul qilinsa mahsulotlarga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtiriladi va reyestrda ma'lumotlar kiritadi.</p>	<p>2 ish kuni mobaynida</p> <p>2 ish kuni mobaynida</p> <p>3 ish kuni mobaynida</p>
-----------	-----	--	--

Mahsulotni standart talablariga muvofiq sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizamga
2-ILOVA

Muvofiqlik sertifikati orqali mahsulotlarning muvofiqligini tasdiqlash

JADVALI

Chizma raqami	Akkreditlangan sinov laboratoriyalarining sinovi yoki muvofiqlikni baholashning boshqa dalili	Ishlab chiqarish sharoitlarini baholash yoki sifat tizimini baholash	Sertifikatlangan mahsulot ustidan inspeksiya nazorati (sifat tizimini)
1.	Mahsulot turining sinovi	-	-
2.	Mahsulot turini sinovdan o'tkazish	-	Savdodan (iste'molchidan) olingan namunalarning sinovi
3.	Mahsulot turini sinovdan o'tkazish	Ishlab chiqarishni baholash	Ishlab chiqaruvchidan olingan namunalarni sinash
4.	Mahsulot turini sinovdan o'tkazish	Ishlab chiqarishni baholash	Savdo (iste'molchidan) va ishlab chiqarishdan olingan namunalarni sinovdan o'tkazish
5.	Mahsulot turini sinovdan o'tkazish	Ishlab chiqarishni baholash yoki sifat tizimini baholash	Namuna sinovi va sifat tizimini baholash (ishlab chiqarishni o'rganish)
6.	-	Sifat tizimini baholash	Boshqaruv tizimining holatini baholash
7.	Mahsulot to'pini sinovdan o'tkazish	-	-
8.	Har bir namunani sinash	-	-

Mahsulotni standart talablariga muvofiq sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizamga
3-ILOVA

_____ (sertifikatlashtirish organi nomi)

_____ (sertifikatlashtirish organi manzili)

O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida mahsulotni sertifikatlashtirish uchun

ARIZA

_____ (ariza beruvchining nomi (ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi yoki yakka tartibdagi tadbirkorning F.I.O.))

_____ (ariza beruvchining manzili)

nomidan _____ shuni ma'lum qiladiki _____

_____ (rahbarning F.I.O.)

_____ (mahsulotning nomi, turi, TIF TN kodi,

(turkum yoki partiyali ishlab chiqarilgan, har bir mahsulot (bitta ishlab chiqarish uchun)

_____ga asosan ishlab chiqariladi

(ishlab chiqaruvchi hujjatlarining nomi)

_____ talablariga javob beradi

(normativ hujjatning nomi va raqami)

va ushbu mahsulotlarni ko'rsatilgan hujjatlar talablariga muvofiqligini sertifikatlashtirishni qo'yidagi chizmaga asosan amalga oshirishni so'raydi _____

(sertifikatlashtirish chizmasi raqami)

Qo'shimcha ma'lumotlar

_____ (xulosalar va boshqa hujjatlarning mavjudligi ko'rsatiladi)

Ariza beruvchi

_____ (elektron imzo)

_____ (F.I.O.)

Sana

Mahsulotni standart talablariga muvofiq
sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi
nizomga
4-ILOVA

_____ (MSO nomi)

“TASDIQLAYMAN”

Mahsulotlarni

sertifikatlashtirish

organi rahbari

_____ (imzo) _____ (F.I.O.)

_____ (MSO manzili)

20__ y. “__” _____

muhr

Sertifikatlashtirish bo'yicha ariza yuzasidan

QAROR

20__ y. “__” _____ -son

Arizani ko'rib chiqib _____

(ishlab chiqaruvchining, yetkazib beruvchining nomi)

sertifikatlashtirish uchun _____

(mahsulot nomi, TIF TN kod)

ma'lum qilamiz:

1. Sertifikatlashtirish quyidagi sxemaga muvofiq amalga oshiriladi _____

(sxemasi raqami)

2. Sertifikatlashtirish uchun sinovlar _____ da o'tkazilishi kerak

(SL nomi)

_____ (SL manzili)

3. Sertifikatlashtirish _____ talablariga muvofiq o'tkaziladi

(NH nomlanishi va belgilanishi)

4. Ishlab chiqarishni baholash _____ da o'tkaziladi

(korxonaning nomi)

_____ (manzil)

_____ (ishlab chiqarishni baholash turi)

5. Ish uchun to'lov shakli

_____ (tadbirkorlik shartnomasi, tariflar va boshqa to'lov turlari bo'yicha)

6. Sertifikatlashtirish maqsadida _____ ni topshirish kerak

(zarur hujjatlar ko'rsatilishi)

Mahsulotni standart talablariga muvofiq
sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi
nizomga
5-ILOVA

Namunalarni identifikatsiya qilish va tanlab olish

DALOLATNOMASI

20__ y. "___" _____

Ishlab chiqaruvchining nomi (ariza beruvchining) _____

Namunalar olingan tashkilotning nomi va manzili _____

Mahsulot turining nomi _____

O'lchov birligi _____

Partiya hajmi _____

Partiyani tashqi tekshirish natijasi _____

(qadoqlash, yorliqlash holati)

Ishlab chiqarilgan sana _____

Olingan namunalar soni _____

(birlikni qadoqlash holati)

(Sinov uchun) _____

(Nazorat namunalari uchun)

Namuna olish maqsadi: normativ hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq mahsulotlarni xavfsizlik ko'rsatkichlari bo'yicha sinovdan o'tkazish.

Namuna olish joyi va sanasi _____

Imzolar:

Ishlab chiqaruvchidan

(ariza beruvchidan)

_____ imzo

_____ F.I.O.

Mahsulotlarni

sertifikatlashtirish organidan

imzo

F.I.O.

Bojxona posti inspektori

imzo

F.I.O.

(orqa tarafi)

MAHSULOT IDENTIFIKATSIYASI:

Nomi (marka, model, tur, sinf mavjud bo'lsa) _____

Ishlab chiqaruvchi (mamlakat va korxonasi) _____

Qadoq va yorliq haqida ma'lumot _____

Maqsad / mo'ljallangan _____

Asosiy xususiyatlari _____

Saqlash shartlari _____

Ishlab chiqarilgan sana _____

Saqlash muddati _____

Qo'shimcha ma'lumotlar (mavjud bo'lganda) _____

Imzolar:

Mahsulotlarni

sertifikatlashtirish organidan

imzo

F.I.O.

Ishlab chiqaruvchidan

(ariza beruvchidan)

imzo

F.I.O.

Mahsulotni standart talablariga muvofiq
sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi
nizomga
6-ILOVA

MAHSULOTLARNI HISOBDAN CHIQRISH (QAYTARISH) TO'G'RISIDA

DALOLATNOMA

20__ y. "____" _____ dan

(yuridik va jismoniy shaxsning nomi)

(arizaning sanasi va raqami)

Bu dalolatnoma 20__ y. "___" _____dagi _____-son namunalarni tanlab olish dalolatnomasiga muvofiq tanlab olingan mahsulot namunalari:

sinov davrida butunlay buzilgan;

sinov davrida yo'q qilinmagan yoki qisman buzilgan, ariza beruvchiga qaytarilganligi to'g'risida tuzilgan.

Ishlab chiqaruvchidan (ariza beruvchidan)

imzo

F.I.O.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish organidan

imzo

F.I.O.

Mahsulotni standart talablariga muvofiq
sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi
nizomga
7-ILOVA

(MSO nomi)

"TASDIQLAYMAN"

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish

organi rahbari

(imzo) _____ (F.I.O.)

"___" _____ 20__ y.

(MSO manzili)

muhr

Sertifikatlashtirish natijasi yuzasidan

QAROR

20__ y. "___" _____-son

1. Sertifikatlashtirilayotgan mahsulotlarning sinov bayonnomalarini tahlilli.
2. Ishlab chiqarishni baholash bo'yicha xulosalar (agar sertifikatlashtirish sxemasida nazarda tutilgan bo'lsa).
3. Hujjatlarning to'liqligi asosida muvofiqlik sertifikatini berish / rad etish (tegishligi tagiga chizing)

(mahsulot(lar) nomi)

(Jismoniy yoki yuridik shaxs nomi)

Rad etish sababi _____

1.

Ekspert

(imzo)

(F.I.O.)

Mahsulotni standart talablariga muvofiq
sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi
nizomga
8-ILOVA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SERTIFIKATLASHTIRISH**

MILLIY TIZIMI

(sertifikatlashtirish idorasi nomi, manzili, Davlat reyestrtdagi raqami)

MUVOFIQLIK SERTIFIKATI

yildan son bilan

(milliy muvofiqlik belgisi) Davlat reyestrtda
ro'yxatga olingan

Amal qilish muddati yilgacha

TIF TN kodi

(ma'lumot uchun)

(tashkilot nomi, ishlab chiqaruvchi mamlakat)

Ushbu sertifikat tegishli ravishda identifikatsiyalangan mahsulot:

(nomi, turi, xili, rusumi)

(miqdori yoki seriyali ishlab chiqarilishi)

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjat talablariga
muvofiqligini tasdiqlaydi.

Sertifikatlashtirish sxemasi:

Murojaatchi (ishlab chiqaruvchi, sotuvchi):

(keraklisi tagiga chizilsin)

(amaldagi va yuridik manzili)

Sertifikat quyidagilarga asosan berildi:

a) hujjatlar

b) namunalar sinovi

v) ishlab chiqarishni tekshirish dalolatnomasi

Inspeksion nazoratni davriylik bilan amalga oshiradi.

Alohida yozuvlar:

Muvofiqlik belgisi qo'yiladi:

Mahsulotlarni
sertifikatlashtirish organi rahbari (elektron imzo) (F.I.O.)

Ekspert (F.I.O.)

2. Vazirlar Mahkamasining “Sertifikatlashtirish tartibotlarini va sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2011-yil 28-apreldagi 122-son qarorining 2-bandi va qaror bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat va xavfsizlik talablariga muvofiqligini ishlab chiqaruvchi tomonidan ma‘lum qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom chiqarib tashlansin.

3. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida muvofiqligi tasdiqlanishi lozim bo‘lgan muvofiqlikni baholash obyektlari ro‘yxatlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 30-yanvardagi 43-son qarorida:

a) 2-bandning beshinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Majburiy tartibda muvofiqligi baholanishi lozim bo‘lgan mahsulotlar ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin”.

b) 4-ilova quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-yanvardagi 43-son qaroriga 4-ILOVA

Majburiy tartibda muvofiqligi baholanishi lozim bo‘lgan mahsulotlar

RO‘YXATI

T/r	Mahsulot nomi	TIF TN kodi
Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirishi lozim bo‘lgan mahsulotlar		
1.	Ko‘chatlar (uzumning ekish materiallari, nihollar, urug‘li va danakli mevali ekinlar, navdor atirgul va siren, efir-moyli atirgul, efir-moyli geran)	0601 — 0602
2.	Faqat ekish uchun mo‘ljallangan sabzavot va ayrim yeyiladigan ildizmeva, tubmevali va tuganak mevali o‘simliklar	0701, 0703, 0712 90 110 0, 0713
3.	Ziravorlar (urug‘lik maqsadida)	0909 — 0910
4.	Donlar (barcha turlari, urug‘lik va tovar donlar)	1001 — 1008
5.	Tegirmonchilik-yorma sanoati mahsulotlari: solod, kraxmal, inulin, bug‘doy kleykovinasi.	1101 00 — 1109 00 000 0*
6.	Faqat ekish uchun mo‘ljallangan meva urug‘lari va boshqa urug‘lar	1201, 1202, 1204 — 1207, 1209
7.	Alkogol ichimliklari	2203 — 2208
8.	Tamaki va sanoat tamakining o‘rnini bosuvchi mahsulotlar	2401 — 2404
9.	Infuzoriya yerlari, sement	2512 00 000 0, 2523
10.	Mineral yoqilg‘i, neft va ularni haydash mahsulotlari; bituminoz moddalar; mineral mumlar	2701 — 2703 00 000 0, 2705 00 000 0, 2707, 2710 — 2712 (2711 12 940 0 dan tashqari), 2714 10 000 0, 2715 00 000 0

11.	Suvda aralashgan ammiak, ammoniy xloridi, kaliy nitrati, nitratlar, vodorodfosfat kalsiya (fosfat dikalsiya), kalsiy fosfatlari, sulfatlar, xloridlar, kaliy fosfati, borat kislota, bor oksidlari, molibdatlar	2814 20 000 0, 2827 10 000 0 2827 39 850 0, 2834 29 800 0, 2835 24 000 0, 2835 25 000 0, 2835 26 000 0, 2833 29 800 0, 2810 dan, 2827 dan, 2833 dan, 2840 dan, 2841 70
12.	Notsiklik va siklik uglevodorodlar (faqat yoqilg'i sifatida ishlatiladigan mahsulotlar uchun)	2901 — 2902 (2901 10 000 1 dan tashqari)
13.	Farmatsevtika mahsulotlari (inson va hayvon organizmidan olingan va transplantatsiya uchun mo'ljallangan bezlar va organlardan tashqari)	3001 — 3006 (3002 90 100 0, 3002 90 300 0, 3006 50 000 0, 3006 92 000 0 dan tashqari)
14.	Mineral o'g'itlar	3102-3105
15.	Inson va hayvonlar uchun qo'llaniladigan efir moylari va rezinoidlar; inson va hayvonlar uchun qo'llaniladigan parfyumeriya, kosmetik yoki pardoziy vositalari; veterinariya maqsadlari uchun qo'llaniladigan antiseptik, dezinfektsiyalovchi va insektoakaritsid vositalari	3301 — 3307
16.	Gugurtlar	3605 00 000 0
17.	Insektitsidlar, rodentitsidlar, fungitsidlar, gerbitsidlar	3808
18.	Olovbardosh sement	3816 00 000 0
